

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT  
TEKNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKASIYALARNI  
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEKNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI**

**ARIFXANOV B. A.**

**URUHLAR VA HARBIY SAN'AT TARIXI**

(Maxsus fakultet talabalari uchun )

**Toshkent 2015**

## 1 Mavzu: Urushlar tarixi va hozirgi zamon.

Reja:

- 1." Urushlar va harbiy san'at tarixi"ning predmeti va mohiyati.
2. Urushning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, uning sabablari va tabiati.
3. Harbiy san'at, uning tarkibi.

O'z mustaqilligiga erishganidan so'ng O'zbekiston oldida bir qator dolzarb vazifalar paydo bo'lgan: demokratik huquqiy davlatni, fuqarolik jamiyat asoslarini tashkil etish, respublikaning xalqaro maydondagi obro'sini mustahkamlash. O'z mustaqil, suveren davlatni shakllantirishda muhim vazifalaridan biri-mamlakatning barqarorligini, tinchligini, uning milliy xavfsizligini ta'minlash. Milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi muhim omillaridan biri mustahkam, kuchli, yaxshi qurollangan Qurolli kuchlarni tashkil etishdir. Qurolli kuchlarni kuchaytirish zarurati milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi quyidagi omillar bilan belgilanadi: diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, mintaqaviy mojarolar. SSRI parchalanishi sababli dunyodagi sovuq urush to'xtagan bo'lsa ham, ammo urush xavfi yo'qolmagan. Yirik rivojlangan davlatlar o'z mavqeini mustahkamlash, o'z ta'sir doirasini kengaytirish maqsadida turli usullardan, jumladan, zo'ravonlikdan ham foydalanishga tayyor edi. Shuning uchun ham O'zbekiston o'z Qurolli kuchlarini isloh qilib, milliy xavfsizligini mustahkamlashga harakat qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Ularning jangovar qobiliyati hamda bosqinchilik qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib turish vazifalarini bajarishga tayyorlik darajasidan iboratdir"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup>I.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.163b.T.1997

Harbiy qurilish sohasidagi asosiy maqsad- professional armiyani o'z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta'lim olgan, o'z xalqiga sadoqatli bo'lgan, o'z Vatanining sha'ni va qadr-qimmatini oxirigacha himoya qila oladigan jangchilarga ega bo'lgan armiyani bosqichma -bosqich vujudga keltirishdan iborat.

Qurolli Kuchlarning harbiy qudrati, jangovar qobiliyati quyidagi omillarga bog'liq:

- shaxsiy tarkibning miqdori va sifati. Bu sifat uning professional, axloqiy-ruhiy qat'iyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi.

- Qurolli Kuchlar harbiy qudratining eng muhim masalasi-uning qurol-yaroqlar va harbiy texnika bilan ta'minlanganligi.

- harbiy infrastrukturaning rivojlanishi (boshqaruv va aloqa tizimi, harbiy, ichki va texnikaviy ta'minoti, turli xil qo'shin turlarining joylashtirish tizimi).

Qurolli Kuchlarning jangovar qobiliyatini oshirishda eng muhim masalalaridan biri yuqori professional, yaxshi tayyorlangan, malakali ofitser kadrlarini tayorlashdir. Yuqori malakali ofitser bo'lish uchun ular faqat maxsus harbiy bilimlarga ega bo'lmasdan, balki keng dunyoviy qarashga ega bo'lgan, oddiy askarlarning psixologiyasini tushunadigan, tarbiyaviy ishni tashkil qila oladigan shaxs bo'lishlari shart. Shu bilan birga har bir ofitser o'z ishining faqat yuqori malakali mutaxasis bo'lmasdan, balki o'z davlatning fuqarosi bo'lib, komil inson bo'lishiga intilishlari kerak. Bu esa, avvalom bor, o'zlikni anglashdan boshlanadi. Shu fazilatlarini shakllanishida tarixning o'rni beqiyos. Prezidentimiz aytganidek: "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emas." Tarixiy manbaalarning guvohlik berishicha, ajdodlarimiz hamisha o'z jasorati, shijoati va Vatan himoyasi uchun fidoyiligi bilan ajralib turgan. Ularning harbiy mahorati va matonati esa o'nlab mamlakatlarni zabt etgan bo'lib, yirik saltanatlar barpo

etgan. Axamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon qo'shinlariga ham pand berib, hayratga solgan.

Tarixning tarkibiy qismi harbiy tarixdir. Uning ahamiyati shundaki, u urushlar tarixini o'rganib, maxsus fakultetda ta'lim olayotgan talabalar uchun urushlarni olib borish usullari, urushlar strategiyasi va taktikasi bilan tanishtirishda, harbiy san'atni o'zlashtirishda, askarlarni tarbiyalashda yordam beradi. Urushlar tarixini o'rganib, talabalar o'z kasbining mohiyatini va ahamiyatini yaxshiroq tushunishadi. Urushlarning xarakteri, ularni kelib chiqargan sabablari, urushlarni olib borish usullari, harbiy san'atning rivojlanishi bilan harbiy tarix shug'ullanadi. Harbiy tarix urushlarning mohiyatini, ularning mazmunini, davrlarini, natijalarini, shu urushlaridan kelib chiqqan saboqlarini ochib beradi. Harbiy san'atni rivojlanishi iqtisodiyotning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy tuzum xarakteri bilan belgilanadi.

"Urushlar tarixi" kursining asosiy vazifalaridan biri urushlar tarixini va harbiy san'atni o'rganib, urushlarning qonuniyatlarini anglab olish, undan saboq olish va shu orqali ofitserlarning dunyo qarashini kengaytirib, kasbiy mahoratini oshirib, ularning malakasini yuksaltirishdir.

Jamiyat hayotida ilk davlatlar yuzaga kelishi bilan ularning chegaralarini, aholining tinchligini ta'minlash, tashqi hujumlaridan himoyalash maqsadida harbiy qo'shin tuzish, qurol-yaroqlarni takomillashtirish davlatning muhim funksiyasiga aylandi. Insoniyat tarixini urushlar tarixi desak bo'ladi. Olimlarning hisob-kitobi bo'yicha oxirgi 5000 yil ichida insoniyat tarixida taxinan 14 ming urush bo'lib o'tgan. Insoniyat tarixi turli urushlarga boy. XIX asrga qadar iqtisodiyot yaxshi rivojlanmaganligi uchun urushda faqat kam sonli professional armiya qatnashgan. XIX asrning oxirida va XX asr boshida urushda g'alaba qozonish uchun davlatlar butun o'z iqtisodiy imkoniyatlarini safarbar qilishga majbur bo'lishgan. Bu esa ko'p sonli, ommaviy armiyani tashkil etishni talab qilgan.

Urushga ko'p mamlakatlar jalb qilinib, jahon urushlar boshlangan. Faqat XX asrda ikkita jahon urushi bo'lib o'tdi. Natijada, birinchi jahon urushda (1914-1918y) 70 mln. kishi qatnashib, 10 mln. kishi halok bo'lgan bo'lsa, ikkinchi jahon urushida (1939-1945y.) esa -110 mln. kishi qatnashib, 50 mln. kishi halok bo'ldi.

Jamiyat rivojlanishi notekis bo'lgani kabi, urushlar ham bir-biridan farq qiladi, harbiy san'at ham notekis rivojlangan. Uning tarixida, ham rivojlanish davri, ham to'sqinlik davrlari bo'lgan.

Urushning asosiy maqsadi- qarama-qarshi tomonga nisbatan o'z irodasini o'tkazish. Urush ishtirokchilari o'z raqibiga o'z ta'sirini o'tkazib, uni o'ziga bo'ysundirib, raqibning hududlarini, milliy boyliklarini o'zlashtirishmoqchi bo'lishadi. Urushlarning kelib chiqishini olimlar turli sabablar bilan tushuntirishadi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, urush bu insonga xos narsa, urushmasdan inson yashay olmaydi. Sabab, inson o'z tabiatiga ko'ra bio-ijtimoiy mavjudot. O'z mavqeyini, o'z makonini himoya qilish uchun u doimiy kurash olib boradi. Ammo, boshqa olimlarning fikriga ko'ra, bu xulosa noto'g'ri. Inson o'z tabiatiga ko'ra, avvalom bor, ongli mavjudot bo'lib, urushlar jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bilan bog'liq. Nemis harbiy nazariyatchisi Karl fon Klyauzevis (1780-1831yy.) "Urush haqida"gi asarda yozadi: "Urush bu boshqa, zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirilgan siyosatdir", ya'ni urush bu siyosatning davomidir. Urush maqsadiga erishish uchun asosiy vosita bu qurolli kurash, ammo shu bilan birga urushda iqtisodiy, diplomatik, mafkuraviy, axborot kurashi ham qo'llaniladi. Bu ma'noda, urush bu- siyosiy maqsadga erishish uchun tashkil etilgan qurolli zo'ravonlik. Urush o'zi jamiyatning juda murakkab ijtimoiy-siyosiy voqea bo'lib, u xalqlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarining tub o'zgarish holatini izohlaydi. Urush orqali davlatlar qurolli zo'ravonlikni ishlatib, o'z iqtisodiy,

siyosiy, mafkuraviy maqsadlariga erishmoqchi bo'ladi. Urushning tabiati uni olib borgan davlatlar siyosati bilan belgilanadi. Shuning uchun siyosat va urush bir-biriga bog'liq. Siyosiy va harbiy boshqaruvning birdamligi o'z ifodasini shunda topadiki, urush paytida mamlakatning oliy rahbariyati qo'mondonlikni o'z qo'liga olib, urush strategiyasini ishlab chiqadi. Bu masalada xitoyliklar harbiy san'atni rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan. Ular ishlab chiqqan saboqlar hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan:

- Mashhur xitoy sarkardasi Sun-szi shunday degan: "Urush- davlat uchun buyuk ish, bu uning mavjud bo'lish va mag'lub bo'lish yo'li."<sup>2</sup>

Xitoyliklarning fikriga ko'ra- mojaroni hal etishda boshqa usullar o'zini oqlamagandan so'ng jangovar harakatlarni olib borish zarur edi. Kurashning noharbiy vositalarini xitoyliklar birinchi o'ringa qo'yishgan. Sun-szining fikriga ko'ra: "Eng yaxshi urush -bu dushmanning rejalarni barbod qilish, bu birinchidan, ikkinchidan - uning ittifoqlarini buzib tashlash va uchinchidan, uning qo'shinlarni tor-mor etish". Urushga kirishmasdan turib, dushmanni o'ziga bo'ysundirish - bu g'alabaning eng yaxshi turi. Buning uchun avvalom bor, diplomatik usullardan foydalanish kerak.

- Muvaffaqiyatli urushning keyingi omili - yashin tezligida urushni olib borish. "Urush g'alabani yaxshi ko'radi, ammo uning cho'zilishini emas"(Sun Szi). Cho'zilib ketgan urush ikki tomonni ham har tomonlama zaiflashishiga olib kelib, jangovar ruhni susaytiradi.

- Harbiy siyosatda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik kerak. Vaziyatni tahlil etib, armiyani, iqtisodiyotni safarbar etib, jangovar ruhni ko'tarib, urushga kirishish kerak.

- Jangovar harakatlarni olib borganda, mumkin qadar dushmanning aholini azoblanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Faqat

<sup>2</sup> Konrad N.I. Sun-szi. Traktat o voennom iskusstve. M.1950. 317b

shu yo'l bilan uning qarshiligini yo'qotish mumkin.

- Urushni boshlash uchun uni ham siyosiy, ham harbiy jihatdan tayyorlash lozim. Siyosiy jihatdan urushni tayyorlaganda hokimiyat va xalq o'rtasidagi birdamlikka erishish kerak. Xalq shubhalamasdan hokimiyatga ishonish kerak. Shuning uchun armiya harbiy jihatdan ham moddiy jihatdan ham ta'minlangan bo'lish kerak. -Mudofaani kuchaytirish umummilliy vazifaga aylanish lozim. Bunga erishish uchun davlat xalqfaravonligini, uning ma'naviyatini oshirish zarur edi, ya'ni hokimiyat xalqni o'yilagan holda, xalq hokimiyatni, davlatni qo'llab-qo'llashga tayyor bo'ladi.

Xitoyliklar ofitserlarni tarbiyalashga katta e'tibor qaratishgan edi. Ularga alohida talab qo'yishgan. Ofitser aqlli, irodali, insonparvarli, mardli, haqiqatgo'y bo'lish lozim edi. Shu bilan birga, ofitser 5 ta xatodan o'zini saqlash kerak edi:

- O'zini xafv ostiga qo'yish. Ofitser bevosita jangda qatnashmasdan, balki uni boshqarishi zarur.

- O'z xafvsizligini birinchi o'ringa qo'yish.- Jaxldor bo'lish. "Jaxl chiqqanda - aql ketadi"

- Intizomga e'tiborsiz bo'lish- Irodasizlik.<sup>3</sup>

Urushlar dastlab qo'shni yerlarni talab olish hamda aholini asr olish maqsadida olib borilgan M.Assiriya. Biroq davlatlarning kuchayishi, qo'shin miqdorining o'sishi, tajribaning oshib borishi bilan, qo'shni mamlakat va xalqlarni bosib olishga o'tilishi natijasida oddiy urush san'atga aylana boshlagan. Urushlarning asosiy sabablaridan biri - siyosatchilar mavjud bo'lgan nizolarni va mojarolarni tinch, diplomatik, siyosiy yo'l bilan hal qilishni yo xohlashmaydi, yo bilishmaydi. Shuning uchun davlatlararo mojarolarni yechish masalasida qurol, zo'rvonlik asosiy omilga aylanadi. Urushlar turli usullarda olib boriladi. Arab olimi tarixchi Ibn Xaldunning yozishicha: "Insoniyat vujudga kelgandan beri yer yuzida urushlar 2 yo'l

<sup>3</sup> Konrad N.I. Sun-szi. Traktat o voennom iskusstve. M.1950. 207b

bilan olib borilgan; birinchisi- saf tortib hujum qilish, ikkinchisi - hujum va chekinish usuli, ya'ni shiddatli hujum qilish va raqibini tuzoqqa tushirish maqsadida yolg'ondakam chekinish taktikasi. Bu usullarning birinchisiga "sosoniylar usuli", ikkinchisiga "turkiylar usuli" deb nom berilgan. Urushlarning turlari xilma-xil. O'z mashtabiga ko'ra urushlar turli xarakterga ega bo'ladi: jahon, mintaqaviy, lokal, fuqarolar urushlar. O'z maqsadiga qarab urushlar adolatli, adolatsiz, mudofaa, tajovuzkor bo'ladi. Shu bilan birga, dengiz urushi, havo urushi, mustamlaka urushi, axborot urushi, sovuq urushi bo'lishi mumkin. Urushning sabablari masalasida turli nazariyalar mavjud. Masalan, demografik nazariya. Uni ikki turga bo'lish mumkin: maltus nazariyasi va yoshlarning ustunlik nazariyasi.

1. Tomas Maltus (1766-1834y.) nazariyasiga ko'ra, yer yuzidagi aholi arifmetik progressiyada o'sib borsa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishi geometriya progressiyada. Shuning uchun aholining turmush darajasi pasayib, ijtimoiy mojarolar kuchayishi natijasida urushlar kelib chiqadi. Urushlar, epidemiyalar, ocharchilik natijasida aholi soni kamayib, urushlar ham kamayadi. Hozirga zamonda urushlar, nisbatan, kamaydi, chunki iqtisodiyotda yangi texnologiyalar, unumli yangi navlar, yangi texnika yaratilib, turmush darajasi yuksaldi. Yoshlar ustunlik nazariyasi.

2. Aholining o'rta yoshi. Yoshlar ustunlik nazariyaga ko'ra jamiyatda yosh bo'lgan aholining ko'payishi va yashash sharoitlarining yetmasligi, kambag'allarning ko'payishi urush xavfini kuchaytiradi. 3. Iqtisodiy-ijtimoiy yoki geopolitik nazariyasi. Unga ko'ra davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishi, tabiiy boyliklarni katta miqdorda sarf qilinishi, tabiiy resurslar taqchilligining kuchayishi, ular o'rtasida iqtisodiy raqobat kuchayishi bilan yangi xom-ashyo manbaalarini, bozorlarni egallash maqsadida ushbu davlatlarni qurolli kuchdan foydalanishga majbur qiladi.

4. Siyosatshunoslikda realizm nazariyasi mavjud. Unga ko'ra, urushning asosiy sababi bu o'z xavfsizligini saqlab qolishga intilish yoki yer yuzida hukmronlik qilgan davlat o'z mavqeini kuchaytirishga qaratilgan harakati.

Harbiy tarix harbiy san'at tarixiga ham katta e'tibor qaratadi. Harbiy san'at tushunchani ikkita ma'noda ishlatish mumkin: tor ma'noda "harbiy san'at" deb sarkardalarning, bosh qo'mondonning g'alaba qozonish ustaligini, kam kuchlar va kam talofat bilan dushman ustidan g'olib bo'lib, chiqish mahoratni tushunamiz. Keng ma'noda "harbiy san'at" deganda biz quruqliklarda, havoda va dengizda jangovar harakatlar olib borishga tayyorgarlik ko'rish va uni olib borish nazariyasi va amaliyotini tushunamiz. Harbiy san'at o'zaro bog'liq bo'lgan harbiy strategiya, taktika va operativ san'atidan iborat. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar urushning xarakteriga, olib borish usullariga, mashtablarga, harbiy qurollarning va harbiy texnikaning o'zgarishiga ta'sir qiladi. Bu esa yangi strategiya va taktikani talab qiladi. Strategiya (yunon so'zi "stratos" – qo'shin va "ago" - boshqarish) - harbiy san'atning tarkibiy qism bo'lib, mamlakat va uning qurolli kuchlar urushga bo'lgan tayyorgarlikning, katta harbiy operatsiyalarni va butun urushni rejalashtirish va amalga oshirish nazariya va amaliyotni o'z ichiga oladi. Strategiya- urushni olib borish usuli va shakllari, uni boshqarishni, jangovar harakatlarni moddiy jihatdan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanadi. Strategiya qurolli kuchlar uchun yagona hisoblanib, tavsiyalarni bajarish uchun uning barcha turlari uchun majburiydir. Strategiya orqali qurolli kuchlarning barcha turlari va qismlari muvofiqlashgan holda jang olib borishadi. Ularning birdamligi mamlakatni g'alabaga olib keladi. Ammo shu bilan birga, qurolli kuchlarning har bir turi o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Strategiya davlat olib borgan siyosati bilan belgilanadi. Aynan shu siyosat urushning maqsadini, uning xarakterini, strategiyani belgilaydi, kerak bo'lgan moddiy

vositalar bilan ta'minlaydi, urushni boshqaradi. O'z navbatda, strategiya siyosatga o'z ta'sirini o'tkazadi, siyosatning xalqaro maydondagi imkoniyatlarini yo oshiradi, yo kamaytiradi. Urushdagi g'alaba siyosat va strategiyaning o'zaro bog'langanligi bilan ta'minlanadi. Strategiya, urush olib borish san'at sifatida, asosan, Sharqda vujudga kelgan. Qadimgi Sharq qo'shinlarning urush olib borish san'ati, asosan, son jihatdan ortiq qo'shin bilan dushmanni tor-mor etishga qaratilgan. Strategik mudofaa (chekinish) va strategik hujum (qarshi hujumga o'tish) Sharq xalqlarda keng qo'llanilgan. Strategiya turlari:

1. Tor-mor strategiyasi. Uning maqsadi raqibni, uning qurolli kuchlarni, harbiy-iqtisodiy ba'zani yakson qilib, g'alaba qozonish.

2. Zaiflashtirish strategiyasi, ya'ni, muntazam ravishda dushmanni zaiflashtirib, uning qurolli kuchlarini kuchsizlantirish (kommunikasiyalarni buzish, qurolli kuchlar ta'minlashini susaytirish, aholi va qurolli kuchlar shaxsiy tarkibiga mafkuraviy salbiy ta'sir o'tkazish).

3. Qo'rqitish strategiyasi, ya'ni, o'z harbiy qudratini namoyon qilish orqali o'z raqibini jangovar harakatlarni to'xtatishga, o'z talablarini qabul qilish yoki taslim bo'lishga majbur qilish.

4. Bloklar strategiyasi. Maqsadlar va vazifalar yakun bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan harbiy-siyosiy ittifoqlar(bloklar) tashkil etib, o'z harbiy, iqtisodiy ustunligini ta'minlab, dushmanni tor-mor etib, g'alaba qozonish. Harbiy san'atning yana bir tarkibiy qismi- operativ san'at. Operativ san'atning asosiy maqsadi- urushda strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun harbiy operatsiyalarni tayyorlash va amalga oshirishning kerakli usullarni belgilab berish. O.S.ning asosiy vazifalar- harbiy operatsiyaning maqsadini belgilash, yetarli harbiy kuchlar va vositalarni ishlatishni rejalashtirish, turli qo'shinlar birlashmalar tomondan jangovar harakatlarni olib

borishni tashkillashtirish. Operativ san'ati katta harbiy birlashmalari (armiyalar, frontlar) tomondan mustaqil va qo'shma harbiy operatsiyalarini tayyorlash, va amalga oshirish usullarini o'rganadi. Urush paytida taktikaning ahamiyati ham katta. Taktika ham(yunon so'zi "taktika"- qo'shinni tartibga keltirish san'ati) - harbiy san'atining tarkibiy qismi bo'lib, bevosita jangni tashkil etish va harbiy qismlarni jang paytida boshqarish nazariya va amaliyotni bildiradi. Taktikani o'zgarishiga yangi qurollar, harbiy texnikani paydo bo'lishi ta'sir qiladi. Taktika nazariyasi jangni olib borish qonuniyatlarini, uning xarakter va mazmunini, jangni tashkil etish va amalga oshirishni o'rganadi va o'rgatadi. Armiya- urushni olib borishning asosiy omili, u davlatning milliy xafvsizligini, uning suverenitetini, xalqning ozodligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Shuning uchun qurolli kuchlarning shaxsiy tarkibi taktikani, ya'ni jangni olib borish san'atini yaxshi bilish kerak. Aks holda, bu armiya mag'lubiyatga uchrab, o'z vazifalarni bajara olmaydi. Taktika quyidagi turlariga bo'linadi: umumiy taktika, harbiy kuchlar turlarining taktikasi, maxsus qo'shinlar taktikasi. Urushlar tarixini o'rganishda biz umumiy ilmiy-uslubiy qoidalariga (tamoyillariga) tayanamiz: tarixiylik, xolislik, ilmiylik, dialektika. Faqat shu tamoyillariga amal qilib tarixni to'g'ri o'rganish va tushunish mumkin. Bu esa xolisona saboq olishga asos bo'lib, ulardan samarali foydalanishga imkon beradi. Harbiy tarixni o'rganishda biz umumtarixiy davrlash usuldan foydalanamiz: qadimgi davrlar urushlari, o'rta asrlar urushlari, yangi tarix urushlari, eng yangi tarix urushlari.

Savollar va vazifalar.

1. "Urushlar tarixi"fanining maqsadi va vazifalari?
2. "Urush" tushunchasi, uning sabablari?
3. Harbiy san'at tushunchasi?
4. Strategiya va taktika tushunchasi?

## 2 MAVZU: Qadimgi Dunyo xalqlarning urushlar va harbiy san'at tarixi.

Reja:

1. Qadimgi Sharq davlatlarning harbiy san'ati.
2. Qadimgi Yunoniston urushlar va harbiy san'at tarixi. Aleksandr Makedonskiy yurishlari.
3. Qadimgi Rim harbiy san'ati. Rim urushlari.

Albatta, insonlar vujudga kelishi bilan ular o'rtasida turli nizolar, mojarolar, to'qnashuvlar paydo bo'ldi, ammo urushlar, ijtimoiy-siyosiy voqea sifatida, faqat davlatlar paydo bo'lgan davridan mavjud. Dastlabki davlatlar esa qadimgi Sharqda, Xitoy, Hindistonda tashkil topgan.

Davlatning asosiy belgilaridan biri -o'z qo'shiniga ega bo'lish. O'z mustaqilligini, hududini va aholini himoya qilish uchun davlat hukmdorlari qurolli kuchlarga katta e'tibor bilan qarashar edi. Harbiy xizmat o'tash uchun maxsus tabaqa tashkil topgan. Shu tabaqaga mansub bo'lgan shaxslar umrbod harbiy xizmatda edi. Ularning xizmati uchun davlat harbiylarni yer, qullar bilan ta'minlab turar edi. Qadimgi dunyo armiyalarda askarlar asosan sovuq qurol bilan qurollangandi; og'ir nayza, shamshir, jangovar bolta, o'q-yoy, xanjar bilan. Shu bilan birga, o'z tanasini himoya qilish uchun ularda himoya qilish vositalari ham bor edi. Yog'ochdan yoki mol terisidan qilingan turli shakldagi qalqonlar, sovutlar. Shaharlarni qamal qilganda toshotar mexanizmlar, devorni buzadigan uskunalardan foydalanishgan. Ishlab chiqarishni takomillashish natijasida qurollarni ishlab chiqarilishi ham yuksalib borgan. Qadimgi zamondan boshlab armiyaning tashkiliy strukturasi tashkil topdi. Shu zamonda piyodalar, kavaleriya, texnika qo'shinlari, harbiy dengiz floti paydo bo'ldi. Ot qo'shilgan jangovar aravalar ham kashf qilingan edi. Qadimgi Hindistonda

urushlarda maxsus o'rgatilgan fillardan foydalanishgan. Qadimgi armiya nayzachilar, kamonchilar, maxsus qo'shinlardan iborat edi. Tashkiliy jihatdan armiya 10, 50, 100, 500, 1000 jangchilardan tashkil topgan harbiy qismlardan iborat edi. Harbiy tayyorgalikka katta e'tibor qaratilgan edi. Tinchlik paytida askarlar maxsus lagerlarda turli mashqlar bilan shug'ullanishgan edi. M.a qadimgi Misrda qurolli kuchlar ikki qismdan iborat edi – muntazam armiya va yordam beruvchi armiya. Muntazam armiya tajribali, janglarda qatnashgan askarlardan iborat bo'lsa, yordam beruvchi armiya tajribasiz, qaram bo'lgan xalq vakillaridan iborat edi.

Urushlar harbiy san'atni shakllanishiga va rivojlanishiga olib keldi. Turli jangovar tartiblar ishlab chiqildi. Yurish paytida harbiy qismlar kolonnalarga bo'linishgan. Jang paytida esa jangovar tartib bir nechta safdan iborat edi. Qadimgi Misrda birinchi va uchinchi saf jangovar aravalardan, ikkinchi saf piyodalardan iborat edi. M.a IX a. Assiriyada jangovar aravalar o'z ahamiyatini asta-sekin yo'qotib, uning o'rnini kavaleriya egalladi. Axamoniylar davridan boshlab (m.a.550-329y.) jangda asosiy rolni kavaleriya o'ynagan edi. Qadimgi davlatlarda harbiy infrastrukturaga ham katta e'tibor qaratishgan. Masalan, Assiriyada harbiy maqsadida yo'llar qurilishiga katta e'tibor qaratishgan. Axamoniylar davrida esa O'rta Yer dengizidan O'rta Osiyogacha cho'zilgan mashhur "shoh yo'li" qurildi. Bu yo'lda har 20 km. keyin maxsus qal'alar turgan edi, har 5 km. esa chavandozlardan iborat postlar tashkil etildi. Shu yo'llarning tizimi qo'shinlarga kerakli joyga yetib borishga imkoniyat bergan.

O'sha davrdagi jang bir xil tartibda o'tar edi. Jangni kamonchilar va jangovar aravalar boshlar edi, asosiy kuchlar, qilich va nayzalar bilan qurollangan piyodachilar esa uni yakunlar edi. Jang paytida qo'shinlar turli signallar bilan boshqarilgan. Tuzilish jihatdan armiya - avangard (ilg'or qismi), ar'ergard (orqa qismi), razvedka va qo'riqchi qismlarga bo'linar edi. Jangovar

tartib jang maydonida turli qo'shinlarni muayyan tartibda joylashishdan iborat edi: piyodalar, kavaleriya, jangovar aravalar. Jang asosan frontal to'qnashuv, ya'ni yuzma-yuz, shaklda bo'lib o'tar edi. Mudofaani kuchaytirish uchun turli inshootlarni qurishar edi, masalan, qal'alar devorlar bilan o'ralgan edi. Ular atrofida esa zovurlar qazilgan. Eng katta mudofaa inshooti Buyuk Xitoy devor hisoblanadi. Ko'chmanchi xunn qabilalardan o'zini himoyalash uchun Xitoyliklar shu devorini barpo qilishdi. Uning qurilishi m.a. 214 y boshlanib, m.XVa.cha davom etdi. Uning uzunligi 2500 km, devorlarning balandligi 16m, qalinligi, pastda-8m., tepada 5m. tashkil etgan. Ostida beshta otliq yonma-yon yura oladi. Qadimgi zamondan boshlab xalqlar o'zaro aloqalarni o'rnatishga harakat qilishgan. Ular orqali xalqlar o'z bilimlari, tajribasi, madaniyat bilan almashishgan. Qadimgi Sharq xalqlarining harbiy san'ati qadimgi g'arb xalqlarga, masalan yunonlarga, rimliklarga, ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Antik mamlakatlarda (Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim) dastlabki davrda qurolli kuchlar milisiya tizim asosida tashkil topgan. Bu degani, har bir erkak harbiy ishni bilib, armiyada xizmat qilish lozim edi. Tinchlik davrida yoshlar dastlabki harbiy tayyorgalikni o'tishar edi, urush paytida esa ularni armiyaga safarbar qilishgan. Ammo jamiyatdagi sinfiy tabaqalanish erkin aholini kamayishiga olib kelgan. Sabab shundaki, xonavayron bo'lgan dehqon qulga aylananar edi. Shuning uchun ozod bo'lgan odam kamayib, yollangan armiyani tashkil qilishga majbur bo'lishgan. Qadimgi Yunonistonda armiya asosini piyodalar tashkil etgan. Ular ikki turga bo'lingan – og'ir qurollangan va yengil piyodalar. Og'ir qurollangan piyodalar (goplitlar) nayza, kalta shamshir, qalqon, ko'krakdagi himoya qiluvchi bronza sovut bilan qurollangan edi. Yengil piyodalar esa yengil nayza yoki o'q-yoy bilan qurollangan. Qo'shinning asosini falanga tashkil etgan, ya'ni bir necha safdan va qatordan iborat bo'lgan harbiy qism. U 8 qator

saf tortgan 8000 jangchilardan iborat edi. Falanga front bo'yicha 1 km.ga cho'zilgan edi. Jang paytida markazda og'ir qurollangan piyodalar (goplitlar) falangani tashkil etib saf tortishgan, Qanotlarda otliqlar, oldingi qatorda esa yoyma saf tortgan yengil piyodalar joylashgan edi. Falanga bir qancha afzalliklarga ega bo'lgan. Uning kuchi- safning jipsligida edi. Qarshi tomondan unga shikast yetkazishning imkoni bo'lmagan. Uning kuchli tomoni - uning zarbasi edi. Ammo uning salbiy tomoni ham bor edi, ya'ni u katta masofaga hujum qilolmas edi. Uning qanotlari (falangalari) ochiq edi, u faqat tekis joyda jang qilib, o'rmonda, tog'larda jang qilolmasdi, chekinayotgan dushmani ta'qib etishga mutlaqo yaroqsiz edi, zarba kuchini oshirish uchun qo'shimcha kuchi, zaxira, yo'q edi.

Yunonlarda harbiy san'ati, avvalom bor, Axamoniylar bilan urush davrida rivoj topgan. M.a. 550 y. tashkil topgan Axamoniylar davlati qisqa vaqt ichida butun old Osiyoni bosib oldi va buyuk saltanatiga aylandi. M.a. 490y. forslarning podshosi Doro I Yunonistonga hujum uyushtirdi. M.a. 490 y. 13 sentabr kuni Marafon tekisligida forslar bilan yunonlar o'rtasida katta jang bo'lib o'tdi. Forslarda 20 ming jangchi, shu jumladan 10 ming otliqlar bo'lgan bo'lsa, yunonlar qo'shini Afinadan yetib kelgan 10000 goplitlardan iborat edi. Afina qo'shinlarining qo'mondoni Miltiad falanga qatorlarni qisqartirish hisobidan o'z flanglarni kuchaytirdi. Forslarning saralangan qo'shinlari yunonliklarning kuchsiz o'rta qismini yorib o'tib, g'alaba qozona boshlagan paytda yunonlar ikki flang tomondan hujumga o'tib, forslarni tor-mor qilishdi. Yunonlar 1920 kishini yo'qotishgan bo'lsa, forslar 6400 kishini yo'qotishdi. Forslar yunonlar hujumiga bardosh bera olmay, o'z kemalar tomon qochib, dengizda suzib ketishdi. M.a. 480-479yy. yunonlar bilan forslar o'rtasida urush davom etdi. Tarixda qolgan ikkita jangni eslash joiz: Fermopil yonidagi va Salamin jangi. M.a. 480y. Doro I ning o'g'li Kayxisrav boshchiligida forslar yangi hujumni boshlashdi.



Yunon shaharlari dushman bosqiniga zarba berish uchun birlashdilar. Sparta podshosi Leonid qo'mondonligidagi yunonlar Fermopil yo'lini ishg'ol etib, forslarning O'rta Yunonistonga o'tadigan yo'lni to'sib qo'ydi. Forslar bir necha kun davomida yunonlarga qarshi hujum qilishgan. Yunonlar hamma hujumlarni qaytarishdi. Lekin bir xoin forslarni so'qmoq yo'l bilan tog'lar orasidan Fermopil yo'lining orqasiga olib o'tdi. Leonid boshchiligidagi 300 spartaliklar g'olib, jang qilishdi. Teng bo'lmagan jangda yunonlar halok bo'lsalar-da, lekin forslarni to'xtatib turdilar va qolgan yunonlarni chekinishiga imkon berdilar. Forslar O'rta Yunonistonni ishg'ol qilishdi. Jang qilishga qodir bo'lgan barcha erkaklar qo'shinga va harbiy kemalarga borib kirdilar. Ayollar, bolalar va qariyalar esa Peloponesga va Salamin oroliga flot himoyasiga o'tkazildi.

Navbatdagi jang m.a.480 y. 28 sentabrda Attika bilan Salamin oroli o'rtasidagi bo'g'ozda bo'lib o'tdi. Bu jangda yunonlarning 370 va forslarning 700 kema uchrashishdi. Forslar bo'g'ozga kirishi bilan yunonlar hujumga o'tishdi. Forslarning ochiq dengizda suzishga moslashgan og'ir kemalari tor bo'g'ozida sayoz joylarda turib qoldi, yunonlarning esa o'z yengil kemalarda hujumga o'tib, forslar kemalarini yondirishdi. Shikastlangan forslar kemalari jangdan chiqishga majbur bo'ldi. Yunonlar g'alaba qozonishdi. Yunonlarning birlashgan qo'shinlari quruqlikda qolgan fors qo'shinlari bilan jang qilib, ularni ham tor-mor qilishdi.

M.a. 479-yilda navbatdagi jang Plateya shahri yaqinida bo'ldi. Bu jangda yunonlarning falangasi yana bir bor o'z ustunligini namoyon qilib, dushmanni tor-mor qildi. Urush yana 30 yil davom etdi. U asosan dengizda olib borildi. G'alaba qozonish uchun yunon shahar-davlatlari Afina boshchiligida birlashib, Afina dengiz ittifoqini tashkil etishdi. Urush natijasida forslar taslim bo'lib, sulh tuzishga majbur bo'lishdi. Unga ko'ra Egey dengizdagi va Kichik Osiyodagi yunon shaharlari mustaqil

bo'lishdi, Eroning harbiy-dengiz flotiga Egey dengizida suzish taqiqlandi. Yunon-forslar urushi yunonlarning strategik boshqaruv ustunligini namoyon etdi.

Yunonlarning harbiy san'ati Pelopones urushlar davrida o'z rivojini topdi. Pelopones urushlari ( m.a.431-404yy.) yunonlar shahar-davlatlari o'rtasidagi urush bo'lib, uning asosiy ishtirokchilari Afina va Sparta edi. Urush jarayonida qo'shinlarni tashkil etish tizimi o'zgardi. Militsion tizimi susayib, o'rniga yollangan armiya vujudga keldi. Asosiy sabablar: qullarning olib borgan qarshilik harakati, o'z mustamlakalarni himoya qilish zarurati, erkin dehqonlarning qashshoqlashib, qullarga aylanishi.

Armiya tarkibida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Og'ir qurollangan va yengil piyodalar bilan birga o'rta piyodalar - peltastlar ("pelte" - qalqon) paydo bo'ldi. Ular turli vazifalarni bajarish mumkin edi. Jangni ham tekislikda, ham tog'larda olib borishga qodir edi. Ammo jangovar tartibda asosiy rolni baribir falanga o'ynagan. Shaharlarni qamal qilishda yangi vositalar-toshotar (katapulta, ballista) mashinalar (palaxmonlar), taran (devorlarni buzib yorish uskunalar)lar paydo bo'ldi. Urush paytida taktika ham rivoj topdi, masalan, Fiva shahrining strategi ( qo'mondoni) Epaminond tomonidan yangi jang olib borish usuli yaratildi- front bo'yi qo'shinlarni notekis joylashtirib, hujumning asosiy yo'nalishda kuchlarning ustunligiga erishish. Pelopones urushida Levktra shahri yonidagi jangda Epaminond 7.5 ming qo'shin bilan Spartaning 11mingli qo'shinini yengib oldi. Epaminond yaratgan taktika usuli hozigi davrgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Pelopones urushda Afina yengib, Sparta g'alaba qozondi.

Epaminond g'oyasi Aleksandr Makedonskiy tomonidan qo'llanilib, katta g'alabalarga sabab bo'ldi. A. Makedonskiy(m.a.356-323yy) Makedoniya podshosi bo'lib, tarixda mashxur davlat arbobi, buyuk sarkarda sifatida chuqur iz

qoldirdi. M.a IVa. kelib Makedoniyada doimiy muntazam armiya tashkil etildi. U piyoda va kavaleriya qo'shinlaridan iborat edi. Kavaleriya qo'shinlarining mustaqil turi sifatida aynan Makedoniyada tashkil topdi. Jang paytida u asosiy zarba berib, g'alabaning asosiy omiliga aylandi. Makedoniyaning armiyasi quyidagi strukturaga ega edi: piyodalar (og'ir, o'rta va yengil), kavaleriya (og'ir qurollangan- katafraktariya, yengil), nayzachilar. Jangovar tartibning asosi og'ir qurollangan piyodachilar edi. Askarlar 2-6m. nayza (sarissa), qilich va katta to'rt burchak qalqon bilan qurollangan edi. Yengil piyoda askarlari esa o'q-yoy, tosh otadigan asbob (prasha) va kalta nayza qurollangan edi. Katafraktariya(og'ir kavaleriya) sarissa va qilichlar bilan, yengil kavaleriya - o'q-yoy, kalta nayza va qilichlar bilan qurollangan edi. Ammo armiyaning asosi makedon falangasi tashkil etgan. U 16 384 kishidan iborat edi, 16 saf va 16 kolonnaga bo'lingan edi, har bir safda 1024 kishi edi, uning fronti 1 km. teng edi. Falanga juda katta zarba kuchiga ega edi, ammo unda hech qanaqa zaxira va madad yo'q edi. Falanga o'ng qanotda asosiy kuchni yig'ib hujum qilgan. Asosiy zarbani og'ir kavaleriya va piyodalar ko'rsatib, dushmanning jangovar tartibini yorib o'tgandan so'ng, o'rta piyodachilar hujumga o'tar edi. Chekinib, qochayotgan dushmanni yengil kavaleriya quvib borar edi. Shundan ma'lumki, jang paytida qurolli kuchlarning har bir turi o'z vazifasini bajargan. A. Makedonskiy Axamoniylar bilan urushda o'z sarkarda iste'dodini namoyon qildi. M.a. 334-329yy. A.Makedonskiy forslarga qarshi urushni boshlab, ularni mag'lubiyatga uchratib, ular podsholigini o'ziga bo'sundirdi. Bu urushda bir necha katta jang bo'lib, ularda A.Makedonskiyning harbiy mahorati va iste'dodi namoyon bo'ldi: Granik daryo yonidagi jangda ( m.a.334y), Issa yonidagi jangda( m.a.333y.), Gavgamel yonidagi jangda (m.a. 331y.). Bu janglarning xususiyati shuki, forslar son jihatdan ustun turib, mag'lubiyatga uchrashdi. Masalan, m.a. 331y Gavgamela yonidagi jangda

A.Makedonskiy 47 ming askar, forslar esa-92 ming , 100 jang aravalar va 15 jangovar filga ega edi. Jang otliq qo'shinlar to'qnashuvi bilan boshlandi. Forslarning jang aravalarini shiddatli hujumga o'tishdi. Makedoniya kamonchilari jang aravalaridagi askarlarning ko'p qismini kamonda otib o'ldirishdi. Makedoniya jangchilari ikki tomonga surilib, otlarni o'z saflari orasidan o'tkazib yubordilar. Aleksandr otliq askarlar bilan forslar qo'shinining o'rtasiga yorib kirdi, bu yerda shoh Doroning o'zi turgan edi. Ayni vaqtda falanga hujumga o'tdi. Vahimaga tushgan Doro III qochdi, ammo oradan ko'p vaqt o'tmay o'z mulozimlari tomonidan o'ldirildi. A. Makedonskiy olib borgan yurishlarda yunonlarning harbiy san'ati rivoj topdi: Armiyaning markazida u falangani qo'yib, muayyan qanotda (flang) ustun kuchlarni yig'ar ed (u asosan kavaleriya va o'rta piyodadan iborat edi). Frontdan hujum boshlab, u dushmanni bog'lab, asosiy zarbani flangdan berar edi va dushman qo'shinlarning orqasiga yorib o'tib, uni chekinishga majbur qilar edi. Chekinib qochgan dushmanni quvib yakson qilar edi.

Antik davrda harbiy san'atning rivojlanishini biz qadimgi Rimda kuzatishimiz mumkin. M.a. 753y.da tashkil topgan Rim m.a.IVa. kelib katta va buyuk davlatga aylandi. Rim jamiyati tabaqalanish natijasida 5 toifaga bo'lingan edi. Eng boy fuqarolar armiyaga otliqlarni va og'ir qurollangan piyodalarni(legioner) ta'minlab berishsa, kambag'allar esa yengil piyodalarni tashkil qilar edi. Barcha fuqarolar 17 yoshdan 45 yoshgacha armiyada xizmat qilish shart edi. M.a.VIa. Rim respublikaga aylandi. Davlatni xalq tomonidan bir yilga saylangan ikkita konsul boshqarishgan. Rim armiyasi 4 legiondan iborat bo'lib, ikkita konsul armiyani tashkil etgan. Legion 4500 jangchidan iborat edi, shulardan 4200 piyodalar va 300 suvoriylar. Eng yosh va kambag'al askarlar yengil piyoda (velitlar) qismlarni tashkil etgan. Ular 1200 kishidan iborat edi, kalta qilich, kalta nayzalar, o'q-yoy va prasha (tosh otadigan qurol) bilan qurollangandi.

Keyingi qismlar 1200 o'rta yosh va o'rta hol askarlardan iborat edi - Gastatlar(nayzachilar). Ular kalta shamshir, og'ir va yengil nayzalar (pilum) va tanani himoya qilish vositalarga ega edi.

Uchinchi qism-prisiplar, 1200 kishidan iborat bo'lib gastatlarga o'xshab qurollangandi. To'rtinchi qism eng tajribali va yoshi katta askarlaridan iborat edi - triariyalar.

Ular 600 kishidan iborat edi. Tashkil etish jihatdan Rim armiyasi militsiya edi. Urush vaqtida yig'ilib, u tugashi bilan tarqalardi. Legion senturiyalarga bo'lingan. Har bir senturiya 60 kishidan iborat bo'lgan. M.a. IVa kelib Rim katta davlatga aylandi, u butun Appenin yarim orolini qamrab oldi. Bu davrda armiyada harbiy islohat o'tkazildi. Falangadan voz kechib, rimlyaniklar legionlarni manipulga ("manus" - odamning qo'li shakldagi boshliqning belgi) bo'lishgan. Manipula 120 kishidan iborat edi. Ular uchta saf tortishgan, birinchi saf- gastatlar, ikkinchi saf- prisiplar, uchinchi saf - triariyalar. Manipul tizimiga o'tishi armiya harakatini yaxshiladi, uni boshqarish ham yengillashdi. Endi legionning jangovar tartibi uchta chiziqdan iborat edi. Har bir chiziq 10 manipuldan iborat edi. Birinchi chiziqdagi manipular dushmanning safini buzishga harakat qilgan, ikkinchi chiziqdagi manipula birinchiga yordam ko'rsatardi. Uchinchi chiziqdagi manipula zaxira rolini bajarib, dushmanni tor-mor qilish vazifasini bajarar edi. O'z qudratini oshirmoqchi bo'lgan Rim Shimoliy Afrikada joylashgan Karfagen davlati tomonidan qarshilikka uchraydi. Karfagen boy davlat bo'lib, shu tufayli harbiy flot va yollanma askarlardan tuzilgan kuchli armiyasiga ega edi. Rim ham, Karfagen ham O'rta yer dengizda o'z hukmronligini o'rnatmoqchi edi. Rimliklar karfagenliklarni punlar deb atashgan. Shuning uchun ular o'rtasidagi urush Pun urushi deb nom olgan. Birinchi Puni urushi m.a. 265-242yy. bo'lib o'tdi va rimliklarning g'alabasi bilan tugadi. Ular Sisiliya, Korsikani egallashgan bo'lsa, Karfagen Ispaniyani bosib oldi. Biroq Karfagenning kuchlari yana ko'p edi. M.a. 218-201yy.

ikkinchi Pun urushi bo'lib o'tdi. Bu urushda Karfagen qo'shinlarni mashhur sarkarda Gannibal boshqardi. Rimliklar kutilmagan bir paytda Gannibal o'z qo'shinini Ispaniyadan, Alp tog'laridan oshib, Italiyaga kirib bordi.

Karfagenliklar bir qancha jonli janglarda Rim legionlarni tor-mor qilishdi. Gannibalning sarkarda qobiliyati va misli ko'rilmagan mardligiga hatto uning dushmanlari ham tan olishdi. Bunga ,ayniqsa, Kanna qishlog'i yonidagi jang (m.a. 216y) yaqqol misol bo'ladi. Rimliklarda 16 legion bo'lgan, ya'ni 63 ming piyoda askar va 6 ming suvoriylar. Gannibalda esa-40 ming piyoda va 10 ming suvoriylar. Rim armiyani boshqargan konsullar dushmanni o'zlarining ko'p sonli piyoda askarlarining hujumi bilan tor-mor qilishmoqchi bo'ldilar. Ular legionlarni katta to'rtburchak shaklida falangaga o'xshatib saf tortishdi. Otliq askarlar qanotlarni himoya qilib turdi. Gannibal rimliklarning niyatini tushundi va ularni o'rab olishdan iborat rejani qabul qildi. U o'z qo'shinining dushman hujumiga bardosh bera olmasligini yaxshi bilgan. Gannibal piyoda askarlarni botiq tomoni dushmanga qaragan yarim oy shaklida safga tizdi. Qanotlarga esa saralangan piyoda askarlar va suvoriylarni qo'ydi. Rimliklar hujumga o'tib karfagenliklarning markazini yorib o'tishdi. Ammo shu bilan ular o'z qanotlarni ochib qo'yishdi. Gannibalning qo'shinlari darhol ularga hujum qilib, dushmanning orqa tomonga chiqib, rimliklarni qurshovga olishdi. Jang 12 soat davom etib rimliklarning mag'lubiyati bilan tugaydi. Ular 48 ming kishini yo'qotishdi, 10 ming kishi asrga tushdi. Gannibal esa 6 ming kishini yo'qotdi. Ammo Rimning iqtisodiy va harbiy qudrati singmagandi. Butun kuchlarni safarbar etib rimliklar yangi qo'shinni to'plashdi. Ssipion qo'mondonligida rim qo'shinlari Afrikaga tushirildi. Gannibal o'z Vatanini himoyalash uchun Italiyadan ketishga majbur bo'ldi. M.a. 202 y. Zama shahri yonida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Rimliklar ustun turib Gannibal qo'shinlarini tor-mor etishdi. M.a. 201 y. urush tugadi, Karfagen

Rimga ko'p miqdorda pul to'lashga va qo'l ostidagi yerlarning deyarli hammasidan voz kechishga majbur bo'ldi. M.a.149-146yy.uchinchi Pun urushi bo'lib o'tdi. Rimliklar Karfagenni qamal qilib, m.a.146y. shaharni qo'lga kiritishdi. M.a.IIa. konsul Gay Mariy Rimning qudratini oshirish uchun harbiy islohatni o'tkazdi. Qurolli kuchlar endi militsiya tizimidan voz kechib yollangan armiyaga aylandi. Legionning strukturasi o'zgardi: har uchta manipula bir kogortani tashkil etdi. Kogorta 600 kishidan iborat bo'lib,asosiy harbiy bo'linmaga aylandi. 10 kogorta bitta legionni tashkil etgan.Kogorta bir, keyinchalik uch qator bo'lib saf tortgan. Legion qanotlarida yengil qurollangan piyoda askarlar va otliq qo'shin turgan, bu Rim qo'shininin qilish imkoniyatlarini oshirgan.

Rim harbiy qudrati va san'atining rivojlanishi Gay Yuliy Sezar(m.a. 100-44yy.) ismi bilan bog'liq, harbiy tarixda u chuqur iz qoldilgan. U yangi jangovar safni yaratdi. Legionning jangovar tartibi uchta chiziqdan iborat edi. Birinchi chizig'ida 4 kogorta, ikkinchi va uchinchi 3 kogorta turgan. Birinchi chizig'dagi kogortalar jang boshlab, dushmanning safini yorib o'tishi kerak edi. Ikkinchi safdagi kogortalar ularga yordam ko'rsatgan.Uchinchi safdagi qo'shinlar umumiy zaxirani tashkil etib, dushman zaiflashgan paytda uning qanotlarga hujum qilib, tor-mor qilish yoki uning zarbini qaytarish kerak edi. Yuliy Sezar qo'shinlarni boshqarish ularning tayyorgarligini yaxshilash uchun birinchi bo'lib shtab tuzdi, jang paytida raqib qo'shin qanoti va old tomoniga qarshi hal qiluvchi zarba berish uchun kogortaning uchinchi qatoridan foydalandi, bu bilan zaxira barpo etilishini boshlab bergan.

Doimiy urushlar natijasida Rim buyuk imperiyaga aylandi. Ammo bu urushlar , qullarning qo'zg'olonlari, ko'chmanchi qabilalarning bostirib kirishlari Rimni sekin-asta zaiflashiga olib keldi.

Milodiy 395 y. imperator Feodosiy davrida davlat ikki

qismiga bo'linib ketdi, 476y. esa varvarlarning hujumi natijasida G'arb Rim imperiyasi yo'q bo'ldi. Sharq Rim imperiyasi (Vizantiya) XVa.gacha mavjud edi.Qadimgi dunyo urushlar tarixi O'rta Osiyo xalqlar harbiy tarixsiz to'la bo'lmaydi. Turkiy qavmlar jahondagi eng qadimgi xalqlaridan sanalib, ular yashagan hudud faqat hozirgi O'rta Osiyoni qamrab olmasdan, balki Sharqda Tinch okeani, G'arbda Dnepr daryoga qadar bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan. Turon zaminida kashf qilingan jang qilish yangi usullari barcha turkiy xalqlar tomonidan tezda o'zlashtirilib, yangi bosqichga ko'tarildi.Mil.av. 3-ming. yillik oxiri-2-ming. yillikda Sharqdagi ko'chmanchi xalqlarda otliq qo'shin paydo bo'lgan. Dastlab undan aloqa, razvedka va qo'riqlashlarda foydalanilgan. Ammo keyin u mustaqil qurolli kuchlar turiga aylandi. U jang aravalarini siqib chiqarib, qo'shinning eng zarbdor va harakatchan kuchiga aylandi. Turkiy xalqlar birinchi bo'lib suvoriylar safini joriy etganlar (har bir otliq askar orasidagi masofa 20 m., jangovar qatorlar soni 10ta) va bu bilan dushman qo'shini ustidan yaqqol ustunlikka erishganlar. Milodddan oldin birinchi ming yillikda bu o'lkada daslabki davlatchilik shakllana boshlandi.Qadimgi Baktriya podsholigi, Katta Xorazm davlati. Mahalliy aholi saklar, massagetlar, baktriyaliklar, so'g'dliklar, xorazmliklar kabi ko'chmanchi va o'troq qabilalardan iborat edilar. Davlatlarning rivojlanishi qurolli kuchlarni ham kuchayishini talab qilgan. Harbiy san'at m.a.VIa. kelib yuqori darajada edi. qurollarni ishlab chiqishda bronza va temir ishlatilgan.

"Avesto"ga ko'ra mahalliy jamiyat uchta tabaqadan iborat edi- koxinlar, harbiylar va dehqonlar-chorvadorlardan. Askarlar asosan - uzun va kalta qilichlar(akinak), jangovar bolta(sagaris), nayzalar kabi sovuq quroll bilan qurollangan edilar. Uzoqdan jang qilish uchun o'q-yoydan foydalanishgan.Askarlar sovutlar bilan himoyalangan edilar. Otlarga ham sovutlar kiygizishar edilar. Qo'shin asosan otliqlardan iborat edi. Kamondan o'q otadigan sak

va massagetlar nishonga aniq urishlari bilan shuhrat qozonishgan edilar. Qo'shin qator-qator bo'lib saf tortgan va markaz hamda ikki qanotga bo'lingan. Otliq qo'shinning taktikasi yalpi shiddatli xamlaga o'tishdan iborat edi. Ot ustidan o'q uzayotgan otliqlarning tartisiz oqimi dushman ustiga o'qlar otib, so'ngra yana shiddat bilan orqaga qaytar edi. Tarihchilari buni "qochib jang qilish" usuli deb ataganlar. Urushda faqat erkaklar emas, balki ayollar ham faol ishtirok etishgan. Jang qilganda sak, massagetlar turli hiylalarni ishlatishgan. Jangni otliqlar hujumi bilan boshlab, keyin yolg'ondan chekinishni boshlashar edi. Dushmanning jangovar safi buzilgandan so'ng yangi hujum qilib, ularni qurshovga olib, tor-mor qilishardi.

Umuman olganda, O'rta Osiyo qabilalari strategiyasi son jihatdan ortiq qo'shin bilan dushmanni tor-mor etishga qaratilgan. Mahalliy xalqlar (saklar, massagetlar) kuchli dushman hujum qilganda ko'pincha mamlakat ichkarisi tomon atayin chekinganlar. Ular yo'llarida uchragan joylarni vayron qilib, kichik otliq qismlar bilan dushmanga beto'xtov hamla qilib, uni holdan toydirganlar, so'ngra qarshi hujumga o'tganlar. Misol sifatida Axamoniylar bilan olib borgan urushni keltirish mumkin. M.530 y. forslar podshosi Kir II O'rta Osiyoga bostirib, To'maris boshchiligidagi massagetlar bilan urush qilib, halok bo'ladi. M.a. 519y. boshqa Axamoniylar Doroi bilan urushib strategik mudofaa (chekinish) va strategik hujum (qarshi hujumga o'tish) ni qo'llashgan.

Makedonskiy Axamoniylarning buyuk saltanatini bosib olgan, ammo mahalliy xalqni zo'ravonlik yo'li bilan o'ziga bo'syundira olmagan (Spitamene boshchiligidagi kurash m.a. 529-527yy.). Keyingi davrda ham O'rta Osiyoda yangi davlatlar tashkil topib (Davan, Kang', Turk xoqonligi), harbiy san'at rivojlandi. Qang' davlatida yangi turdagi qo'shin va uning taktikasini yaratishga qaratilgan harbiy islohotlar natijasida nafaqat og'ir qurollangan otliq suvoriylar, balki og'ir qurolli

piyodalar ham tashkil etildi. Suvoriylar va ularning otlari temirdan tayyorlangan sovutlar bilan himoyalangan edi. Qang' suvoriylari 4-4,5 metrli uchli nayzalar bilan qurollangan edi, chap tomonda ularda uzun qilich kamarga osilgan. Shu bilan nirga ularda xanjar va jangovar bolta mavjud edi.

Savollar va vazifalar.

1. Qadimgi davlatlarning qushinlar taktikasi nima bilan uhashash?
2. Yunon- fors urushida yunonlarning g'alabasini nima bilan tushuntirish mumkin.
3. Pun urushi kim urtasida bo'lib o'tgan?
4. Yuliy Sezarning harbiy soxadagi yangiligi nimadan borat?

### **3 MAVZU: O'rta asrlar davrda urushlar va harbiy san'at tarixi.**

Reja:

1. Arablarning harbiy san'ati.
2. Salibchilar yurishlari
3. Chingizxonning harbiy san'ati. Mo'g'ullar tomonidan Xorazmshoh davlatining bosib olishi.
4. Amir Temur davlatining tashkil topishi. Amir Temurning harbiy san'ati: strategiya va taktikasi.

O'rta asrlar O'rta Osiyo xalqlarining tarixi muhim voqealarga boy. Ularda ulkan siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot o'z aksini topgan. VII asrga kelib Arab xalifaligi tashkil topdi, Qisqa vaqt ichida arablar katta hududni bosib olishdi: Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya.

VIII asrda esa arablar O'rta Osiyoga bostirib kirishdi. Arab xalifaligi katta imperiyaga aylandi. Buning asosiy sabablardan biri, kuchli muntazam armiyaga ega bo'lish.

Armiyaning asosini kavaleriya tashkil etgan. U ikki qismdan iborat edi: og'ir va yengil kavaleriya. Og'ir kavaleriya uzun nayza, qilich, jangovar bolta bilan qurollangan edi, tanasi esa sovut bilan himoyalangan edi. Yengil kavaleriya esa o'q-yoy bilan qurollangan edi. Shu bilan birga arablarda og'ir va engil qurollangan piyoda qismlar bo'lgan. Og'ir piyodachilar nayza, qilich va qalqon bilan qurollangan bo'lib, jangovar tartibda jang qilar edi, yengil piyoda asosan o'q-yoy bilan qurollangan bo'lib, erkin safda jang qilishgan. Tashkiliy jihatdan arab armiyasi 10, 50, 100, 1000 va 10 000 kishidan iborat bo'lgan harbiy qismlardan iborat edi. Arablarning jangovar tartibi 5 qismdan iborat edi: avangard, markaz, o'ng qanot (Al-mugajar), chap qanot (Al-Ajar) va aregard. Jang paytida ikkita qanotni kavaleriya himoya qilar edi. Qo'shinlar 4 qator saf tortgan. Birinchi qator erkin tartibdagi kavaleriyadan iborat edi, ikkinchi va uchinchi qator asosiy kuchlardan iborat bo'lib, shaxmat tartibda joylashgan og'ir kavaleriya va piyodalar edi. To'rtinchi qator - umumiy zaxira (rezerv)ni tashkil etgan va saralangan qo'shinlardan iborat. Taktika jihatdan jang paytida ular o'z dushmanining qanotlariga hujum qilib, chekinishga majbur etib, uni tor-mor qilishar edi. Urush paytida shaharlarni qamal qilib, devorlarni buzish uchun arablar jangovar texnikadan: manjaniq (katapult), ra'dandoz (tosh otar), o'zi otar mashinalar, naftandozlar (neft yoki olov bilan otadigan mashina) dan foydalashgan. Shu bilan birga, shaharlarga yorib o'tish uchun turli usullardan foydalanishgan: xandaqlar qazib yer osti yo'llar qurish, suv toshqinlarini uyushtirish. 651 yilda arablar Amu-Daryoning janubda joylashgan yerlarini egallab, Huroson viloyatni tashkil etishgan (Eronning shimoliy-sharqiy qismi, Janub. Turkmaniston, Shim. Afg'oniston). Amu-Daryoning

shimolda joylashgan yerlarini arablar Movaraunnahr, ya'ni "daryoning narigi tomoni" deb atashgan. Arablar Movaraunnahrni ikki bosqichda egallab olishdi: birinchi bosqich-651-704y. Bu bosqichda ular Movaraunnahrni bosib olish uchun emas, balki harbiy jihatdan tayyorgalik ko'rish, mahalliy hukmdorlarni sinash, ahvolni o'rganish uchun yurish qilishgan. Ikkinchi bosqich- 704-715y. bo'lib o'tgan. Hurosonga 704 y. tayinlangan noibi Qutayba ibn Muslim halifa tomonidan o'lkani egallab olish buyrug'i edi. 10 yil ichida arablar butun Movaraunnahrni bosib olishdi. Sabablar:

1. Mamlakatda parokandalik hukm surgan va mahalliy hukmdorlar orasida o'zaro nizolar kuchli edi.
2. Mahalliy xalq va hukmdorlar o'rtasida birdamlik yo'q edi.
3. Arab qo'shinlari jangovar tajriba va kuch jihatdan ustun turishgan.
4. Mahalliy dehqonlarning sotqinligi.

Arablarning talonchilik siyosati mahalliy xalqni barcha haq-huquqlardan mahrum etdi. Madaniyatning oyoq osti qilinishi va zulm hamda islom dini, arab tili va yozuvining zo'rlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Shu qo'zg'olonlar, mahalliy xalqning qarshiligi Arab halifaligini og'ir siyosiy tanglikka uchratdi, uning hokimiyati zaiflashib bordi. Natijada yangi mustaqil davlatlar tashkil topdi: Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlari. Harbiy jihatdan bu kuchli davlatlar edi, Shu bilan birga, piyoda askarlari ham bor edi. Muntazam armiyadan tashqari, urushlar paytida, ozod mehnat ahlidan tuzilgan harbiy qo'shinlar ham tashkil etilgan.

Arablarning harbiy san'ati G'arbiy Yevropa mamlakatlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan evropalik risarlar arablardan ko'p narsani o'rganganlar. Siyosiy axvolga kelsak, X-XI a.a. Evropada feodal munosabatlar rivojlanib borgan. Feodal tarqoqlik kuchayib, feodallar y'rtasidagi o'zaro urushlar ko'paydi.

Shu bilan birga katolik cherkovning qudrati oshib borgan. Sabab shuki, Yevropada katolik cherkov yagona jipslashgan tashkilot edi. U katta ma'naviy, diniy va siyosiy kuchga ega edi.

Shuning uchun ham Rim papasi Evropa davlatlarning ichki ishlariga aralashib yurgan.

Feodal urushlari, tabiiy ofatlari (kaxatchilik, chorva nobud bo'lishi) jamiyatdagi xalq noroziligini kuchayishiga, turli ko'zg'olonlarni ko'payishiga olib keldi. Shu bilan birga shaxarlarni o'sishi va savdo-sotiqning kengayishi feodallarning boylik orttirishga ishtiyoqi kuchaydi. Feodallar yangi erlarni bosib olib, o'z mulklarini ko'paytirishga xarakat qilishgan. O'z navbatida kambag'allar ham Sharqqa yurish qilib o'z yerlariga ega bo'lishmoqchi edi. Shu davrda juda ko'p yersiz risarlar ham paydo bo'ldi, urush va qaroqchilik ularning asosiy kasbi edi. O'z navbatida katolik cherkov ham yz qudratini, boyliklarini kuchaytirishmoqchi edi.

Aynan shu davrda, ya'ni X-XIa.-da, saljuk turklari arablarning Osiyodagi yer-mulklarni katta qismini bosib olgan edi. Saljukiylar Vizantiyaga qarshi xujum uyushtirib, ularni mag'lubiyatga uchratib, butun

Kichik Osiyoni ishg'ol qilishdi. Shuni ko'zda tutib G'arb feodallari boy Sharq mamlakatlarini bosib olishga umid qilishgan. Urushga bo'lgan baxona - " Iso payg'ambar qabrini qutqazish" edi.

1096y. baxorda G'arbiy Yevropa dexqonlari Quddus tomonga yo'l olishdi. Ammo yaxshi qurollangan saljukiylar ularning deyarli hammasini kirib tashlashdi. Shu yilning kuzda Fransiya, Germaniya Italiya mamlakatlaridan yirik feodallar rag'barligida risarlar qushinlari turli yo'llar bilan Sharq tomon yo'l olishdi. Saljukiylar o'z yengil kavaleriya orqali salibchilarga tixtovsiz hujum qilib turishdi.

Ammo shunga qaramasdan uch yillik yurishdan keyin 1099y. katta xujumdan keyin salibchilar Quddus shaxrini egallab

olishdi. Salibchilar Suriya bilan Falastinning dengiz kirk'oqlarida tor sohilda o'z davlatlarni barpo qilishdi - Edess grafligi(1098-1146y.)

- o Antioxiya knyazligi(1098-1268yy.)
- o Quddus qirolligi(1099-1291y.)
- o Tripoli grafligi(1105-1289y.y.).

Ammo salibchilar davlatlari bir-biri bilan chiqishi olmasdi. Ular o'rtasida nizolar mavjud bo'lib, shundan foydalangan saljukiylar salibchilarni sekin-asta siqib chiqarishni boshlashgan edi. Ularni mashxur bo'lgan sulton Salaxiddin boshqargan edi. Ularga qarshi kurashish uchun 1147-1149yy. G'arb feodallari ikkinchi yurishni tashkil etib, Edess, Damashk, Misr saljukiylar tomondan tortib olishdi.

Ammo sulton Salaxiddin boshchiligidagi saljukiylar birlashib, Quddusni qaytarib olishdi. "Muqaddas shaxarni" qaytarib olmoqchi bo'lib, risarlar 1189-1192y.da uchinchi salib yurishini uyushtirdilar. Bu yurishda Angliya, Fransiya va Germaniya qirollari boshchilik qilishdi. Ammo bu yurish ham muvaffaqiyatsiz tamom bo'ldi.

1202-1204yy.-da to'rtinchi yurish tashkil etildi, ammo saljukiylar

bilan urushish o'rniga salibchilar Konstantinopol shaxarni bosib olishdi. Shu bilan salibchalarning talonchilik va bosqinchilik maqsadlari yaqqol ko'rindi.

XIIIa.da 1217-1221yy.-beshinchi salibchilarning yurishi, 1228-1229yy.- oltinchi salibchilar yurishi (Quddus, Nazaret, Vifilem bosib olindi), 1248-1254yy.-ettinchi salibchilar yurishi (Misrda salibchilar mag'lubiyatga uchrashishdi), 1270y.-sakkizinchi salibchilar yurishi tashkil etishdi. Ammo salibchilar Antioxiya, Tunisda mag'lubiyatga uchrashishdi va Sharqdagi barcha yerlardan mahrum bo'lishdi.

Salib yurishlari mag'lubiyat bilan tugagan bo'lsa ham, ammo Yevropa uchun ta'sir qilmay qolmadi:

1. Vizantiya davlati tor-mor qilindi.
2. Feodallarni zaiflashishi va qirollarning xokimiyatning kuchayishi.
3. G'arbda Sharq madaniyati ta'siri kuchaydi.
4. Savdo-sotiqni rivojlandi.
5. Feodal munosabatlarni zaiflashib, dexqonlarning qaramligi susayib bordi.

O'rta asrlarda eng dahshatli urushlar Chingizxon yurishlar bilan bog'liq. 1206y. u o'z davlatiga asos solib, qisqa vaqt ichida ulkan imperiyani tashkil etdi. Chingizxon o'z zamonining eng kuchli va qudratli lashkarini tuza oldi. Mo'ng'ullarda temir ishlab chiqarish va unga ishlov berish keng tarqalgani uchun ular qo'shinlarning harbiy anjomlari va qurollarini boshqa xalqlardan katta ustunlikda ta'minladi. Hamda ular istilolchilik yurishlarining muvaffaqiyatlariga ko'p darajada yordam berdi. Chingizxon qo'shinlari quyidagi bo'linmalarga bo'lingan edi- 10,100,1000 va 10000. Ularni o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshi kabilar boshqarishgan. Mo'g'ul qo'shini faqat o'z intizomligi bilan emas, balki harbiy yurishlardagi g'oyatda chaqqonligi va janglardagi botirligi bilan ajralib turar edi. Chingizxon armiyasi og'ir qurollangan otliq askarlardan iborat bo'lib, uzoq masofaga harbiy yurish qilib, jang maydonda ko'pchilik harakat qilgan. Suvoriylar o'q-yoy, sadog', nayza, qilich va qalqon, sovutlar bilan qurollangan edi. Asosiy qo'shindan tashqari Chingizxon ixtiyorida "keshik" deb yuritilgan maxsus gvardiya tashkil etilgan edi. Keshik favqulodda sodir bo'ladigan xavf-xatarga qarshi tashlash uchun doimo jangovar holatda tutib turilar edi. Shu bilan birga, Xitoyni bosib olganidan so'ng (1211-1215yy.) undan katta o'ljalar bilan birga, harbiy qurol yasaydigan va ularni ishlata biladigan moxir ustalarni ham o'zi bilan olib ketgan. Shu tufayli mo'g'ul qo'shinlari eng yaxshi quyidagi harbiy qurol bilan ta'minlangan edi: manjaniq, palaxmon, naftandozlar. Urushda mo'g'ullar taktikasining asosiy usuli hujum edi. Urush olib

borganda o'z dushmanga nisbatan ular eng yaxshiy choralar ko'rishgan. Maqsad- o'z dushmanini qo'rqitish, uning jangovar ruhni singdirish edi.

Jang boshida suvoriylar yoyma saf tortib hujum qilishgan, dushmanning jangovar tartibini buzishga harakat qilishgan. Birinchi hujum natija bermasa, mo'g'ullar yolg'ondan chekinib, keyin yangidan hujumga o'tishgan. Bu taktikaning asosiy maqsadi- dushmanning jangovar safni buzib, butun kuch bilan hujumga o'tib, uni yengib olish. Ammo to'g'ridan-to'g'ri hujumlarni ular yoqtirishmas edi. Asosiy jangovar usul- dushman qanotlarga yoki turli tomonlardan hujum qilish. Mo'g'ullarning otliq qo'shinlari uch qismga bo'lingan: asosiy kuchlar, o'ng va chap qanot. Shu bilan birga, qo'shinning uchdan bir qismi zaxirani tashkil etgan. Uning vazifasi- kuchsizlangan dushmanni tor-mor etib, uni yakson qilish. Mo'g'ullar taktikasining ustunligi Xorazmshoh davlati bilan urushda (1219-1221yy.) o'zini namoyon qildi. XIII a. boshida Osiyoda Xorazmshoh davlati eng boy va qudratli mamlakat edi. U 400 minglik armiyaga ega edi. U kavaleriya, piyoda qo'shinalardan va ko'ngillardan iborat edi. Shu bilan birga, uning tarkibiga Xorazmshohning 10 minglik saralangan qo'shini ham kirgan edi. Davlatning chegarasida yaxshi qurollangan, kuchli mudofaaga ega bo'lgan shaharlar turgan.

Mamlakat markaziga yorib o'tish uchun suvsiz Qizilqumdan o'tish kerak edi. Shuning uchun Xorazmshoh Muxammad Alouiddinning o'ziga ishongan edi.

Xorazmshoh askarlari yaxshi qurollangan bo'lib, ularning jangovar tartibi 4 qismdan iborat edi:

avangard (mukaddama), o'ng qanot (maysara), chap qanot (maymana) dan va arergarddan (muaxxara) iborat edi. Shu bilan birga, alohida zaxira turgan. Uning vazifasi jangning oxirida kuchsizlangan dushmanni tor-mor qilib, uni yakson qilish edi. Birinchi marta Xorazmshoh qo'shinlari mo'g'ullar bilan 1218y.



Dasht-qipchoqda to'qnashishdi. Uch kunlik jang natijasida Xorazmshoh qo'shinlari 20 ming kishini yo'qotishdi. Mo'g'ul qo'shilarining qo'mondoni Juchi o'z odamlarini qurbon qilmaslik uchun jang maydonidan o'z askarlarini olib ketdi. Shu jangda Jaloliddin Manguberdi(1199-1231yy) birinchi marta o'z harbiy mahoratini namoyon qildi. 1219y. O'tror voqeadan keyin Chingizxon Xorazmshohga qarshi urushni boshladi. Chingizxonda, taxminan, 200-250 mingli armiyasi bo'lgan bo'lsa, Xorazmshohda 400 mingli armiya edi. Shunga qaramasdan uch yillik urushdan so'ng Chingizxon Xorazmshoh davlatini o'ziga bo'ysundirdi. Ammo Xorazmshohning o'g'li-Jaloliddin Manguberdi, o'z kurashini 1231 yilgacha davom ettirdi. Bir necha marta u mo'g'ullarni mag'lubiyatga uchratib, (Nissa yonida(1221y), Parvana jangida (1221y.) o'zini buyuk sarkarda deb namoyon qildi.G'azna yaqinidagi Parvana jangida J.Manguberdi yangi harbiy taktikani qo'llaydi. U tarixda birinchi bo'lib dushman suvoriylarga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilish yangi uslubini o'yladi. Bu jangda u mo'g'ullarning 45 minglik qo'shinini mag'lub etdi. Jaloliddin Manguberding bu g'alabasi Chingizxonni talvasaga soladi. U o'zining asosiy kuchini to'plab, J.Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi otlandi. 1221 yil kuzda qardiz galasi yaqinida J.Manguberdi Chingizxon qo'shinining "ilg'or" qismini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli hind daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo'shini J.Manguberdini daryodan o'tishiga imkon bermay, qurshab oladi. Tengsiz jangida mag'lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi chekinishiga majbur bo'ladi. Ammo J.Manguberdi bosqinchilarga qarshi o'z kurashini davom ettirdi. O'zbekiston hukumati Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, Vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash ,shuningdek , J.Manguberding xizmatlarini abadiylashtirish maqsadida 2000 yilning 30 avgustda eng oliy harbiy belgi - "Jaloliddin

Manguberdi" ordeni ta'sis etdi. Urush natijasida Movarounnahr Chig'atoy ulus(Movarounnahr, Yettisuv, Sharqiy Turkiston) tarkibiga kirdi. Ammo chig'atoylar o'rtasidagi o'zaro urushlar natijasida XIVa. o'rtalarida bu ulus ikki qismga bo'linib ketdi: Mo'g'uliston(Sh. Turkiston, Yettisuv), va Movarounnahr. Movarounnahr o'z navbatida 10 mayda beklklarga bo'linib ketdi. Siyosiy parokandalik, iqtisodiy og'ir ahvoli o'lkada tartibni o'rnatishni, markazlashgan davlatni tashkil etishni talab qilar edi. Bu esa siyosiy maydonga yangi siyosiy kuchlarni chiqishini talab qilar edi. Shu talabga javoban bu maydonga Amir Temur chiqdi. Amir Temur Kesh shahri yaqinida Xo'jailg'or qishlog'i (Yakkabog')da 1336 yil 9 aprel kuni tavallud topgan. Uning to'liq ismi Amir Temur Ko'rag'oniy ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Butqul. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshladi. Movarounnahrni birlashtirish maqsadida u mo'g'ullar bilan kurash olib borib, 1370 yilda o'lkaning hukmdori qilib saylanadi. Ammo, an'anaga ko'ra, taxtiga chingizlar urug'idan bo'lgan oldin Suyurgatmish( 1370-1388yy.), so'ngra uning vafotidan keyin Sulton Murod(1388-1402yy.) o'tkazildi, ammo amalda markaziy hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqarar edi.

Amir Temurning buyuk saltanatni barpo etish faoliyatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1370-1388 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Amir Temur asosan Movarounnahr yerlarini birlashtirib, markazlashgan davlatga asos solgan.Bu davlatning xavfsizligini ta'minlash uchun Amir Temur Mo'g'ulistonga yetti marta yurish qilib, mo'g'ullarning Movarounnahrda bo'lgan hujumlarini tugatdi. Shu bilan birga, u Xorazmga qarshi 5 marta yurish qilib, uni ham o'z davlatiga qo'shib oldi. Ikkinchi davr 1388-1405 yillardir. Bu davrda Amir Temur o'z davlat hududini kengaytirish va buyuk saltanat barpo

etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. 1381-1385 yillarda u Xulagu ulusini(Huroson, Sharq. Eron) o'ziga bo'ysondirdi. 1386-1388 yillarda Amir Temur uch yillik yurish qilgan.

Natijada, Azerbayjon, G'arb. Eron va Armaniston bosib olindi. 1388, 1389 1392 va 1395 yillarda Amir Temur Oltin O'rda hukmdori To'xtamish bilan urush qilib, uni tor-mor qildi. Bu g'alaba tarixiy ahamiyatga ega. Birinchidan, Amir Temur davlatning shimoliy chegaralar xavfsizligini ta'minladi, ikkinchidan, shu paytgacha Dasht-Qipchoqdan o'tgan Buyuk Ipak Yo'li yana Movarounahr orqali o'ta boshladi, uchinchidan, Oltin O'rda qudratini zaiflashtirib, Amir Temur rus knyazliklarini birlashishga, mo'g'ul zulmidan ozod bo'lishiga imkoniyat yaratdi. 1398-1399 yillarda Amir Temur Hindistonga yurish qilib Shimoliy va Markaziy Hindistonni o'ziga qo'shib oldi.1399 yilda u yetti yillik yurish boshladi. Natijada, Amir Temur turk-usmoniylar bilan urush qilib, o'z davlat chegaralarni O'rta yer dengizgacha kengaytirdi. 1402 yilda Amir Temur usmoniylar sultoni Boyazid bilan uchrashdi, Anqara shahri yonida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Butun Yevropa shu jangning natijasini kutgan edi. Gap shundaki, 1396 yilda Nikopol shahri atrofida usmoniylar Yevropaning birlashgan risar qo'shinlari bilan jang qilib, ularni tor-mor qilishdi. Yevropa davlatlari o'z mustaqilligini yo'qotish arafasida turishgan edi. Endi esa ularda umid paydo bo'ldi. Anqara jangi 1402 yil 20 iyulda bo'lib o'tdi. Unda har ikki tarafdin 200 mingdan ortiq askar qatnashdi. Sulton Boyazid Sivasdan 150 km. G'arbda Amir Temurning otliq qo'shinlari uchun noqulay bo'lgan o'rmonzor tog' yonbag'rida shaylanib turdi. Temur Boyazid qo'shinlar bilan bu yerda jang qilish rejasidan voz kechib, o'z qo'shinlarini qilil irmoq daryosining so'l sohilidan turklarning orqa tomoniga olib o'tib, Anqarani qurshab oldi. Boyazid orqaga qaytishga va o'zi uchun noqulay sharoitda jang qilishga majbur bo'ldi. Jang usmonli turk qo'shinlarining hujumi bilan boshlandi. Turklar Amir Temur

qo'shinlarining o'ng qanotidan hujum qildilar va uning orqa tarafiga o'tib, asosiy kuchlarni zaxira qismlardan ajratib qo'ymoqchi bo'lishdi. Lekin bu hujumni Amir Temurning otliq qismlari qaytara oldi. Shundan so'ng o'ng qanotdagi qo'shinlar to'xtovsiz qarshi hujumga o'tib, turklarning asosiy kuchlarini zaxira qismlaridan ajratib qo'yib, qurshab olishdi. Temurning manglay (avangard) va so'l qanot qismlari hujumga o'tib, turk qo'shinlarning ikkala qanotini tor-mor etdi. Ularning markazidagi saralangan kuchlar ham yanchib tashlandi. Boyazid o'zi asriga tushdi.

Bu jangda Amir Temurning harbiy san'ati, uning strategiya va taktika qobiliyati g'alabani ta'minladi. 1405 yilda Amir Temur Xitoyga o'z yurishini boshladi, ammo shu yilning 18 fevral kuni to'satdan vafot etdi. Dunyoning 27 mamlakatini zabt etishda Amir Temurning qo'shini va uning G'arbiy san'ati bosh omil bo'ldi. Amir Temur buyuk sarkarda sifatida dunyoga mashhur. Uning g'olibona yurishlarda qo'llagan taktik va strategik jang qilish uslublari bugungi kunda ham jahondagi yetakchi mamlakatlarning g'arbiy bilim yurtlarida va akademiyalarida o'rganiladi va o'qitiladi. Juda qattiq temirdek mustahkam tartib va intizomga ega bo'lgan Temur qo'shinlari asosan piyoda va otliq askarlardan iborat edi.

Ular o'nliklar(ayl), yuzliklar (xo'shun), mingliklar (xazora) va o'n mingliklar (xo'shun)ga bo'lingan va ularga o'nboshi, yuzboshi mingboshi va tumanboshi(amirlar) boshchilik qilganlar. Amir Temur adolat yuzasidan askarlarining unvon darajalarini hisobga olgan holda, ularga maosh belgilash tartibini joriy qilgan. Ofitserlarni rag'batlantirish tizimi ham mavjud edi, ularning qilgan xizmatlariga qarab maosh tayinlangan. Amir Temur ofitserlarni tanlashda shunchaki tanish-bilishlar asosida emas, balki jang maydonida o'zining mahoratini ko'rsatgan shaxslarni tanlagan.

Jang qilish taktikani ishlab chiqib, Amir Temur 12 mingdan

ortiq bo'lmagan, 12 mingdan 40 mingga qadar bo'lgan otliq birikma va dushman soni 40 mingdan ortiq bo'lgan qo'shin uchun alohida-alohida jang qilish usullarini o'ylagan. Odatda dushman kuchlari 40 mingdan ortiq bo'lsa, unga qarshi Temurning o'zi borgan. Bunday paytda uning qo'shinlari jangga quyidagi tartibda bo'lingan: 40 bo'linma bevosita Sohibqironning o'z ixtiyorida bo'lgan. Ulardan 12ta bo'linma birinchi qatorni, qolgan 28tasi ikkinchi va uchinchi qatorni tashkil etgan. Temurning o'g'illari va nabiralari boshchilik qilayotgan qo'shinlar o'ng tomonining old qismida, qarindosh va ittifoqchilar esa qo'shinlarning chap tomonining old qismida joylashgan. Bu barcha qismlar zaxira hisoblanib, Sohibqiron buyrug'iga asosan zarur bo'lgan joylarga tashlangan. Amir Temur askarlarga va zobitlarga alohida e'tibor bergan. Har bir zobit jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Qo'shinlar harbiy yurishga chiqqan vaqtda intizomga qattiq rioya qilingan. Safarda eng oldinda har bir qo'shin qismlari "xabargiri", ya'ni "xabarchilar" deb yuritilgan ayg'oqchi-kuzatuvchilar bo'linmasi yurgan. Xabarchilar orqasidan sohcilar bo'linmalar yollangan, u "yasovul" deb atalgan. Qo'shinning asosiy qismlar oldida "manglay"- avangard qismlar harakatda bo'lgan. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlar oralig'ida esa qo'mondonning qarorgohi va uning yon atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan bo'lib, u "izofa" deb yuritilgan. Urush paytida jang oqibatini ana shu izofa qismlar hal qilgan. Temur qo'shining asosiy jangovar qismi markaz, o'ng va so'l qanotlardan iborat bo'lgan. Uning o'ng qanoti "buronqor", so'l qanoti esa "juvonqor" deb yuritilgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'riqchi manglay-avangardi, yon tomonida esa bittadan qo'riqchi qism-"kanbul"lari bo'lgan. Shu tariqa qo'shin yetti qism- "qullar"dan iborat bo'lib, bulardan uchta: markaz, buronqor, juvonqorlar mustaqil, to'rtasi: ikki manglay, va ikki kanbul tobe qismlar edi. Qo'shinni yetti qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib

Amir Temur joriy qildi. Qo'shinni bunday joylashtirishning o'ziga xos tomoni shunday ediki, uning o'ng qanot qismlari markaziy qismiga qaraganda ancha-muncha kuchli edi. Bu maxsus o'ylab ishlatilgan taktik uslub bo'lib, dushman kuchlarning markazdan yorib kirishiga ataylab sharoit yaratish va so'ngra qanotlardagi zarbdor kuchlar yordamida uni o'rab olib, tor-mor qilishni ko'zda tutar edi.

O'sha davrda barcha xalqlar tartibsiz, to'da-to'da bo'lib, saflarga tizilmasdan jang qilgan bir paytda, Amir Temurning bu taktikasi uning buyuk lashkarboshilik mahoratidan darak berdi. O'z qo'shinini u turli-tuman jangovar qurol-yaroqlar bilan- ra'dandoz (zambarak- pushki), manjaniq va o'zi otar kabi qurollar bilan qurollantirdi.

Jangovar tartib bir nechta safdan iborat edi. Jangni xabarchilar qismni tashkil etgan yengil kavaleriya boshlab berar edi. Keyin ularga avangard qo'shilar edi. Ularga yordam berish maqsadda oldin o'ng qanotning, keyin chap qanotning avangardi jangga kirishar edi. Natija bo'lmasa, jangga o'ng qanotning so'l qismi va so'l qanotning o'ng qismi kirishgan. Bu ham yetarli bo'lmasa jangni ikki qanotning qolgan kuchlar boshlar edi. Zaruriyat tug'ilsa, ishga zaxira(izofa)ni jalb qilishgan. Amir Temur qo'shinining asosiy kuchi og'ir qurollangan va yengil kavaleriya edi. Yengil kavaleriya asosan o'q-yoy, qilich bilan qurollangan bo'lib, qorovul yoki xabarchilar xizmatini olib borib, birinchi bo'lib jang boshlar edi. Og'ir qurollangan kavaleriya urug' zodagonlardan iborat bo'lib, dushmanning saralangan kuchlari bilan jang qilgan. Ularda nayza, dubulg'a, sovut(zirx), qilich, o'q-yoy mavjud edi.

Temur qo'shinda maxsus injener qismlar, tog'li joylarda jang qilish uchun piyoda qismlar ham tashkil etildi. Amir Temur qo'shini Chingizxon qo'shiniga o'xshash bo'lsa ham, ammo o'ziga xos xususiyatlarga ega edi:

1. Amir Temur muntazam armiyani tashkil etdi. Chingizxonda esa

xalq lashkarlari xizmat qilgan.

2.Chingizxonda armiya ko'chmanchilardan iborat edi.Amir Temur armiyasida esa ham ko'chmanchi ham o'troq qabila vakillari xizmat qilishgan.

3.Amir Temurda kavaleriya bilan birga, piyoda qismlar ham bor edi.Chingizxonda esa piyoda qismlar umuman bo'lmagan.

4.Amir Temur Sharqda birinchi bo'lib artilleriya qismlarini tashkil etgan.

5.Amir Temur yangi samarali taktika usullarini, jangovar safni ishlab chiqqan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki , Amir Temur tarixiy shaxs bo'lib, insoniyat tarixida chuqur iz qoldirdi:

1.O'rta Osiyoni birlashtirib, feodallar o'rtasidagi o'zaro urushlarni bartaraf etib, yagona markazlashtirgan davlatni tashkil etdi.

2.Oltin O'rdani tor-mor etib, o'z davlatning ichki va tashki xavfsizligini mustahkamladi.

3.Buyuk sarkarda sifatida yangi taktika usullarni yaratdi.

4.Buyuk saltanatni yaratib, unda tartib, barqarorlik o'rnatdi.

5.Sulton Boyazid ustidan g'alaba qozonib, Yevropa xalqlarini turk-usmoniylar zulmidan qutqardi.

O'zbek xalqi oldida Amir Temurning xizmatlarini hisobga olinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1996 yil 26 aprel kuni "Amir Temur" ordeni ta'sisi haqida qonun qabul qilindi.

Savollar va vazifalar.

1. Arab xalifaligining g'oyaviy asosi nima?"
2. Arablar g'alabalarining sabablari
3. Salib yurishlarning sabablari va maqsadi
4. Amir Temur xarbiy sohaga qo'shgan xissasi

### **34MAVZU: So'nggi o'rta asrlar va yangi tarix davridagi urushlar tarixi.**

Reja:

1.O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa davlatlarining urushlar va harbiy san'at tarixi. XVI-XIX a. O'zbekiston xalqlarining harbiy tarixi.

2.Yangi tarix davrida urushlar va harbiy san'at tarixi.

3.XIXa. o.-XXa. boshlarida imperialistik urushlar tarixi.

O'rta asrlarda, ya'ni V-XVIIIa.a., dunyoda feodal munosabatlar shakllanib , rivojlandi. Harbiy ish bilan asosan feodallar shug'ullanishgan. Sabab shundaki, harbiy anjomlar juda qimmat edi. Armiyaning asosini ritsarlar tashkil etgan.Ritsar- bu og'ir qurollangan suvoriy bo'lib, uning quroli nayza, uzun qilich, jangovar boltadan iborat edi. O'zini himoya qilish uchun unda qalqon, temirdan qilingan sovut va dubulg'a bor edi. Ritsarning oti ham temirli sovut bilan himoyalangan edi. Jangga ritsar o'z novkarlari bilan kirishar edi. Ular birgalikda quyi harbiy bo'linmani -"nayza" (kopyo)ni tashkil etishgan. Bir nechta "nayza" oliy harbiy bo'linmani "znamya"(bayroq)ni tashkil etgan. Jang paytida ritsarlarning jangovar tartibi har xil bo'lgan yoki kolonna shaklida (klin), yoki bir safga turib. Jang paytida ritsarlar yakka-yu yakka kurashgan, har bir ritsar avvalombor o'z mardligini, jasurligini namoyon qilmoqchi edi. Shuning uchun bu davrda qo'shinlar strategik vazifalarni bajarishmagan, kurash asosan , muayyan shaharni egallash uchun olib borishgan. Piyoda qo'shinlar bu davrda o'z ahamiyatini yo'qotishgan. Og'ir qurollangan ritsarlar bilan kurashish uchun yangi qurollarga ehtiyoj paydo bo'lgan. Shu talabga binoan o'q otadigan qurol kashf qilindi. O'q otadigan qurolni birinchi bo'lib arablar kashf qilishdi(XIa.). Dastlabki o'q otadigan quroll bombardarda yoki mudofaa edi. Bu temirdan qilingan truba bo'lib, uni oldi qismdan

o'qlashgan. Ichiga oldin porox, keyin esa toshlar yoki temir solishgan, orqa tomondan olov quyib otishgan. Dastlabki to'plar yog'och taglikka o'rnatilgan edi. Bombarda oldin ispanlar, keyin esa boshqa Yevropa davlatlar tomondan o'zlashtirilgan edi.

Bombardadan 1 km. masofaga otish mumkin edi. Vaqt o'tishi bilan toshlar o'rniga temir yoki po'lat yadro, XVa. boshlarida cho'yan yadro, keyin esa bomba bilan otishgan. Shu davrda pushkaning asosi-lafet ham paydo bo'ldi. XV-XVIa. kelib metallurgiyani rivojlanishi bilan to'plarning sifati oshdi, og'irligi kamaydi, otish xususiyati oshdi. Sekin-asta artilleriya qurolli kuchlarning mustaqil turga aylandi. Og'ir bombardada bilan birga dastlabki qo'l o'q otar qurollar- arkebuza yaratildi. Dastlab ularni ham oldidan o'qlashgan, otish masofasi 100m. Keyin arkebuza o'rniga mushketlar paydo bo'ldi: og'irligi -7-10kg, kalibr-20mm, otish masofasi- 200-300m. Yaxshi otish uchun mushket tagiga tayanch(soshka)ni quyishgan edi. Ammo mushketni ham oldi qismdan o'qlashgan. XVIIa. mushket o'rniga yengil va qulay miltiq yaratildi. U patron bilan o'qlanib, chaqmoq toshli zamok yordami bilan otilar edi. O'q otar qurolni rivojlanishi kavaleriyaning yangi turini paydo bo'lishiga olib keldi. Dragoonlar, ular shpaga va to'pponcha bilan qurollangan edi. O'q otar qurollar texnika jihatdan yaxshi bo'lmasa ham, ammo undan foydalanish natijasida shaxsiy tarkib katta talofat ko'rar edi. Bu esa jang qilish taktikani, jangovar tartibning o'zgartirishini talab qilar edi. Natijada, piyodachilarning safdagi chuqurligi, ya'ni qatorlar soni, kamaydi. Mushketyorlar bilan nayzachilarning o'zaro harakatini bir-biriga moslashtirish, muvofiqlashtirish kerak edi. Mushketyor o'z qurolini yangidan o'qlash uchun vaqt yo'qotar edi, shu vaqtda ularni nayzachilar himoya qilish kerak edi. Natijada, qo'shinlarning jangovar tartibi o'zgardi. U endi qurolli qo'shinning uch turidan iborat edi- jangovar tartibning negizi kvadrat shaklida saf tortgan nayzachilar(pikinyorlar) edi, ular atrofida yoki qanotlarda

mushketyorlar joylashgan, otliqlar zich saf tortib bir yoki ikki qanotlarda joylashgan edi. Front oldida artilleriya turgan. Endi jangning natijasi qo'mondonning mahoratiga, uning taktika tajribasiga, qo'shinlarning ko'rgan tayyorgaligiga bog'liq edi. Artilleriya rivojlanishi bilan mudofaa inshootlarining ahamiyati oshib bordi. Shu davrga kelib, (XVIa.) ritsar otliqlari o'z ahamiyatini yo'qotdi va qo'shin turi sifatida yo'q bo'ldi piyoda qismlarning ahamiyati, aksincha, oshdi. XVIa. ikkinchi yarmida mutlaq monarxiya davlatlari tashkil topib, kuchayib, ular muntazam yollanma armiyani tuza boshlashgan. Artilleriya kuchayib borish tufayli jang olib borish yangi usuli- lineyali taktikani paydo bo'lishiga olib keldi. Unda qo'shinlar front bo'ylab bir tekisda taqsimlanib, uzun qatorlarda saf tortib urushganlar. Lineyalardagi qatorlar miqdori miltiqlarning tez otarligi bilan belgilangan. Jangning taqdirini piyodalarning o'q otish quvvati hal qilgan. Liniya tartibi qo'shinlarning uch turidan iborat edi- piyoda qismlar, kavaleriya va artilleriya yollanma armiyaning strategiyasida asosiy maqsadi - askarlarni saqlash maqsadida katta, hal qiluvchi jangdan o'zini chetga olish. Asosiy e'tibor- chegaralardagi qal'alarni qamal qilish yoki ularni mudofaa qilib, o'z qo'lida saqlash edi. Bu kordon(chegara) strategiya degan nom oldi. Endi asosiy vazifa -dushmanni kuchsizlantirib, g'alaba qozonish edi. Qo'shinlarni ta'minlash uchun magazin tizimi paydo bo'ldi, ya'ni harbiy bo'linmalar davlat omborlari (magazin)dan ta'minlanar edi.

Ammo bu qo'shinlarni shu omborlarga bog'lab qo'ygan, harbiy omborlardan uzoqlashgan harbiy qismlarni ta'minlash og'ir edi. Shuning uchun qo'mondonlar dushmanni quvib, uni tor-mor qilish operasialarini rejalashtirish qiyin edi. Shu davrda qo'shinlarning boshqaruvi nisbatan oson edi. Sabab shundaki, jangni, odatda, oldindan tanlab olingan dalada o'tkazishgan. Qo'mondon tepalikda o'z shtabini joylashtirib, butun jang maydonini nazorat qilish imkoniyatga ega edi.

O'rta asrlarda bo'lib o'tgan eng katta, muhim urushlar to'g'risida gapirsak, quyidagi urushlarga o'z e'tiborimizni qaratishimiz mumkin:

- Yuz yillik urush (1337-1453 yy.). Bu Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi urush bo'lgan. Asosiy sabab-Angliya qirollarining Fransiya bo'lgan hududiy da'vogarlik. Angliya qiroli Fransiya qirolining qarindoshi edi. Shuning uchun Fransiya qiroli Filipp IV o'lgandan keyin uning bevosita vorisi qolmaganligidan foydalanib, Angliya qiroli Fransiya taxtiga da'vo qildi. Fransiya qo'shinda asosiy kuch ritsarlar edi. Ritsarlar intizomni tan olmasdan, jangda ularning har qaysisi shaxsiy jasorat ko'rsatishga harakat qilishgan. Piyodalar yollanma askarlardan iborat edi. Angliya qo'shinlari fransuz armiyaga nisbatan puxta tashkil etilgan edi. Inglizlarda ritsar suvoriylardan tashqari intizomli va ko'p sonli piyoda askarlar ham bor edi. Bu piyoda askarlar asosan erkin dehqonlar edi. Ular katta kamon bilan qurollangan bo'lib, 600 qadamga otishar edi.

Fransuzlar kuch jihatdan ustun turishgan bo'lsa, ammo intizomi past bo'lgani uchun ular mag'lubiyatga uchrashar edi. Ammo urushning oxirida inglizlarni Fransiya hududidan siqib chiqarishdi.- Italiya urushlari(1494-1559yy.). Bu Italiyada o'z hukmdorligini o'rnatish uchun Fransiya bilan Ispaniya o'rtasidagi urush bo'lgan. Urushda turli qo'shinlar qatnashib (shveysarlar, olmonlar, ispanlar, italiyaliklar), ular turli taktika usullardan foydalangan. Urush natijasida o'q-otar qurollar asosiy qurolga aylanib, sovuq qurollar(nayzalar, o'q-yoylar, qilichlar) o'z ahamiyatini yo'qotishdi. Zich qator saf tortish jangovar tartib yo'qoldi, liniya taktikasi asosiy turga aylandi.

- 30-yilli urush(1618-1648yy.). Bu urushda Shvesiya Boltiq dengizda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurash olib borgan. Shvesiya qiroli Gustav-Adolf (1611-1632yy.) o'z zamonning eng kuchli armiyasini yaratdi. U asosan, yollanma askarlardan iborat bo'lib, eng zamonaviy o'q otar qurol bilan ta'minlangan edi.

Gustav-Adolf birinchi bo'lib, polk artilleriyani tashkil etgan. Uning armiyasi piyoda qismlar, artilleriya va kavaleriyadan iborat edi. Piyoda askarlar asosan multiqlar bilan qurollangan bo'lib, shu bilan birga nayzachilar ham mavjud edi. Gustav-Adolf liniya taktikasidan keng foydalangan. Uning mushketyorlar uch qator saf tortishgan bo'lsa, Shvesiya dushmanlari eski usulni qo'llab, o'z qo'shinlarni 30 qator saf tortishgan. Shundan foydalanib, Shvesiya qo'shinlari ularga katta ziyon yetkazishgan.

- Shimoliy urush (1700-1721yy.). Bu urushda Boltiq dengiziga chiqish uchun Rossiya Shvesiya bilan urush olib borgan. Shu davrda Rossiya imperiya taxtiga Pyotr I chiqib, mamlakatda chuqur siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlarni boshlab yubordi. Uning maqsadi- Rossiyani zamonaviy, qudratli Yevropa mamlakatiga aylantirish edi. Ammo bunga Rossiyaning qoloqligi to'sqin bo'lgan. Qisqa vaqt ichida Pyotr I kuchli, yaxshi qurollangan armiyani tashkil etdi. Lekin Shvesiya qiroli Karl XII Rossiyani o'z raqibi sifatida ko'rib, uning kuchayishini xohlamagan. 1700y. oktabr oyida Narva shahri yonida rus va shved armiyalar o'rtasida jang bo'lib, yana yosh, tajribasiz bo'lgan rus armiya mag'lubiyatga uchradi. 1707y. Karl XII Rossiya ittifoqchilarini, Polsha va Saksoniyani, tor-mor etib, Rossiyaga bostirib kirdi. 1708y. 28 sentabr kuni rus armiyasi Lesnaya qishlog'i yonida Karl XIIga yordamga shoshib kelayotgan shved qo'shinlarini tor-mor qilishdi. 1709y. 8 iyul kuni esa Poltava yonida rus va shved armiyalari to'qnashib, jang qilishdi. Rus armiyada 42 ming kishi va 72 zambarak mavjud bo'lsa, shvedlarda 30 ming kishi va 32 zambarak bor edi. Jang natijasida rus qo'shinlari liniya taktikasini qo'llab, shved qo'shinlarini chekinishga va qochishga majbur qildilar. Shvedlar 9200 kishini yo'qotishdi, 19 ming kishi asrga olindi. Qirolning o'zi jang maydonidan qochib, Turkiyada yashirindi. Shimoliy urushni Rossiya yutib, Boltiq dengizga chiqib, dengiz davlatiga aylandi.

- Yetti yillik urush (1756-1763yy.). Bu urushda Rossiya, Avstriya, Fransiya, Shvesiya va Saksoniya Prussiyaga qarshi urushishgan. Prussiya qiroli Fridrix XVIII a. o'rt. eng kuchli armiyani tashkil etdi. Iste'dodli sarkarda bo'lgan Fridrix yangi jang qilish taktikani yaratdi. Uning mohiyati shundaki, pruss askarlari yurish va jang jarayonidagi hujum harakatini bir xil tartibda bajarishgan. Natijada, pruss qo'shinlari qisqa vaqt ichida o'ng yoki chap flangga buyurilib, jangovar tartibni buzmasdan hujumni davom etish mumkin edi. Jang paytida Fridrix bir qanotni kuchaytirib, kuch ustunligini tashkil etib, dushman qo'shinlarini bir qanotdan o'rab, uni tor-mor qilar edi. Fridrix o'tli artilleriyani tashkil etib, uning manyovr qilish imkoniyatini kuchaytirdi. Yangi taktikadan va qurollardan foydalanib, pruss armiyasi ittifoqchilarini mag'lubiyatga uchratdi. 1763y.-da ittifoq tarqalib, Prussiya g'olib bo'lib urushni tugatdi. XVIII a. ikkinchi yarmiga kelib, insoniyat tarixida yangi davr boshlandi. Feodal munosabatlar yemirilib, o'rniga yangi kapitalistik munosabatlar vujudga keldi. Markazlashgan davlatlar tashkil topdi. Shu davrda sanoat to'ntarishi ro'y berdi, ya'ni qo'l mehnati o'rniga mashinalar kashf qilindi, mehnat unumdorligi oshib bordi, yangi sifatli qurollarni ishlab chiqarish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Iqtisodiy imkoniyatlarning o'sib borishi, jamiyatning ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlari qurolli kuchlarni tashkil etish tartibiga, uning tarkibiga, miqdoriga ta'sir qildi. Yollanma armiyalar o'rniga ommaviy harbiy majburiyat asosida ommaviy muntazam armiyalar tashkil etildi. Yangi turdagi armiyalar oldin Fransiyada, keyin Prussiyada paydo bo'ldi. Harbiy san'at yanada rivojlanib bordi.

Harbiy san'atni rivojlanishida Buyuk Fransuz inqilobi (1789-1794y.y.) kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu burjuaziya inqilobi bo'lib, uning natijasida Fransiyada qiroli qatl etilib, monarxiya bekor qilindi. Yevropadagi barcha monarxiyalar (Angliya, Avstriya, Rossiya, Prussiya, Ispaniya, Gollandiya) birlashib,

Fransiyaga qarshi ittifoq tuzib, urushni boshlashdi. O'z ozodligini saqlab qolish uchun Fransiya 1793y. umumiy harbiy majburiyatni e'lon qildi. 18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan barcha erkaklar armiyada xizmat qilish shart edi. Shu yo'l bilan Fransiya yangi turdagi ommaviy armiyani tashkil etdi. G'alaba qozonish uchun Fransiya o'z armiya tarkibini o'zgartirdi, murakkab jangovar vazifalarni hal qilish mumkin bo'lgan yangi harbiy bo'linmalar tashkil etildi- diviziya va korpuslar. Ular piyoda qismlardan, artilleriya va kavaleriyadan iborat edi. Diviziya mustaqil jangovar harakatlarni olib borishga qodir bo'lib, shu hisobidan front uzaytirilib, qo'shinlarning jangovar qudrati oshib borgan. 4-5 diviziya bitta armiyani tashkil etgan. Urushni olib borish vazifasi va taktikasi o'zgarib bordi. Endi urushning asosiy maqsadi dushman hududini, aloqa yo'llarini va qal'alarini egallash emas, balki uning armiyasini tor-mor etib, mamlakatni o'ziga bo'ysundirish edi. Jangovar taktikasi o'zgarib bordi. Jang paytida batalion kolonnasi hal qiluvchi ahamiyatni kasb etgan, ular ikkinchi qatorni tashkil etib, batalionlar oldidan sochma saf tortgan piyoda qismlar (egerlar) jang qilishgan, ular birinchi qatorni tashkil etishgan. Piyodalar qismlarning hujumini artilleriya va kavaleriya qo'llab-quvvatlagan. Front bo'yicha batalion kolonnalar notekis saf tortishgan. Jang paytida kuchlarning asosiy qismi bosh yo'nalishda saf tortib, dushman frontini yorib o'tishga harakat qilishgan. Muvaffaqiyatni ta'minlash uchun zaxira qismlari muhim rol o'ynagan. XVIIIa. va XIXa. boshida harbiy san'at, strategiya va taktikani rivojlanishda rus va fransuz sarkardalar- A.Suvorov, M.I. Kutuzov va Napoleon I ning xizmatlari katta. A.Suvorov askarlarning jangovar tayyorgaligiga, ularning jangovar ruhiga katta e'tibor bergan. U " O'qishda qiyin bo'lsa, jangda oson bo'ladi" degan edi. Ayniqsa, qo'shinlarning tez sur'atlar bilan yurish qilib, dushman kutmagan paytda va kutmagan tomondan jang maydonda paydo bo'lib, g'alaba qozonishga o'rgatgan. Fransuz inqilobi natijasida juda

ko'p iste'dodli harbiy shaxslar paydo bo'ldi, Jumladan, Napoleon. Davlat to'ntarilishi natijasida(1804y.) Napoleon hokimiyatni qo'lga kiritib, o'zini imperator deb e'lon qildi. 1812 y. qadar u butun harbiy Yevropani egalladi. Uning g'alabasining asosiy omili - jang paytida bosh yo'nalishda kuchlar ustunligini ta'minlab, dushmanni tor-mor etish. G'arbiy Yevropani egallashdan so'ng Napoleon 1812y. bahorda Rossiyaga qarshi urushni boshladi. Bu hujumda 678 minglik fransuz armiya ishtirok etdi. Napoleonning strategik maqsadi- bir-ikki hal qiluvchi jangda rus armiyasini tor-mor etib, Rossiyani o'ziga bo'ysundirish edi. Harbiy chegarasida turgan rus armiyasi ikki qismga bo'lingan edi. Ularni qo'shilishga imkon bermasligi kerak edi. Ammo Napoleon o'z maqsadiga erisha olmadi. Smolensk oldida rus armiyalari qo'shilishdi, ammo jang qilish uchun kuch yetmagan. Rus armiyaning qo'mondoni M.I. Kutuzov harbiy kuchni saqlab qolish uchun, Moskva tomoniga chekinishga majbur bo'ldi. 1812y. 7 sentabr kuni Borodino qishlog'i yonida fransuz va rus armiyalar uchrashib, ular o'rtasida katta jang bo'lib o'tdi. Jami bu jangda 250 ming kishi va 1200 to'p qatnashgan. Jang natijasida rus qo'shinlari o'z kuchlarining uchdan bir qismini yo'qotishdi, ammo Napoleon o'z maqsadiga erishmadi, rus armiyasi yakson qilinmadi, ular o'z jangovar qudratini saqlagan bo'lsa ham, Moskvani qoldirishga majbur bo'lishdi. Kutuzovning fikriga ko'ra " Moskvani yo'qotib, biz armiyani saqlab qoldik. Armiyani yo'qotgan holda esa, biz mag'lubiyatga uchraymiz". Kutuzov haq bo'lib chiqdi, o'zini katta janglardan chetga olib, kichik urushni olib borib, o'z dushmaniga zarar yetqazib, rus armiyasi kuchayib, 1812 y. dekabr oyida chekinishga majbur bo'lgan fransuz armiyasi Berezina daryo yonida tor-mor qilindi. Rossiya o'z mustaqillikini saqlab, o'z ittifoqchilar bilan (Angliya, Avstriya, Prussiya) Napoleonnig yengishdi.

XIXa. kelib, dunyoda yangi iqtisodiy, bozor munosabatlar

shakllanib, rivojlanib bordi. Sanoat to'ntarishi natijasida ishlab chiqaruvchi kuchlar yuksaldi. Sanoatning boshqa sohalari bilan birga, harbiy sanoat ham rivojlandi, harbiy sohada ko'p kashfiyotlar qilindi- tutunsiz porox, qirqma to'plar, qirqma miltiqlar. Temir yo'llarning qurilishi, elektr telegrafni kashf qilinishi, metalurgiyani rivojlanishi harbiy san'atni o'zgarishiga olib keldi.

Qirqma to'plarni, miltiqlarni paydo bo'lishi o'q otish tezligini, otish masofani oshirishga olib keldi. Batalon kolonnadagi jangovar tartib shaxsiy tarkibida katta talofatga olib kelib, yangi vaziyatda o'zini oqlamay qoldi. Zanjir saf tortib jang qilish usuli paydo bo'ldi. Bu taktikani qo'llanishi talofatni keskin kamayishiga olib keldi. Yangi taktikaning afzalligi Krim urush davrida o'zini namoyon qildi. XIXa. o'rtalariga kelib rivojlangan mamlakatlar dunyoda o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida o'zaro urushlarni olib borishdi. Bu davrida Rossiya bilan Angliya o'rtasidagi nizolar Krim urushiga olib keldi ( 1853y.-1856y.). Bu urushda Angliya harbiy jihatdan ustun bo'lib, Rossiya, ham iqtisodiy, ham harbiy jihatdan qoloq bo'lib, mag'lubiyatga uchradi. Urushning natijasida quyidagi xulosalarni qilsa bo'ladi:

- Jangning asosiy turi -piyodalarning zanjir safi
- O'q otish masofasi uzayib, nishonga olish imkoni kuchayib, o'z qo'shinlarni dushmandan uzoq masofada saf tortishni talab qiladi.
- Urushning yangi -pozision turi, paydo bo'ldi. Bu esa harbiy-muxandis inshootlarning rolini oshirdi.

XIXa. ox.-XXa.boshlarida bozor munosabatlar rivojlanib, imperialistik davlatlar o'rtasida bo'lingan dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun harakat kuchayib bordi. Bu esa yangi turdagi, imperialistik urushlarga olib keldi: AQSh-Ispaniya urushi(1898y.), ingliz-burlar urushi (1889-1902y.y.), rus-yapon urushi( 1904-1905y.y.), Rossiyaning O'rta Osiyo davlatlari bilan urushi ( 1847-1885y.y.).



AQSh-Ispaniya urushning asosiy sababi AQShning o'z mavqeini mustahkamlash, mustamlakalarga ega bo'lishi. 1898y. bahorda boshlangan urush shu yilning avgustida AQSh g'alabasi bilan tugadi. Natijada Puerto-Riko, Kuba, Fillipin, Guam orollari AQSh ixtiyoriga o'tadi. Ispaniya Amerikadagi o'z mulkidan maxrum bo'ladi. XIX a. oxirida Janubiy Afrikadagi Traansval va To'xsariq respublikalarda oltin va olmoslarning yangi katta zaxiralar topiladi. Ularni o'z qo'lga kiritish maqsadida 1889y.-da Buyuk Britaniya bu respublikalarga hujum uyushtiradi. Mahalliy aholi burlar edi, ya'ni Gollandiya va Germaniyadan ko'chib kelgan kishilarning avlodlari. Ikkita respublika birlashib, o'z mustaqilligini himoyalash maqsadida 60 minglik armiyani tashkil etishdi. Urushning dastlabki bosqichida burlar inglizlarni mag'lubiyatga uchratishdi. Unga javoban inglizlar Janubiy Afrikaga eng zamonaviy qurol bilan qurollangan 200 minglik armiyani yuborib, respublikalarni bosib olishdi, ammo burlar qarshilikni davom ettirishdi. Endi ular partizan harakat or qali kurashni olib borishgan. Faqat o'z armiyani 450 mingga oshirib Buyuk Britaniya 1902 y. kelib bu qarshilikni bostirib, g'alaba qozonishdi. Bu urush ya'na bir marotaba qirqma qurolning afzalligini, piyodalar hujumini artilleriya bilan qo'llab-quvvatlash va piyodalar zanjir sochma saf tortgan ustunligini namoyon qildi. XXa. boshida imperialistik urushlardan biri Uzoq Sharqdagi Rossiya bilan Yaponiya o'rtasidagi urush bo'ldi. Bu urush 1904-1905 yillarda bo'lib o'tdi. Urushning asosiy sababi- podsho Rossiya va Yaponiya manfaatlarini Uzoq Sharqda to'qnashishi. 1898y. Rossiya Xitoy bilan shartnoma tuzib, unga ko'ra Lyaodun yarim oroli va unda joylashgan Port-Artur qal'asi ijaraga olindi. Port-Artur Tinch okeanda joylashgan G'arbiy-dengiz flotning bosh bazaga aylangan edi. Uzoq Sharqda Rossiyaning kuchayishini xohlamagan Yaponiya Angliya bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzib, uning yordamida kuchli harbiy-dengiz flotni barpo etib, urushga katta tayyorgalik ko'rdi. Rossiya esa katta armiyaga

ega bo'lsa ham (1mln. 100ming kishi), ammo yapon qo'shinlarini mensimagan holda, Uzoq Sharqda faqat 100 minglik armiyani ushab turgan. Urush 1904 y. 27 yanvar kuni boshlandi. Yapon floti to'satdan hujum boshlab, rus Tinch okeanidagi flotni tor-mor etib, Port-Artur qamalga olishdi. Endi asosiy jangovar harakatlar quruqlikda bo'lib o'tdi. Manchjuriyada bir nechta katta jang bo'lib o'tdi: Laoyan yonida (1904y. 11-21 avgustda), Shaxe daryoda (22sentabr- 4 oktabrda), Mukden jangi (1905y. 6-25 fevral). Urushning yakunida Susima orol yonida yapon va rus 2-Tinch okean eskadrasi o'rtasida katta dengiz jangi bo'lib o'tdi. Bu jangda rus floti halok bo'ladi, Rossiya urusda yutkazadi. 1905y. 5 sentabrda Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida Porsmut (AQSh) sulhi tuzildi. Unga ko'ra, Yaponiya Koreyani, Lyaodun yarim orolini, Jan. Saxalin yarim orolini, Kuril orollarini egallab oldi. Urushning asosiy saboqlari:

- Urushni olib borish uchun kuchli ittifoqchilarga ega bo'lishi kerak.
- Qo'shinlar moddiy-texnika, qurol-yaroq bilan yaxshi ta'minlangan bo'lish kerak.
- Urush paytida strategik tashabbusni qo'ldan yo'qotmasligi kerak.

XVIIIa. kelib O'rta Osiyoda uchta xonlik tashkil etildi- Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi. Ular o'rtasidagi o'zaro urushlar, feodal munosabatlarning saqlanishi, iqtisodiy, harbiy qoloqligi ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilgan. XIXa. o'rtalariga kelib O'rta Osiyoda podsho Rossiya va Buyuk Britaniya manfaatlarini to'qnashishgan edi. O'rta Osiyoni egallash maqsadida ular o'rtasida siyosiy, harbiy kurash boshlandi. Bu kurashda Rossiya yutib chiqdi. O'rta Osiyo podsho Rossiya tomondan bosib olinishi to'rtta davrga bo'lsa bo'ladi:

- Birinchi davri -1847y.-1864y.gacha
- Ikkinchi davri- 1865y.-1868y.
- Uchinchi davri - 1873-1879y.

- To'rtinchi davr- 1880y.-1885y.

1847y. rus qo'shinlari ikki tomondan O'rta Osiyo hududiga o'z hujumini boshlashgandi, bittasi Orenburg sh. tomondan, ikkinchisi- G'arb. Sibir tomondan.. 1847y. Sirdaryoning quyi oqimi bosib olinib, Raim(Aralsk) istexkomi barpo qilindi . 1853y. general Perovskiy boshchiligida rus qo'shinlari Oq- Machit qal'ani bosib olishdi. Uning o'rniga fort Perovskiy istexkomi tashkil etildi (hozirgi qizil-O'rda sh.). G'arbdan ham hujum boshlanib rus qo'shinlari Yettisuvni bosib olib, Kopal qal'asini tashkil etishdi. 1854y. Olma-Ota egallanib, uning yonida Verniy qal'asi barpo qilindi. 1862y. kuzda Pishpak va Tokmak shaharlari, 1863y. Suzok qal'asi egallandi.1864y. 4-iyun kuni general Chernyaev qo'shinlari-Avliyo-Ota sh., sentabrda- Chimkent sh., 12- iyun kuni polkovnik Vervovkin boshchiligidagi rus qo'shinlari Turkiston shahrini egallashdi. Chimkent qo'ldan ketgach, qo'qon xonligining eng yirik shahri Toshkentga yo'l ochildi. Qulay vaziyatdan foydalanib general Chernyaev 1864y. 27- sentabrda Toshkent tomonga yurishni boshlab, 4 oktabrda shaharga yetib keldi va darhol hujumni boshlab yubordi. Qo'qondan, Olimqul mingboshi boshchiligida, yetib kelgan yordam bosqinchilarni yengishga yordam berdi. General Chernyaev katta talofatlar berib, Chimkentga qaytib ketdi. Shu bilan urushning birinchi davri tugadi. 1865y. urushning ikkinchi davri boshlandi. General Chernyaev yuqoridan kelgan buyruqlarga amal qilmay, mustaqil ravishda Toshkentga yangi hujumni .9- may kuni rus qo'shinlari hujumni boshlab, qattiq qarshilikka uchrashdi. Olimqul boshchiligidagi qo'shin qarshi chiqib, ularning yo'lini to'sib qo'ydi. Og'ir janglar natijasida Olimqul halok bo'ldi, Toshkentdagi bosh o'qdori omborxonasi portlab ketdi, ruslar Niyozbosh kanalini yopib, shaharni suvsiz qoldirgandan so'ng shahar aholisi taslim bo'lishga majbur bo'ldi. 17- iyun kuni Toshkent general Chernyaev tomondan bosib olindi. Shu og'ir

ahvolda Buxoro amiri Muzaffar Qo'qonga qarshi urushni boshladi. Amir yo'l-yo'lakay Toshkent muammosini ham hal qilishi va uni o'ziga qo'shib olishi uchun rus qo'mondonligi oldiga shaharni topshirish talabini qo'ydi, shuningdek, Buxoroga yuborilgan rus elchilarini qamoqqa hukm qildi. Bu Buxoro amirligiga qarshi urush ochish uchun rus bosqinchilariga bahona bo'ldi. 1866y. may oyida Xo'jand yaqinidagi Irjar qishlog'i oldida rus qo'shinlari amir qo'shinlarini tor-mor etishdi. 1866y. boshlarida Jizzaxga hujum qilindi. Ammo jizzaxliklar ona shahrini qattiq himoya qildilar. Dushman orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Shu yilning 24- mayda Xo'jand, avgust oyida Chirchiq atrofidagi yerlar bosib olindi. Oktabr oyida bosqinchilar yana Jizzaxga yangidan hujum boshladilar va og'ir janglardan so'ng 18 oktabrda shahar bosib olindi. 1868y. 1 -mayda 8300 kishilik rus qo'shini (16 to'p bilan) Samarqand shahri yonidagi Cho'ponota tepaligida amir qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi va 2 mayda Samarqandga kirib bordi. Katta mag'lubiyatni to'xtatish va qasos olish uchun amir Muzaffar o'zining asosiy kuchlarini Zirabuloqda to'plab, zarba berishni rejalashtirdi. Bu yerda amir 15 ming otliq, 6 ming piyoda, 14 ta to'plarini yig'di. Og'ir jangda amir qo'shini mag'lubiyatga uchradi. Natijada amir Rossiya bilan sulh tuzishga majbur bo'ldi. 1868y. 23 -iyun kuni podsho Rossiya bilan Buxoro o'rtasida sulh tuzildi. Shu yili Qo'qon bilan ham yarashish bitimi va savdo shartnomasi imzolandi. Chorizm tomonidan Qo'qon va Buxoro hududlarining katta qismini bosib olishi Angliya hukmron doiralarini qattiq hayajonga soldi. Angliya va Rossiya o'rtasida O'rta Osiyo masalasi xususida muzokaralar boshlandi. Uning natijasida shartnoma tuzildi. Unga ko'ra Amudaryoning shimoliy qismida joylashgan yerlar Rossiya ta'sir doiraga kirib, janubiy qismida joylashgan yerlar esa, ya'ni Afg'oniston, Angliya ta'sir doiraga kirish kerak edi. Rossiya bilan Angliya o'rtasidagi munosabatlar izga tushganidan so'ng rus qo'shinlarining Xiva xonligiga hujumi

boshlashdi. Rossiya Qo'qon va Buxoroni o'ziga tobe qilgandan so'ng Xiva xonligi uning uchta harbiy okrugi- g'arbda Kavkaz, shimolda Orenburg, va sharqda Turkiston harbiy okruglari qurshovida qoldi. Xiva xonligini bosib olish uchun 12 mingdan ortiq soldat va zobitlar, 56ta to'p-zambaraklar ajratildi. Bosh qo'mondon etib Turkiston general-gubernatori fon Kaufman tayinlandi. Hujum uch yo'nalishdan olib borildi- Kavkaz, Orenburg va Toshkent tomondan. 1873y. 18 may kuni hujum boshlanib, 12 avgust kuni fon Kaufman Xiva xoni Muhammad Raximxon bilan uchrashib sulh tuzdi. Ammo 1879 yilgacha rus qo'shinlarga qarshi qarshilik harakati davom etdi. Uning asosiy kuchi turkman qabilalari edi. 1880y. rus qo'shinlari turkman qabilalar boshlagan qo'zg'olonni bostirish bilan band edi. Faqat 1885 yilga kelib bu qo'zg'olon bostirilib, O'rta Osiyo butunlay Rossiya mulkiga aylandi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'rta Osiyo xonliklari mag'lubiyatga uchrashishi tabiiy edi. Xalqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalardan mahrum bo'lib, bu davlatlar zaiflashib ketishgan. Bu esa ularning harbiy qudratiga salbiy ta'sir qilgan. Undan tashqari, dushman bostirgan paytida birlashish o'rniga mahalliy hukmdorlar o'zaro urushlarni davom etib, bosqinchilarga qulay imkoniyatlarni yaratib berishdi. Umuman olganda, yangi tarix urushlar tarixida muhim rol o'ynadi- yangi qurollar, texnika kashf qilindi, yangi taktika usullari ishlab chiqildi. Urushlarning tabiati o'zgardi, urushlarni olib borish maydonlari kengayib bordi, jahon urush boshlanishiga sabablar, imkoniyatlari paydo bo'ldi.

## 5 MAVZU: Birinchi jahon urush tarixi.

Reja:

1. Birinchi jahon urush arafasida xalqaro munosabatlar.
2. Birinchi jahon urushining boshlanishi, uning sabablari.
3. Birinchi jahon urushining asosiy davrlari, uning xususiyatlari.
4. Birinchi jahon urushning tugatilishi, uning sabablari.

XIXa. oxirida va XXa. boshida rivojlangan kapitalistik mamlakatlarning notekis rivojlanishi ular o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashiga olib keldi. Bu davrga kelib rivojlangan kapitalistik davlatlar dunyoni bo'lib olishgan edi. Jahon mustamlaka tizimi vujudga keldi. Endi yangi mustamlakalarga ega bo'lish uchun bo'lingan dunyoni yangidan bo'lish kerak edi. Shu maqsadga esa faqat kuch orqali erishish mumkin edi. Yangi jahon urush xavfi paydo bo'ldi. Bu urushga quyidagi ziddiyatlar olib keldi: Angliya, Fransiya bilan Germaniya o'rtasida, Rossiya bilan Avstro-Vengriya o'rtasida. Undan tashqari shu davlatlarning ichida iqtisodiy, ijtimoiy, ichki ziddiyatlari kuchayib ketgan. Tashqi va ichki ziddiyatlarni yechishning yagona yo'li urush edi.

Davlatlarning o'zaro ziddiyatlari Yevropada ikki harbiy-siyosiy guruh—Antanta (Angliya, Fransiya, Rossiya-1907y.) va Uchlar ittifoqi (Germaniya, Avstro-Vengriya, Italiya-1882y.) ni tashkil etishga olib keldi. Germaniyaning maqsadi- urush orqali Angliya va Fransiyaning tor-mor etib, o'z mustamlakalarini kengaytirish, Yevropada o'z siyosiy va iqtisodiy hukmronligini o'rnatish. Rossiyaning maqsadi - Bolqon yarimorolini o'z ta'sir doirasiga jalb qilib, Avstro-Vengriya ta'sirini yo'qotib, Usmoniylar imperiyasini tor-mor etib, Bosfor va Dardanell bo'g'ozlarni o'z g'yo'lga kiritib, Qora dengizda o'z hukmronligini o'rnatish. Angliyaning maqsadi - Germaniyaning tor-

mor etib, uni kuchsizlantirish, Usmoniyar imperiyasini bo'lib yuborish orqali dunyodagi o'z siyosiy va iqtisodiy hukmronligini kuchaytirish. Fransiyaning maqsadi - urushda g'alaba qozonib franko-pruss urushida yo'qotgan Elzas va Lotaringiya viloyatlarini qaytarib olish, germaniyaning Saar va reyn viloyatlarni bosib olib, Germaniyani zaiflashtirib, Evropada o'z mavqeini mustahkamlash. Avstro-Vengriya shu urush orqali Bolqonda o'z ta'sir doirasini kengaytirib, o'z mustamlakalarini kengaytirib, Yevropada o'z mavqeini kuchaytirmoqchi bo'lgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki:

1. Barcha davlatlar urush orqali dunyoda o'z mavqeini kuchaytirmoqchi edi.

2. Kelajak urushi har ikki tomon uchun bosqinchilik va adolatsiz urush edi.

Birinchi jahon urush arafasida har bir davlat o'z harbiy qudratini oshirishga harakat qilgan. Germaniyaning harbiy-dengiz floti XIX a. o. dunyoda 5 o'rinda turgan bo'lsa, 1914 y. kelib u ikkinchi o'rinda edi. Angliya ham dengizda o'z hukmronligini saqlab qolish uchun harbiy dengiz kuchlariga ketgan harajatlarni 2 baravar oshirdi. Barcha mamlakatlarda harbiy harajatlari oshirildi- Germaniyada 1914y. kelib, harbiy sohaga davlat byudjetning 50 % sarf qilindi, Angliyaning harbiy harajatlari 1905-1914y.y. 3 baravar oshdi, Fransiya, Yaponiyaning harajatlari 30% ga oshdi. Harbiy harajatlari o'sishi bilan harbiy sanoat rivojlana bordi. Yangi qurol-aslaha yaratildi: avtomatik qurollar ( pulemyot, avtomatik mitliqlar, minomyotlar), yangi harbiy texnika (tanklar, samolyotlar, avtomashinalar).

Germaniya urushga bo'lgan tayyorgalikni birinchi bo'lib yakunladi va shundan foydalanib urushni boshlashga tayyor edi. Urushni olib borish uchun Germaniya qurolli kuchlarining bosh shtabi Shliffen rejasiga tayangan (Shliffen -1891-1906y.y. da Bosh shtabning boshlig'i bo'lgan). Shliffen rejasi - yashin tezligidagi urush rejasi edi. Unga ko'ra, Germaniya urushning

boshida, Belgiyaning yaxshi himoya qilinmagan chegaralari orqali asosiy zarbani Fransiya qarshi qaratib, Rossiya o'z armiyasini hujumga o'tishga ulgurmasdanoq, Fransiyaning tor-mor etib, shundan so'ng o'z kuchlarini Sharqiy frontga ko'chirib, Rossiyani mag'lubiyatga uchratish rejalashtirilgan edi.

<b>Uchlar ittifoqi mamlakatlarning qurolli kuchlari (1914y.)</b>				
	Armiya soni (ming)	Engil artilleriya (soni)	Og'ir artilleriya (soni)	Samolyotlar (soni)
Germaniya	3822	4840	1688	232
Avstro-Vengriya	2300	3104	168	65
	<b>6122</b>	<b>7944</b>	<b>8156</b>	<b>279</b>
<b>Antanta mamlakatlarning qurolli kuchlari</b>				
	Armiya soni (ming)	Yengil artilleriya soni	Og'ir artilleriya soni	Samolyotlar soni
Rossiya	5338	6848	240	263
Velikobritaniya	1000	1226	126	90
Fransiya	3181	3360	84	156
	<b>10119</b>	<b>11434</b>	<b>450</b>	<b>509</b>

Strategik jihatdan bu rejani ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor edi. Ijobiy tomoni- raqiblari urushga tayyor bo'lishmagan, o'z armiyani safarbar qilishmagan. Shundan foydalanib Germaniya o'z asosiy kuchlarini bosh yo'nalishda to'plab, strategik tashabbusni o'z qo'lga olgan. Salbiy tomonlari- dushmanning iqtisodiy va harbiy potensialini hisobga olmagan, uzoq muddatli urushga Germaniya tayyor bo'lmagan. Urush arafasida Germaniya Fransiya qarshi 7 armiyani to'plagan edi. O'z maqsadiga

erishish uchun Germaniya urush boshlanishi bilan Belgiya orqali hujum boshlab Fransiyaning shimoliy chegarani yorib o'tib, fransuz armiyani qurshovga olib, 6 hafta ichida tor-mor etish kerak edi. Fransiya asosiy zarbani sharqiy va shimoliy -sharqiy yo'nalishda kutgan edi, shuning uchun shimoliy chegarada faqat 5 armiyani ushlab turgan edi. Uning rejasiga ko'ra (Reja -17), urush boshlanishi bilan fransuz armiyasi hujumga o'tib, Elzas-Lotaringiyani ozod qilinishi kerak edi. Rossiya o'z harbiy reja bo'yicha urushni ikki frontda olib borishni rejalashtirgan edi - shimoliy-g'arbiy (Germaniyaga qarshi) va janubiy-sharqiy yo'nalishda (Avstro-Vengriyaga qarshi). Angliya o'z rejaga ko'ra o'z manfaatini ko'zlab, Fransiya ekspeditsion qo'shinlari yuborib, fransuz qo'shinlari bilan birgalikda urush olib borish kerak edi. Urush boshlanishiga Avstro-Vengriya bilan Serbiya o'rtasidagi mojaro bahona bo'ldi. 1914 y. 28 iyun kuni Sarajevo shahrida "Mlada Bosna" milliy tashkilotining a'zosi Georgiy Prinsip tomondan Avstro-Vengriya taxtning vorisi ersgersog Frans Ferdinand o'ldirildi. Germaniya va Avstro-Vengriya ushbu qulay vaziyatdan foydalanmoqchi bo'lishdi. 23 iyulda Avstro-Vengriya ersgersog o'ldirishda asossiz Serbiyani ayblab, unga ultimatumni yuboradi. Unda uning ichki ishlariga aralashish imkoniyatini berishni talab qildi: Avstriyaga qarshi bo'lgan amaldorlar va ofitserlarni bo'shatishni, Avstro-Vengriya polisiyasi Serbiyada o'z tergovini olib borishni va aybdorlarni jazolash huquqiga ega bo'lishini. Bu talablarini Serbiya qisman qabul qilgan bo'lsa ham, 28 iyul kuni Avstro-Vengriya Serbiyaga urushni e'lon qildi. Avstro-Vengriya qo'shinlari Serbiya chegarasini buzib o'tib, uning artilleriyasi Belgradni o'qqa tutadi. Bolqon yarimorolda Avstro-Vengriyaning mavqeining kuchayishi Antanta davlatlarning manfaatiga to'g'ri kelmas edi. 1914 yil 29 iyul kuni Rossiya Germaniyaga murojaat qilib, muammoni tinch yo'l bilan hal qilishni taklif etadi, ammo Germaniya bu murojaatnomaga javob bermaydi. 31 iyulda Rossiya, Fransiya,

Avstro-Vengriya armiyaga safarbalikni e'lon qilishadi. Shundan foydalanib, 1 avgustda Germaniya Rossiyaga, 3 avgustda esa Fransiya urushni e'lon qildi. Germaniya umid qildiki, Angliya betaraf davlat bo'lib, urushga aralashmaydi. Ammo bu uning qo'pol xatosi edi.

Angliya qulay imkoniyatidan foydalanib, Germaniya 4 avgustda Belgiya chegarasidan o'tib, o'z hujumini boshlanishi bilan, 5 avgustda unga urushni e'lon qildi. Shu tarzda Yevropadagi ikki harbiy bloklar o'rtasida urush boshlandi. Unga yangi-yangi mamlakatlar qo'shilib, u jahon urushga aylandi. Uzoq Sharqda Germaniyaning mustamlakalarni tortib olib, Xitoyni o'ziga bo'yso'ndirish uchun Yaponiya Antanta tomonini oldi. Uchlar ittifoqiga Turkiya qo'shildi. Sekin -asta urushga dunyoning turli chekkalarida bo'lgan 36ta davlat (Avstraliya, Nov. Zelandiya, Kanada, Gresiya, Ruminiya, AQSh .Bolgariya va bosh.) tortdi. Urushga barcha davlatlardan jami 70 mln kishi safarbar etildi. O'z xarakter bo'yicha bu urush barcha davlatlar uchun adolatsiz, bosqinchilik imperialistik urush edi. Har bir urush ishtirokchi shu yo'l bilan o'z iqtisodiy va siyosiy manfaatini ko'zlagan. Bu urush davlatlar o'rtasida mavjud bo'lgan chuqur ziddiyatlarni yuzaga chiqardi.

Birinchi jahon urushi 1914-1918 y.y.da bo'lib o'tgan. O'z xarakter bo'yicha u notekis bo'lib o'tgan. Shuning uchun uni bir nechta bosqichga bo'lsa bo'ladi- 1914y.; 1915y.; 1916y.; 1917-1918y. jangovar harakatlari. Har bir bosqichda strategik rejari, qo'shinlarning taktikasi, jangovar harakatlarning xarakteri bir-biridan farq qilgan.

1914y. jangovar harakatlari o'z manyovrli xarakter bilan ajralib turadi.

17-18 -avgustga kelib barcha davlatlar o'z safarbarlikni tugatishdi. Germaniya harbiy frontda 7 armiyani to'pladi (1.6mln. kishi, 4500 yengil va 500 og'ir to'plar). Shu kuchlar bilan nemis qo'shinlari 4 -avgust kuni Belgiya chegarasidan o'tib, Belgiya

armiyani (175 ming kishi) uloqtirib tashlab, 20- avgust kuni Belgiya poytaxtini- Bryusselni egallab, ingliz-fransuz qo'shinlari bilan to'qnashishdi. 7- avgust kuni fransuz armiyasi o'z rejaga ko'ra Elzasga, 14- avgustda esa Lotaringiyaga bostirib kirishdi. Ammo shimoliy frontdagi mag'lubiyatlar fransuzlarni o'z qo'shinlarning bir qismini shimolga tashashga majbur qildi. Natijada Elzas va Lotaringiyada fransuzlar chekinishga majbur bo'lishdi. Fransuz 5 armiya(1.3mln.kishi) va yordamga kelgan ingliz korpusi ( 70ming kishi) shimoliy frontda dushmanning ustun kuchlarga bardosh bera olmay, chekinishga majbur bo'ldi. Nemis qo'shinlari o'z hujumini davom ettirib, 21-25 -avgustda shimoliy Fransiyaga yorib o'tishdi. Nemis qo'shinlari Parij tomonga yo'l olishdi. Ammo fransuz armiyani qurshovga olib, Parijni qamal qilishga nemis qo'shinlarda kuch yetmagan edi: qo'shinlar tinimsiz hujum olib borib, charchagan edi, qanotlarni himoya qilishga qo'shin yetmagan, zaxiralar qolmagan. Nemis qo'mondonligi frontni qisqartirib, asosiy kuchlarni to'plab, Parijni shimoldan o'tib, fransuz armiyaning orqasiga zarba bermoqchi bo'ldi. Ammo bu harakati bilan nemislar o'z o'ng qanotini ochiq qoldirishdi. Shundan foydalanib 1914 y. sentabrda fransuz qo'mondonligi nemis qo'shinlarning hujumini to'xtatish uchun Parij ostonasida Marna daryosida o'z qo'shinlarini yig'ib, hujumga o'tishdi. 5-6- sentabrda Marna daryosida katta jang boshlandi. Ikki tomondan unda sal kam 2 mln. kishi qatnashishdi (6ta fransuz va ingliz armiyasi va 5ta nemis armiyasi). 9 -sentabrda nemis qo'shinlarining hujumi to'xtatilib, 12 -sentabr kuni ular chekina boshlashdi. Marnadagi jang fransuzlar uchun katta ma'naviy ahamiyatga ega. Urushda fransuzlar birinchi g'alaba qozonishdi. Angliya o'z qo'shinlar soni yetmaganini tushunib, Fransiyaga yangi qo'shinlarni yuborishdi, ularning jangovar tayyorgaligiga ko'proq e'tibor qaratishdi. Germaniyaning bliskrig urush rejasi mag'lubiyatga uchradi. Harbiy front barqarorlashdi, u Parijdan boshlab Shimoliy

dengizgacha cho'zilgan edi. . Ammo hech qaysi tomon g'alaba qozona olmadi. Manyovrli urush pozision urushga aylandi, ya'ni okoplarni qazib, mudofaa inshootlar qurildi. Bu urushda muhandis qo'shinlarning roli oshib bordi. Mudofaa tizimi 2-3 okoplar liniyalardan iborat edi. Harbiy san'at oldida yangi vazifa turgan edi, ya'ni, qaysi yo'l bilan ushbu mudofaa tizimini yorib o'tish mumkin. Marna daryodagi nemis qo'shinlarining mag'lubiyati, "Shliffen reja"sining barbod bo'lishi "Marnadagi mo'jizasi" degan nom oldi. Bu mo'jizaning sababi Rossiyaning Sharqiy frontda boshlagan hujumi.

Rossiya 4 -avgustda, o'z safarbaklikni oxirgacha tugatmasdan, hujumga o'tgan edi. Maqsad, ittifoqchilarga yordam berib, ularni mag'lubiyatdan qutqarish. Rossiya o'z rejasiga ko'ra, Shimoliy-G'arbiy(2 armiya) va Janubiy-Sharqiy frontlarda (4 armiya) o'z hujumini boshladi. Shimoliy-G'arbiy frontda rus qo'shinlari Sharqiy Prussiyaga bostirib kirib , uning katta qismini egallab olishdi. Germaniya shoshilinch ravishda Sharqiy Prussiyaga Fransiyadan 2ta korpus va 1 diviziyani tashashga majbur bo'ldi. Ammo rus qo'mondonligi o'z g'alabasidan foydalana olmagan, qo'pol xatolar natijasida rus qo'shinlari har xil yo'nalishda hujumni olib borishgan edi. Shundan foydalanib, nemis qo'shinlari ular o'rtasiga zarba berib, 2- rus armiyasi qo'rshovga olinib , 1- rus armiyasi esa Sharqiy Prussiyadan siqib chiqarildi. Shimoliy-harbiy frontda rus qo'shinlari mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, Janubiy-harbiy frontda esa rus qo'shinlari, aksincha, muvafaqqiyatli hujum olib borishdi. Bu janglarda 5ta rus armiyasi avstriyaliklarning 4ta armiyaga qarshi kurash olib borishdi. Bu jang tarixda Galisiya jangi degan nom oldi. U 5- avgustdan 13-sentyabrgacha davom etdi. 450-500km. frontida rus qo'shinlari hujumga o'tib, Polsha va Galisiyani egallab olishdi. Shu janglar natijasida Avstro-Vengriya qo'shinlari 400 ming kishi, 400 to'plarni yo'qotishgan bo'lsa, rus armiyasi 230 ming kishini yo'qotishdi. Galisiya jangi natijasida Avstro-Vengriya

qo'shinlarning jangovar ruhi toshib, g'alabaga ishonch yo'qoldi, aksincha, rus qo'shinlarida jangovar ruh ko'tarildi.

O'z ittifoqchisiga yordam berish maqsadida Germaniya 15-sentabrda Varshava yo'nalishda yangi hujum boshladi. Ammo rus qo'shinlari kuchli qarshilik ko'rsatishdi. 7 oktabrda rus qo'shinlari qayta hujumga o'tishdi. 26 oktabrga kelib nemis qo'shinlari g'alabaga erishmasdan 100 km.ga chekinishga majbur bo'lishdi. Rus qo'shinlarning yangi hujumi Germaniyaning muhim sanoat markazlariga -Sileziya va Poznan, xavf soldi. Undan tashqari rus qo'shinlari yana Sharqiy Prussiyaga bosib kirishdi. Ammo shu muvafaqiyatni mustahkamlash uchun rus armiyada o'q-dori, oziq-ovqat, shaxsiy tarkib rezervlari yetmadi. Ularni to'xtatish uchun Germaniya G'arbiy frontdan yana 6 korpusni olib, Sharqiy frontga jo'natishga majbur bo'ldi. Rus qo'shinlari katta talofat ko'rib, o'z hujumini to'xtatishga majbur bo'lishdi, lekin ularni jangovar xatti-harakati Fransiyani mag'lubiyatdan saqlab qoldi.

1914y. Sharqiy frontda nemislar, G'arbiy frontga o'xshab, o'z maqsadiga erisha olmagan: rus armiyasi tor-mor etilmadi, aksincha, janubi-g'arbiy frontda rus armiyasi g'alaba qozonib, Galisiya va Bukovina hududlarini egallab oldi, rus askarlarning jangovar ruhi ko'tarildi. Avstro-Vengriyaning zaiflashib, Germaniya o'z ittifoqchisiga katta yordam ko'rsatishga majbur edi. Ammo bu G'arbiy frontda nemis qo'shinlarining jangovar kuchlarini susayishga olib kelgan. 1914y. Antanta davlatlar tomonida Yaponiya ham urushga kirishdi. 15- avgustda Yaponiya Germaniyadan o'z qo'shinlarini Xitoydan olib chiqishni talab qildi va rad javob olgandan so'ng Germaniyaga urushni e'lon qildi. Yaponiya olib borgan jangovar harakatlar asosan dengizda bo'lib o'tdi. Bularning natijasida Yaponiya Germaniyaga tegishli bo'lgan orollarni egallab oldi: Yangi Gvineya, Mikroneziya, Karolin orollari, Marshal orollari. Undan tashqari Yaponiya Germaniyadan ham siqib chiqardi. Yaponiyaning

Antanda tomonda qatnashishi Rossiyaga qo'l keldi: Uzoq Sharqda katta armiyani ushlab turib, o'z harbiy harajatlarini ko'paytirishga hojat qolmadi.

1914 yildagi jangovar harakatlarda Germaniyaning yashin tezligidagi(bliskrig) urush rejasi barbod bo'ldi. U ikkita frontga qarshi urushni olib borishga majbur bo'ldi. Ammo Antanta davlatlari ham g'alabaga erisha olmadi. Asosiy sabab- ularda urush olib borish yagona rejasi yo'q edi.

1915 yildagi jangovar harakatning xarakteri o'zgardi. Antanta davlatlari harbiy sanoatni yo'lga qo'yish uchun va strategik zaxiralarni tayyorlash maqsadida strategik mudofaaga o'tishdi. Rossiya, moddiy resurslar yetmagan bo'lsa ham, Shimoliy – G'arbiy frontda mudofaa jangni olib borib, Janubiy-G'arbiy frontda faol harakat qilishni rejalashtirgan edi. Germaniyaning rejasiga ko'ra, 1915yilda asosiy zarbani Rossiyaga qarshi qaratib, uni urushdan chiqarib, shundan so'ng harbiy frontda hujumni davom etish edi. 1915 y. fevral-oktabr oylarida Sharqiy frontda og'ir- qattiq janglar bo'lib o'tdi. Uning natijasida rus qo'shinlari Sharqiy Prussiyadan siqib chiqarildi. Nemis qo'shinlari butun Polshani va boltiq bo'yining bir qismini egallab olishdi. Ammo asosiy maqsadga- Rossiyani urushdan chiqarishga erishmadilar. Sharqiy frontda ham rus qo'shinlari strategik mudofaaga o'tishdi.

Urush davomida yangi-yangi qurollar kashf qilinib ishlatildi.Masalan, Germaniya 1915 yil 22 aprel kuni harbiy frontda Ipr shahar yonida urushlar tarixida birinchi marta yangi vaxshiyona qurolli -zaharlovchi gazni ishga soldi, Janubiy-G'arbiy frontda, Gorlisa shahri yonida yangi qurol- minomyot ishlatildi, aynan birinchi jahon urush paytida bombardimon va kiruvchi aviatsiya tashkil etildi. 1916yilda Antanta mamlakatlari o'z xatolarini hisobga olib, yagona reja asosida urushni davom ettirishni qaror qilishdi. Ishlab chiqilgan rejaga ko'ra rus armiyasi iyun oyida Shimoliy-G'arbiy va Janubiy-

G'arbiy frontlarda hujumni tashkil etib dushmanning asosiy kuchlarni o'ziga qaratish kerak edi, shundan foydalanib,Angliya va Fransiya 1 iyul kuni Somma daryoda nemis qo'shinlarining frontini yorib o'tib, butun G'arbiy frontida hujumni tashkil etish kerak edi. O'z navbatda, Germaniya 1916yilda Sharqiy frontda Rossiyani mudofaaga o'tishga majbur qilib, asosiy zarbani g'arbiy frontda , Fransiya qarshi qaratgan edi. Parijni qo'lga kiritish uchun Verden qal'asini qo'lga kiritish kerak edi. Shuning uchun nemis qo'shinlarining asosiy qismi Verden ostonasiga tashaldi. Verden ostonasidagi janglar 1916 yilning 21 fevraldan - 18 dekabrgacha davom etdi. Nemis qo'shinlari ustun edi. Verden ostonasida ular 1225 to'p, shulardan 666 og'ir va 27 juda og'ir to'potar edi. 152 minomyot, 168 samolyot to'plashdi. hammasi bo'lib bu janglarda salkam 2 mln. kishi qatnashgan. Jangning boshida nemis qo'shinlari misli ko'rilmagan artilleriya o'q otishgan. Ammo nemis piyodalar hujumga ko'tarilgan paytda fransuzlar ularni to'satdan to'pga tutdilar. Yarim yil davom etgan janglar natijasida nemis qo'shinlari maqsadga erisha olmadilar. Verden qal'asini qo'lga kirita olmadilar. Verden qirg'inida Germaniya -600ming kishi, Fransiya 350ming kishini yo'qotdi.

Rus qo'shinlarining 1916 -yil mart-iyul oylaridagi hujumlar natijasida nemis qo'shinlari g'arbiy frontda o'z hujumlarni susaytirishgandi. Sharqiy frontda rus qo'shinlari ikki yo'nalishda hujum tashkil etishgan edi- Shimoliy-G'arbiy va Janubiy-sharqiy frontlarda. Asosiy zarba Shimoliy-g'arbiy frontda tashkil etilgandi, ammo iyun oyida Janubiy-sharqiy front qo'shinlari,general A.A.Brusilov boshchiligida, katta artilleriya tayyorgalikdan keyin dushmanning g'oyat mustahkamlangan pozitsiyalarini yorib o'tishdi. Rus qo'shinlari 60-100 km.ga siljib borishdi. Avstro-Vengriya qo'shinlari 1,5 mln. kishini yo'qotishdi, 400 ming kishi asrga olindi, ruslar esa 500ming kishini yo'qotishdi. O'z ittifoqchisiga yordam berish maqsadida nemis qo'mondonligi g'arbiy frontdan sharqiy frontga

qo'shimcha diviziyalarni tashashga majbur bo'ldi. Shundan foydalangan fransuz va ingliz qo'shinlari 1 iyulda Somma daryo bo'yida katta hujumga o'tishdi. Bu yerdagi qonli janglar kuzning oxirigacha davom etdi. Aynan shu janglarda fransuz va ingliz qo'shinlari birinchi marta yangi qurolni- tanklarni ishlatishdi. Jiddiy muvaffaqiyatga ittifoqchilar erisha olishmadi, lekin nemislar Verden ostonadagi hujumni susaytirishga majbur bo'lishdi va dekabr oyiga kelib Verden ostonadagi nemis qo'shinlari mudofaaga o'tishga majbur bo'lishdi. Shu janglarda nemislarning talofati -538 ming kishi, fransuz va ingliz qo'shinlarining talofati 800 ming kishini tashkil etdi. 1916 yildagi harbiy kompaniyaning asosiy natijasi shu bo'ldiki, Antanta davlatlari strategik tashabbusni Germaniya qo'lidan tortib olishdi. Bu degani, birinchi jahon urushda tub burilish boshlandi. Germaniyaning iqtisodiy ahvol og'irlashdi, aholi ichida urushdan norozilik kuchaygan edi.

Shunga qaramasdan Germaniya yana katta kuchga ega edi. 1917 -yilga kelib nemis qo'shinlari Belgiya, Fransiyaning bir qismi, Polsha va Boltiq bo'yi hududlarni egallab turgan edi.

1917y. 6-aprel kuni Antanta davlatlarga AQSh ham qo'shildi.Germaniya strategik mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. Ittifoqchilar hujumlarni kuchaytirib 1917 yilda urushni tugatishmoqchi edi. Ammo barcha mamlakatlar xalqlari urushdan charchab, uni tugatishni talab qilishgan, sinfiy kurash ortib bordi. Iqtisodiy va ijtimoiy og'ir ahvolga tushgan Rossiyada siyosiy inqiroz kuchayib, 1917 y. fevral oyida burjua-demokratik inqilob g'alaba qozondi. Mamlakatda ikki hokimiyatchilik ro'y berdi-rasmiy hokimiyat bo'lgan. Muvaqqat hukumati va norasmiy hokimiyat bo'lgan ishchi, soldat va dehqonlar deputatlarning Sovetlari. Ittifoqchilar oldida olgan majburiyatni bajarish va o'z mavqeini mustahkamlash uchun, yaxshi tayyorgalik ko'rmasdan, Muvaqqat hukumati 1917 y. 1 iyul kuni Shimoliy-G'arbiy frontda hujum boshladi. Dastlabki bosqichda hujum muvaffaqiyatli



boshlangan edi. Ammo Germaniya Sharqiy frontga qo'shimcha 15 diviziyalarni tashab, 15 iyul kuni qayta hujumga o'tib, Riga shahrni qo'lg'a kiritishdi. Rus armiyasi chekinishga majbur bo'ldi. Frontdagi mag'lubiyatlar, katta talofatlar Rossiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yanada og'irlashtirdi. 1917y. 25 oktabr kuni Rossiyada bolshiviklar boshchiligida davlat to'ntarishi natijasida Sovetlar hokimiyati o'rnatildi.

Mamlakatdagi og'ir ahvolni hisobga olib va o'z hokimiyatini saqlab qolish uchun bolshiviklar hukumati Germaniya bilan separat muzokaralarni olib borib, 1918 y. 3-mart kuni Brest-Litovsk shahrida Sovet Rossiya bilan Germaniya o'rtasida separat sulhi tuzildi. Rossiya urushdan chiqib ketdi. Rossiyadagi voqealar Angliya, Fransiya va AQShni og'ir ahvolga olib keldi. Ammo shunga qaramasdan ittifoqchilar 1917y. 55 jangovar harakatlarni davom ettirishdi. 8 avgustda ittifoqchilar qo'shinlari fransuz marshali Fosh boshchiligida hujumga o'tishdi. Ular nemis frontini yorib o'tib, 16 nemis diviziyani tor-mor qilishdi. Germaniya qarshilik ko'rsatish imkoniyatlarga ega bo'lmagan. Mamlakatning ichida inqilobiy harakat kuchayib bordi, armiya urushni davom ettirishni xohlamagan, uning ittifoqchilari (Bolgariya, Turkiya) birin- ketin taslim bo'ldi. 1918 yil 3- noyabrda Avstro-Vengriya Antanta talab qilgan yarashish bitimini imzoladi. 9 noyabrda Germaniyada inqilob boshlanib, monarxiya ag'darildi. 1918 yil 11- noyabr kuni Foshning shtab-vagonida Germaniya bilan ittifoqchilar o'rtasida yarashish to'g'risidagi bitim imzolandi. Birinchi jahon urushi tugadi. Birinchi jahon urush natijasida 10 mln. kishi halok bo'ldi, 20 mln. kishi yarador, nogiron bo'lib uyga qaytishdi. Jahon iqtisodiyoti og'ir ahvolda edi. Urush natijasida xalqaro maydonda siyosiy kuchlar nisbati o'zgardi - Germaniya urushni yutqazib, Yevropada o'z mavqeini yo'qotdi, Angliya va Fransiya urushdan g'olib bo'lib chiqishgan bo'lsa ham, ularning iqtisodiy ahvoli yomon edi. AQSh esa urush orqali yanada boyib ketdi. Avstro-

Vengriya inqirozga uchrab yemirilib, parchalanib ketdi, uning o'rniga yangi davlatlar tashkil topdi- Yugoslaviya, Avstriya, Chexoslovakiya, Vengriya. Urush mavjud bo'lgan ziddiyatlarni hal qilish o'rniga aksincha yangi ziddiyatlarni hosil qildi. Masalan, AQSh bilan Angliya, Sovet Rossiya bilan kapitalistik davlatlar, Germaniya bilan Angliya va Fransiya o'rtasida.

Birinchi jahon urushi iqtisod bilan texnikaning rolini namoyon qildi. Antantaning Germaniya ustidan g'alabasi faqat harbiy g'alaba bo'lmasdan balki iqtisodiy g'alaba edi. Harbiy san'at yanada rivojlandi. Urush davomida harbiy texnika (tank, aviasiya, suv osti kemalar) rivoj topdi.

Savollar va vazifalar.

1. Birinchi jahon urushining sabablari?
2. Germaniyaning "bliskrig" rejasi, uning mohiyati?
3. Birinchi jahon urushining asosiy davrlari, uning xususiyatlari?
4. Birinchi jahon urushning natijalari?.

## **6 MAVZU: Ikkinchi jahon urush arafasida jahon harbiy nazariyani rivojlanishi.**

Reja:

1. XXa. 20-30 yillarda dunyodagi harbiy-siyosiy ahvol.
2. Sobiq, SSSRda qurolli kuchlar va harbiy san'atning rivojlanishi.
3. 20-30- y. g'arb davlatlarining Kurolli kuchlarning ahvoli.
4. 20-30 y. dunyodagi lokal urushlari.

Birinchi jahon urushiga yakun yasash uchun 1919 y. yanvar-iyun oylarida Parij (Versal) konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda turli masalalar: asosiy masalasi-Germaniya va uning ittifoqchilari bilan

sulh shartnomasini tuzish edi. Konferensiya ishida 27 davlat vakillari ishtirok etgan bo'lsa, ammo asosiy masalalarni Angliya, Fransiya, AQSh, Italiya va Yaponiya vakillari hal qilishar edi. Sovet Rossiya vakillari konferensiyaga taklif etilmadi, chunki 1917 y. oktabr oyida bu yerda davlat to'ntarish natijasida Sovetlar hokimiyati o'rnatildi. Yangi hokimiyat g'arb davlatlar tomonidan tan olinmagan edi. Aksincha, Sovetlar hokimiyatini yo'qotish siyosati ishlab chiqilgan edi. Buning uchun konferensiyada "rus masalasi" muhokama qilindi, ya'ni Sovet hokimiyatini ag'darish masalasi. 1919-1920 yillarda Sovet Rossiyaga qarshi g'arb mamlakatlari bir necha marta harbiy hujum uyushtirishdi, ammo kutilgan natijaga erisha olmadilar.

Asosiy shartnoma- Germaniya bilan Versal sulhi- 1919y. 28 iyun kuni imzolandi. Shartnomaga ko'ra :

1. Germaniya barcha mustamlakalardan mahrum bo'ldi.
  2. Fransiyaga chegaradosh bo'lgan Reyn viloyati demilitarizatsiyalangan zonaga aylandi, ya'ni, bu viloyatdan Germaniya o'z qo'shinlarni olib chiqish majbur edi.
  3. 1870 y. franko-prussiya urushda Fransiyadan tortib olingan Elzas va Lotaringiya viloyatlar Fransiyaga qaytarilib berildi.
  4. Germaniya armiyasi 100 mingdan oshmasligi kerak edi.
  5. Avstriya bilan birlashish man etildi.
  6. Zamonaviy qurolli kuchlar (tank, harbiy aviasiya, suv osti kemalar)ni tashkil etish man etildi.
  7. Urush boshlanishning sababchisi Germaniya deb e'lon qilinib, u g'olib bo'lgan davlatlariga katta tovon to'lash kerak edi.
- Versal shartnomasining shartlari og'ir bo'lib, nemis xalqining ahvolini og'irlashartirdi. Shunga o'xshagan shartnomalar Germaniya ittifoqchilari bo'lgan -Avstriya, Turkiya, Bolgariya va Vengriya mamlakatlari bilan tuzildi. Yer yuzida tinchlik saqlash, yangi urushning oldini olish uchun xalqaro tashkilot-Millatlar Ligasi tashkil etildi. Tajovuzkor siyosatni olib borgan

mamlakatga qarshi bu tashkilot chora(sanksiya) ko'rish huquqiga ega edi. Hayotda bu tashkilot katta kuchga ega bo'lmasdan, yangi jahon urushini to'xtata olmadi.

Konferensiya mamlakatlar o'rtasidagi mojarolarni, nizolarni hal qilish kerak edi, ammo birinchi kundan boshlab uning ishida yirik davlatlar o'rtasida nizolar mavjudligi ayon bo'ldi. Birinchi navbatda bu Angliya, AQSh va Fransiya o'rtasidagi nizolar. Fransiya Germaniyani zaiflashtirish maqsadida undan katta tovon olishni talab qilgan bo'lsa, Angliya va AQSh aksincha, Germaniyadan foydalanib SSSRni yoq'otmoqchi bo'lib, tovon miqdorini kamaytirishmoqchi edi. Urush natijasida katta boyliklarga ega bo'lgan AQSh dunyoda o'z mavqeini kuchaytirishga, hukmronlik o'rnatishga harakat qildi. Angliya va Fransiya bunga qarshilik ko'rsatishdi. O'z ta'sirini Versal konferensiyada AQSh o'tkazolmagani uchun Millatlar Ligasiga a'zo bo'lishidan va Versal shartnomalarni imzolashdan bosh tortdi. Jahon maydonida o'z mavqeini mustahkamlash uchun AQSh 1921-1922y. dunyoda qurolsizlantirish masala bo'yicha Vashingtonda yangi xalqaro konferensiyani tashkil etdi. Qurolsizlantirishni bahona qilib, AQSh o'z harbiy qudratini kuchaytirmoqchi edi. Angliya, Fransiya, Italiya va Yaponiya bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra, ularning harbiy-dengiz kuchlari kamaytirilgan edi. Endi AQSh va Angliyaning harbiy-dengiz kuchlari teng bo'lib, Yaponiyaning g'arbiy-dengiz kuchlari uchinchi o'ringa, Fransiya va Italiya esa to'rtinchi o'ringa chiqishdi. 1904y. imzolangan anglo-yapon shartnomasi bekor qilindi. Bu bilan AQSh Tinch okeanda o'z mavqeini kuchaytirgan edi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Versal va Vashington shartnomalari yangi xalqaro munosabatlar tizimini tashkil etib, mamlakatlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish o'rniga, aksincha, ularni kuchayishiga olib keldi. Bu esa yangi jahon urushni boshlanishiga imkoniyat yaratgan edi.

XXa. 20-30 yillardagi harbiy-siyosiy vaziyat dunyo ikki

siyosiy tizimga bo'lib ketishi bilan belgilandi, ya'ni sotsializm va kapitalizm. Sovet mamlakatining tashkil topishi(SSSR) g'arb davlatlarini sarosimaga tushirib, ular sotsialistik davlatni yo'q qilish siyosatni yurgizishgan. 1919-1920 yillarda g'arb mamlakatlari qurolli yo'l bilan yosh sovet davlatini yo'q qilishmoqchi edi. Ammo bu siyosat natija bermadi, aksincha, Qizil armiya bostirib kirgan bosqinchilarni tor-mor etib, ularni chekinishga majbur qildi. Fuqarolik urushidagi bolsheviklarning g'alabasi, SSSRning tashkil topishi(1922y.) Sovet mamlakatining qurolli kuchlarini mustahkamlashiga asos bo'ldi. Birinchi va fuqarolik urush tajribasini inobatga olib Sovet hokimiyati yangi mustahkam qurolli kuchlarini tashkil etishga kirishgan edi. 20-30 y.y. Sovet qurolli kuchlar ikki qismga bo'lingan edi: hududiy va kadrli qo'shinlarga. Kadrli qo'shinlar, asosan, chegaradosh okruglarda va harbiy-dengiz Flotida mavjud edi. Ichki okruglarda esa, asosan, hududiy qo'shinlardan iborat edi, ya'ni bu qismlarda komandirlar, ma'muriy-xo'jalik tibbiyot tarkibi doimiy bo'lib, askarlar tarkibi o'zgartirib turar edi. 5 yil davomida askarlar sborlarga chaqirilib harbiy hizmatini o'zlashtirishar edi. Hududiy qismlarni tashkil etilishi sovet mamlakatining keyingi iqtisodiy ahvolidan kelib chiqar edi. 1920 yillarda hududiy qismlar soni ko'payib borar edi. Masalan, 1923y. ular barcha diviziyalarning 17,2% tashkil etgan bo'lsa, 1930 i. esa ular 58% tashkil etgan.

Sovet armiyaning tarkibida milliy qismlar ham tashkil etilgan. 1925y. ular Sovet armiyaning 10% tashkil etgan. Qurolli kuchlarning aralash tarkibi o'zini oqlagan edi, davlat harajatlarini tejab, harbiy zaxirani tayyorlab berishga imkoniyat berdi. Sovet armiyasi quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy-dengiz va harbiy- havo kuchlardan iborat edi.

Quruqlikdagi qo'shinlar-piyoda, kavaleriya, tank, artilleriya va PVO qismlardan iborat edi. Harbiy-dengiz kuchlar-4 flotidan va 5 flotiliyalardan iborat edi. Ularning tarkibida 556 kema, jumladan 3 linkor,

7 kreyser, 59 esmines, 269 torpeda katarlar, 218 suv osti kemalar va 2581 samolyot bor edi. Tarixdan bilamizki, 30 -yillarda SSSRda sanoatlashtirish siyosati amalga oshirildi. Bu qurolli kuchlarni mustahkamlashiga, ularni zamonaviy kuchli qurollar bilan ta'minlashga imkoniyat berdi. 1928 -yilga qadar askarlarning asosiy quroli 1891y. yaratilgan miltiq bo'lgan bo'lsa, 30 -yillarda qurolli kuchlar Degtyaryov V.A., Shpagin G.S., Tokarev F.V. tomondan yaratilgan avtomatik qurol bilan ta'minlana boshlagan. 1939yilda SSSRda yangi T-34, o'rta tank, KV-og'ir tanklar ishlab chiqarishni boshlashgan edi. 1941-yilga kelib harbiy- havo kuchlar yangi samolyotlar- Yak-1, LaGG-3, Pe-2, Il-2 bilan ta'minlana boshlangan edi. Tank qo'shinlari rivojlanib, ularning tarkibi o'zgarar boshlagan, katta tank uyushmalar tashkil etilgan. 1930 -yilda birinchi mexanizatsiyalashgan brigada, 1932 yilda-mexanizatsiyalashgan korpus tashkil etildi. 1936- yilda harbiy-desant brigadalar va korpuslar tashkil etildi. Shu yili okrug manyovrlarda tarixda birinchi marta havodan desant tashaldi. 1940- yilga SSSR iqtisodiyoti rivojlanib, hududiy qismlar kadrli qismlarga aylantirildi. Hammasi bo'lib, ikkinchi jahon urush boshlanishiga qadar sovet armiyasi 303 o'qchi, tank, motorlashtirilgan va kavaleriya diviziyalardan iborat edi, ya'na 81 diviziya tuzila boshlandi. Shtat bo'yicha o'qchi diviziya 14 483 kishidan, 78 dala to'plardan, 54 tankga qarshi 45-mm li to'plar, 12 zenit to'plar, 82-mm.li va 120-mm. li 66ta minomyot, 16 yengil tank, 13 BTRdan iborat bo'lish kerak edi.Ammo 1941- yil 1- iyunga qadar 170 diviziya va 2 brigadadan birorta ham to'la ravishda qurollantirilmagan edi.

Kelajak urushi motorlar urushi bo'lishini hisobga olib, tank qo'shinlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Yirik tank uyushmalar tashkil etildi, masalan tank brigadalar, korpuslar va diviziyalar. Tank diviziyasi 2ta tank, moto-o'qchi, artilleriya polkdan va xizmat ko'rsatadigan qismlardan iborat edi.

Mexanizatsiyalashgan korpusda 1000 tank bo'lish kerak edi. Ammo, afsuski, urush boshlanishga qadar tank diviziya va korpuslar to'la qurollantirilmagan edi. Ular asosan eskirgan tanklar bilan - BT-5, BT-7, T-26 turlari bilan ta'minlangan edi.

Sovet qo'shinlari kuchli qo'shin artilleriyaga ega edi. 1941yilga kelib harbiy-havo kuchlar ham kuchaydi. Aviatsiya polklarning soni 1939 yilga nisbatan 80% ga ko'paydi. Ammo ular ham, asosan, eskirgan modellar bilan ta'minlangan edi.

Sovet strategiyasi kelajak urushi uzoq vaqt davom etadi taxminidan kelib chiqib, yirik strategik zaxiralarni tayyorlashni, kurashning yangi usullarini ishlab chiqishga e'tibor qaratdi. Urushning asosiy maqsadi- dushmanni yakson qilish edi. Bunga erishish uchun asosiy usul -strategik hujum deb tan olingan edi. Strategik hujumda qo'shinlarning barcha turlaridan foydalanib, bir vaqtda yoki birin- ketin o'tkazilgan front operatsiyalar shaklida o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. Hujumda asosiy rol ni quruqlikdagi qo'shinlar o'ynab, harbiy-havo va harbiy-dengiz kuchlari ularga yordam ko'rsatish lozim edi. Shu bilan birga, hujumga tayyorgalik olib borishda mudofaaning roli ham hisobga olingan.

Sovet harbiy ilm-fanining yutuqlaridan biri- chuqur operatsiyani o'tqazish nazariyasi. Uning mohiyati shundaki, dushmanning mudofaani bir vaqtda yorib o'tish uchun barcha qo'shin turlaridan foydalanish. Shu bilan ikkita vazifa bajarilar edi: birinchi, piyodachilar, artilleriya, tank, aviasiyaning kuchlari birgalikda bir vaqtda zarba ko'rsatib, dushmanning mudofaani yorish, ikkinchidan, tank, desant va aviatsiya harakatini kuchaytirib taktika muvaffaqiyatini mustahkamlash. Bu rejani amalga oshirish uchun kuchlar ustunligini zarbaning asosiy yo'nalishida ta'minlab, hujum qiladigan qo'shinlarni bir necha qatorga saf tortib, ulardan hujum qilish, hujumni davom ettirish va zaxira qo'shinlariga bo'lish. Aviatsiyaning asosiy vazifasi-

havo razvedkani tashkil etish, havoda o'z hukmronligini o'rnatib, o'z qo'shinlarini himoya qilish, dushmanning zaxiralari bilan kurashish, mudofaani yorib o'tgan o'z qo'shinlariga havodan madad berish, havo -desant xavfsizligini ta'minlash va yorib o'tgan qo'shinlarni kerakli narsalar bilan ta'minlash.

Tank qo'shinlarning vazifasi- piyoda qismlardan oldin hujumga o'tib, dushman mudofaani yorib o'tish va muvaffaqiyatni kuchaytirib, hujumni davom ettirish.

Chuqur operatsiya nazariyasi Kiev harbiy okrugi(1935y.), Belorussiya, Moskva, Odessa(1936) harbiy okruglar manyovrlarda, va 1939 yilda Hasan quli, Xalxin-Gol daryodagi janglarda sinovdan o'tkazildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sovet harbiy san'ati yuqori darajada edi. Ammo 30- yillardagi kuchayib ketgan mustabid tuzum, Stalin shaxsiga sig'inish tizimi orqali og'ir oqibatlariga olib keldi. 1937-1938 yillardagi qatag'onlar natijasida 40 ming yuqori unvondagi komandirlar, 5ta marshallardan 3 tasi (Tuxachevskiy M.N., Blyuxer V.K., Yegorov Ye.I.) qatag'on qilindi. Sovet armiyasi eng yaxshi, malakali kadrlardan mahrum bo'ldi. Ikkinchi jahon urush boshlanishga qadar komandirlarning faqat 7% oliy ma'lumotli edi. 37% esa o'rta harbiy o'quv yurtlarini ham tugatmagan edi. Xalqaro siyosiy ahvolga kelsak, 20-30 yillar 1929- 1932y.dagi jahon iqtisodiy inqiroz bilan belgilanadi. Inqiroz natijasida barcha g'arb mamlakatlar juda og'ir ahvolda edi: ishsizlik kuchaydi, ishlab chiqarish pasaydi, inflyatsiya oshib ketdi, xalqning ahvoli qiyinlashib, noroziligi kuchayib bordi. Shu ahvoldan chiqishda g'arb davlatlari militarizatsiya yo'lini tanlashdi. Militarizatsiya(militar-harbiy) siyosati harbiy sohani rivojlantirib, urush orqali o'z ahvolini yaxshilashga qaratilgan siyosatdir. Bu esa harbiy san'atni rivojlantirishni talab qiladi. Versal sulhining natijasida Germaniya juda og'ir ahvolda bo'lib, jahon iqtisodiy inqirozi bu ahvolni yanada qiyinlashtirdi. Shu vaziyatda revansh olish

shiori ostida siyosiy maydonga chiqqan natsional-sotsialistik partiya(fashistlar) A.Gitler boshchiligida 1932y. parlament saylovida yutib chiqib, 1933- yildan boshlab hokimiyatni qo'lga kiritib, militarizasiya siyosatini olib borishdi. Mamlakatda qudratli harbiy-iqtisodiy baza yaratildi.1939 y. sentabr oyiga kelib Germaniya 2 750 ming kishilik, 1941y. kelib uning armiyasi 8mln.500ming kishiga yetgan edi. Zamonaviy qurolni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratib, 10 ming to'p, 3200 tank, 4000 oshiq samolyotlar,112 harbiy kemalar, shu jumladan 59 suv osti kemaga ega bo'lgan armiyani tashkil etildi. Germaniyaning harbiy qudratini oshib borishga asosiy sabablardan biri – g'arb davlatlari(Angliya va Fransiya ) olib borgan " tinchlashtirish" siyosati edi. Ularning roziligi bilan Germaniya 1935 yildan boshlab, Versal sulhining asosiy talablarini buzishni boshladi: harbiy majburiyat tiklandi, qurol poygasi boshlandi, harbiy-dengiz floti, tank qo'shinlari harbiy aviasiyasi tiklandi. 1936 y. Reyn zonasi nemis qo'shinlar tomondan egallandi. 1938y. u Avstriyani o'ziga qo'shib oldi. 1938y.sentabr oyida Angliya va Fransiya hukumatlari til biriktirib, Myunxen shahrida bo'lib o'tgan konferensiyasida Gitlarning talabiga yon bosib, Chexoslovakiyaga qarashli Sudet viloyatini Germaniyaga topshirishga o'z roziliklarini bildirishgan edi.

Germaniya armiyasining asosini quruqlikdagi armiya tashkil etgan-piyoda qismlar, tanklar va artilleriya, harbiy aviatsiya ( Yu-87, Yu-88, Me-109, Fokke-vulf) Angliya va Fransiya aviatsiyadan ustun turgan edi . Germaniyaning strategiyasi "total urush" nazariyaga tayangan edi, ya'ni urushda g'alaba qozonish uchun Germaniya barcha imkoniyatlarini, iqtisodiy, kishili, harbiy, urushga safarbar qilish kerak edi. Shu strategiyadan " bliskrig" strategiyasi kelib chiqqan, ya'ni o'z kuchlarini birinchi bo'lib, safarbar etib, Germaniya qisqa vaqt ichida birin- ketin dushmanlarni tor-mor etib, g'alaba qozonish kerak edi. Shuni tan olish kerakki, nemis askarlari juda yaxshi

tayyorlangan edi. Harbiy tajribaga, kuchli intizomga, malakali komandirlarga ega edi. G'arb davlatlari ichida bu eng kuchli armiya bo'lgan.

Fransiya birinchi jahon urushida g'olib bo'lib chiqqan bo'lsa ham, ammo urushdan keyin uning iqtisodiy va harbiy qudrati pasayib borgan.O'zini yangi nemis hujumidan saqlab olish uchun u o'z sharqiy chegarani mustahkamlashga harakat qilgan. 1927- yildan boshlab. Germaniya bilan chegarasida, Majino mudofaa inshootlarining qurilishini boshladi. Bu qurilish 1939- yilgacha davom etgan. U Shvetsariya chegarasidan boshlab, Lyuksemburggacha davom etdi. Fransiyanig qurolli kuchlar quruqlikdagi armiya, aviatsiya va harbiy-dengiz flotidan iborat edi. Ammo o'z sifat jihatdan uning qurollari Germaniyaga nisbatan past edi.

Birinchi jahon urushidan so'ng Yevropada asosiy rolni Angliya o'ynagan. Ko'p mustamlakalarga ega bo'lgan Angliya o'z harbiy strategiyasida harbiy-dengiz flotini rivojlanishiga asosiy e'tibor qaratgan edi. Uning harbiy siyosati asosida "bilvosita harakatlar" strategiyasi yotgan edi. Unga ko'ra, kelajak urushida u bevosita qatnashmasdan, balki o'z dushmaniga iqtisodiy va siyosiy ta'sir qilib, ikkilamchi jang maydonlarida ishtirok etishi kerak edi. Germaniyaning harbiy aviatsiyasining kuchayishi Angliyaning dengiz yo'llariga xavf tug'dirish mumkin edi. Shuning uchun 1935- yildan boshlab, Angliya aviatsiyaning kuchayishiga ham katta e'tibor qaratdi. 1938 -yilga kelib Angliya 4275 samolyotga ega bo'ldi. Angliya turli samolyotlarga ega edi, ammo ularning asosiy qismi eskirgan edi. Havo hujumlaridan o'zini himoyalash uchun Angliya havo hujumga qarshi mudofaani mustahkamladi. Radiolokatsion stansiyalar birinchi bo'lib, Angliyada kashf qilingan edi. Eng kuchli qo'shin harbiy -dengiz floti edi. Angliya o'z harbiy-dengiz floti bilan faxrlangan edi. Uning tarkibida 435 kema, shu jumladan, 58 suv osti kema. Ammo uning quruqlik qo'shinlari juda zaif edi va ular eskirgan

qurol bilan ta'minlangan edi. Shu bilan birga, kuchli iqtisodiy bazasiga ega bo'lib Angliya o'z qurolli kuchlarini qisqa vaqt ichida safarbar etib, urushga tayyorlash mumkin edi. Urush arafasida iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlat AQSh edi. U kuchli harbiy-dengiz flotiga, harbiy-havo kuchlariga va kam sonli quruqlikdagi armiyaga ega edi. AQShning harbiy siyosati "izolyatsiya" strategiyasidan kelib chiqqan. Uning ma'nosi - Yevropa ichidagi mojarolarga aralashmaslik, harbiy mojaralarda ishtirok etgan tomonlarga qurol sotmaslik. Uning asosiy yo'nalishi- o'z harbiy-dengiz kuchlarini kuchaytirish edi. Katta hududlarni nazorat ostiga olish uchun AQSh o'ziga qarashli orollarda harbiy-dengiz bazalarni yaratdi-1939y. Gavay orollarda-Pirl-Xarbor bazasi, Alyaskada, Aleut orollarda, Panama kanal zonada. 1939- yilga kelib, uning floti 347 kema, shu jumladan, 92 suv osti kemadan iborat edi. Aviasiya ham tez rivojlanib borgan. U ikki qismga bo'lingan edi: quruqlikdagi ( 2500) va dengiz aviasiyasi ( 2200)ga. Uzoq Sharqda eng kuchli davlat Yaponiya edi. Orolida joylashgan Yaponiya yangi mustamlakalarni qo'lga kiritish uchun asosiy e'tibor harbiy-dengiz floti va harbiy-havo aviasiyani kuchaytirishga qaratgan edi. 1931-1933y. u Xitoyning shimoli-sharqiy hududini bosib olib, Manchjuriya-go, ko'g'irchoq davlatini tashkil qildi. 1936y. o'z mavqeini kuchaytirish maqsadida Yaponiya, Germaniya va Italiya o'rtasida SSSRga qarshi qaratilgan ittifoq to'g'risidagi shartnoma imzolandi. 1937y. Yaponiya Xitoyga qarshi yangi urushni boshlab yubordi va 1939yilga kelib, uning butun sharqiy qismini egallab oldi. O'z kuchiga ishongan Yaponiya 1938y.da Uzoq Sharqda sovet chegarasini buzib, Hasan ko'lida sovet qo'shinlarining hujumi natijasida mag'lubiyatga uchradi. Bu mag'lubiyat Uzoq Sharqda SSSRga qarshi qaratilgan yapon militaristlarning bosqinchilik rejalariga jiddiy zarba bo'ldi. "Aralashmaslik" va "betaraflik" siyosatlar fashist davlatlarning (Germaniya, Italiya, Yaponiya) o'z harbiy qudratini kuchaytirishga yordam berdi. 1936-1937y.y. ular

birlashib, yangi harbiy-siyosiy ittifoq tuzishdi: Berlin-Rim-Tokio. O'z harbiy qudratiga tayanib, ular o'z tajavuzkor siyosatini amalga oshira boshlashdi. 1936-1939y.y. Germaniya va Italiya Ispaniyadagi fuqarolik urushga aralashib, bu davlatda fashist hokimiyatini o'rnatishga yordam berishdi, 1935-1936 y.y.

Italiya Efiopiya( Abissiniya)ni, 1939y.da - Albaniyani bosib oldi, Germaniya 1939y.da - butun Chexoslovakiyani o'ziga qo'shib oldi. Angliya va Fransiya o'z manfaatlarini o'ylab va o'zlarini urush xavfidan qutqarish uchun Germaniyaga nisbatan yon bosish siyosatini olib borishgan. Uning maqsadi Germaniya hujumini Sharqda, SSSRga qarshi, qaratish edi.

1939y. yoz oylarida (iyul-avgust) Yaponiya Xalxin-gol daryo yonida Mo'g'ulistonga qarshi hujumni boshlab, SSSRga hujum qilish uchun plasdarm vujudga keltirishga urindi. Mo'gulistonning ittifoqchisi bo'lgan SSSR o'z qo'shniga harbiy yordam ko'rsatdi. Yapon qo'shinlari o'zlariga qarshi turgan mongol va sovet qo'shinlarini tor-mor qilishga intilishdi. Ittifoqchilar yapon qo'shinlarini qurshab olish va yo'q qilib tashlash bo'yicha dadil operatsiyani amalga oshirib, hujumga o'tib, yapon qo'shinlarini tor-mor etishdi. 30- yillarning oxirida lokal urushlar ko'payib, kengayib, o'z ichiga yangi-yangi mamlakatlarni tortgan edi. Dunyo yangi jahon urush arafasida turgan edi.

#### Savollar va vazifalar.

1. Versal konferensiyaning vazifalari ?
2. "Rus masala"ning mohiyati?
3. 20-30- yillarda SSSRning harbiy islohotlari?
4. Chuqur operatsiya strategiyasi?
5. Fashist Germaniyaning kuchayib borish sabablari?
6. 20-30- yillarda g'arb davlatlarning qurolli kuchlar?

## 7 MAVZU: Ikkinchi jahon urushining tarixi.

Reja:

1. Ikkinchi jahon urushining sabablari, xarakteri va asosiy davrlari.
2. Ikkinchi jahon urushni boshlanishi, uning birinchi bosqichi. Gitlarga qarshi ittifoqning tuzilishi.
3. Ikkinchi jahon urushidagi tub burilish, uning mohiyati va ahamiyati. Ikkinchi frontni ochilishi.
4. Fashist Germaniyaning mag'lubiyati. Uzoq Sharqda jangovar harakatlari.

Militaristik Yaponiyani taslim bo'lishi. Ikkinchi jahon urushning tugatilishi. Ikkinchi jahon urushi XX asrning eng katta fojiasi bo'ldi. Bu fojia 20-30-yillar chegarasida jahonning asosiy mintaqalarini qamrab olgan chuqur siyosiy va iqtisodiy tanglikning oqibati edi. Ikkinchi jahon urushi olovining avj olishining asosiy sababi nasist Germaniyasi, fashist Italiya va militaristik Yaponiyani olib borgan tajavuzkor siyosati edi. Ammo undan tashqari, urushni boshlanishiga Angliya va Fransiyaning siyosiy yetakchilari olib borgan "tinchlantirish" siyosati, AQShning "aralashmaslik" siyosati ham sabab bo'lgan. Ular "bolshivism balosi"ni yo'q qilishga intilib, qarama-qarshi turish tafakkuri mantig'idan kelib chiqqan holda, ko'pincha tarixan oqlanmagan xatti-harakatlarga intildilar va Germaniyada nasist partiyasini, gitlerchilar rejimini qo'llab-quvvatlab, ularni kuchayishiga yordam berdilar. Bundan ruhlangan Gitler, bolshivismni, marksizmni tugatuvchi haloskor sifatida maydonga chiqdi. Aslida esa, uning asosiy maqsadi "uchinchi reyx"ni vujudga keltirib, butun dunyoda o'z hukmronligini o'rnatish edi. Harbiy mamlakatlar hukmron doiralarning olib borgan Germaniyaga "yon bosish" siyosati Versal sulhni buzishiga, Avstriyaning Germaniya tarkibiga qo'shib olinishiga (1938y.),

Myunxen bitimiga (1938 sentabr) yo'l ochib berdi.

Gitler Germaniya iqtisodiyotini militarizatsiya yo'lga o'tqazib, urushga tayyorgarlik olib borgan bir paytda sobiq SSSR Yevropada kollektiv xavfsizlik tizimini tashkil qilishga harakat qilgan. Shu maqsadda 1935y. SSSR Fransiya va Chexoslovakiya bilan birga o'zaro yordam berish to'g'risidagi shartnomalarni tuzgan edi. 1939y. may-avgust oyilarida SSSR tashabbusi bilan Moskvada Angliya, Fransiya va SSSR o'rtasida harbiy ittifoq tuzish masalasida harbiy vakillarning ishtirokida xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi, ammo natija bermadi. Angliya va Fransiyaning rahbarlari SSSR bilan ittifoq tuzishdan bosh tortishdi. Ularning maqsadi- Germaniya bilan SSSR o'rtasida urush keltirib chiqarib, Yevropa va dunyoda o'z mavqeini mustahkamlash edi. Shu murakkab vaziyatda SSSR, o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Germaniya tomonidan taklif etilgan bir-biriga hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ldi. 1939y. 23 avgust kuni SSSR bilan Germaniya o'rtasida 10 yilga mo'ljallangan ushbu hujjat imzolandi ("Molotov va Ribbentrop bitimi"). Bir tomondan, bu hujjat SSSR xavfsizligini ta'minlagan edi, ammo shartnomaning maxfiy moddalari ham bor edi. Unda Polshani bo'lib olish va Boltiq bo'yi respublikalar SSSRning ta'sir doiraga kirish haqida gap borgan edi. Bu esa SSSRni Germaniya hamkoriga aylantirib, tajavuzkor davlat sifatida fosh qilgan edi.

Sharqda o'z xavfsizligini ta'minlagan Gitler 1939y. 1-sentabr kuni Polshaga qarshi urushni boshlab yubordi. Fashist qo'mondonligining reja bo'yicha, nemis qo'shinlari Varshavani ikki tomondan qurshab olib, bir strategik operatsiya davomida Polsha armiyani tor-mor etmoqchi edi. Bu vazifani bajarish uchun Germaniya 60 diviziya, shu jumladan, 10 tank va motorizatsiyalashgan diviziyalar, 3000 tank, 2000 samolyotni jalb qildi. 3 sentabrda Angliya va Fransiya Germaniyaga rasmiy jihatdan urushni e'lon qilishdi va Germaniyaga qarshi qo'shnlarni

safarbar etib, frontni tashkil etishdi. Shuning uchun harbiy frontda Germaniya 33 diviziyani ushlab turishga majbur edi. Germaniyaga qarshi urushni boshlagan Polsha o'z ittifoqchilarning, ya'ni Angliya va Fransiyaning yordamiga ishongan edi. Polshaning rejasiga ko'ra, polyak armiyasi ittifoqchilar yordamga kelguncha mudofaa janglarni olib borish kerak edi. G'arbda ittifoqchilar zarba berib, hujumga o'tgandan so'ng esa, fashistlar o'z kuchlarning bir qismini G'arbgacha tashlagandan so'ng, polyak armiyasi qayta hujumga o'tish kerak edi. Urush arafasida Polsha 36 piyoda diviziya, 11 kavaleriya va 2 mexanizatsiyalashgan brigadaga ega edi. Armiyada 860 yengil tank, 420 samolyot va 12 harbiy kema mavjud edi. Shu tahlildan ko'rinadiki, nemis qo'shinlari ustun turgan. Harbiy-texnika tomonidan ustunlikka ega bo'lgan fashist Germaniya Shimoldan va janubdan kuchli zarba ko'rsatib, 3 kun ichida polyak mudofaani yorib o'tdi. Fashistlarning tank va mexanizatsiyalashgan diviziyalar 7 sentabrga kelib, Visla daryoga chiqdi, polyak qo'shinlarining bir qismi qurshovda qoldi, ammo ularning ikkinchi qismi Visla daryosidan o'tib, chekindi. Varshava ostonada polyaklar kuchli qarshilik ko'rsatishdi. Varshavaning mudofaasi 20 kun (8-28 sentabr) davom etdi. 1939 yilning oktabr oyiga kelib polyak armiyasi qarshilikni tugatib, taslim bo'ldi. Imkoniyatidan foydalanib SSSR 1939-1940 yillarda Polshaning sharqiy qismini (G'arbiy Belorussiya va G'arbiy Ukraina), Boltiq bo'yi respublikalarini egallab oldi. Ruminiyadan Bessarabiya va Shimoliy Bukovinani tortib oldi. Bu urush Germaniyaga o'z taktikani sinovdan o'tkazishga imkoniyat berdi, ya'ni tank va harbiy aviasiyadan samarali foydalanishi, dushman qo'shinlarning mudofaani yorib utib, uning harbiy qismlarini qurshovga olib, tor-mor etish. Eng asosiy saboq shundan iborat ediki, g'alaba qozonish uchun strategik tashabbusni qo'lga olib, ham yerda, ham havoda o'z ustunligini ta'minlash kerak.

Shu bilan ikkinchi jahon urush boshlandi. Bu urush 6 yil

davom etib, uning tarixini quyidagi davrlarga bo'lsa bo'ladi:

- 1 davr- 1939 y. 1 sentabr- 1941 y. 22 iyungacha
- 2 davr- 1941 y. 22 iyun.- 1942y. 19 noyabrgacha
- 3 davr- 1942y. 19 noyabdan- 1943y. oxirigacha
- 4 davr- 1944y. bosh.- 1945y. 9 may
- 5 davr- 1945y. may- 1945y. 2 sentabr.

Birinchi davrda urush g'arb davlatlar o'rtasida bo'lib o'tdi. Ammo uni ham ikki bosqichga bo'lsa bo'ladi- 1939y. 1 sentabrdan to 1940y. aprelgacha va 1940y. apreldan boshlab to 1941y. 22 iyungacha. 1939y. 1 sentabrdan to 1940y. aprelgacha bo'lgan urush tarixda "G'alati urush" degan nom olgan. Uning ma'nosi shundaki, Angliya va Fransiya Germaniyaga urushni e'lon qilishgan bo'lsa ham, ammo o'z ittifoqchisi bo'lgan Polshaga hech qanaqa yordam ko'rsatishmagan, hech qanaqa jangovar harakatlar ham olib borishmagan. Harbiy frontda jim-jit edi. Sabab shuki, Angliya va Fransiya ishongan ediki, Germaniya Polshani tor-mor qilib, Sharqqa yurishni davom etadi, ya'ni SSSR bilan urushni boshlab yuboradi. Shu bilan ular Germaniya qo'li bilan o'z sinfiy dushmanini yo'q qilishmoqchi edi. Ammo bu vaqtda Gitler SSSR bilan urushishga tayyor bo'lmagan, shuning uchun 1940y. aprel oyida asosiy zarbani G'arbgacha qaratdi. Angliya va Fransiyaning harbiy rejasiga ko'ra, Germaniya asosiy zarbani faqat Arden tog'larining shimoliy qismida ko'rsatish mumkin edi, ya'ni Belgiya va Gollandiya orqali. Germaniya bilan chegarasida esa Fransiya urushdan oldin juda kuchli "Majino chizig'i" degan nom olgan mudofaa inshootlarini barpo qildi. Urush boshlanishi bilan Angliya va Fransiya qo'shinlari Belgiya va Gollandiya qo'shinlari bilan qo'shilib, yagona frontni tashkil etishmoqchi bo'lishgan edi. O'z rejani amalga oshirish uchun ittifoqchilar frontda 143 diviziya, 3000 tank, 2700 samolyot to'plashdi. Nemis qo'mondonligi harbiy frontda 135 diviziya, 2600 tank, 3500 samolyot to'plagan edi. Germaniya rejasiga ko'ra, nemis qo'shinlari Belgiya, Gollandiya va Fransiya qarshi hujum



uyushtirib, La-Mansh bo'g'oziga chiqib, ittifoqchilar qo'shinlarni bo'lib tashlab, qurshovga olib, tor-mor qilish kerak edi. O'z rejasini amalga oshirish uchun o'z armiyani fashistlar uchta qismiga bo'lishgan edi - A, B, S guruhleri. "A" guruhi armiyasi (45 diviziya) ittifoqchilar kutmagan Arden tog'lardan o'tib, zarba ko'rsatish kerak edi. "B" guruhi armiyasi (29 diviziya) Shimoliy dengizdan Belgiyagacha bo'lgan frontda hujumga o'tib, Belgiyada joylashgan ittifoqchilar qo'shinlari bilan jang qilib, shu bilan "A" guruh armiyasiga fransuz va Belgiya qo'shinlarning orqasidan zarba berish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kerak edi. "S" guruhi armiyasi Majino liniyada jang olib borib, fransuz qo'shinlarini chalg'itish kerak edi. Nemis qo'shinlarning hujumi 1940y. 10 may kuni boshlandi. Qattiq qarshilikka uchramagan nemis qo'shinlari 20 mayga kelib La-Mansh oldiga chiqib, Dyunker shahri yonida ittifoqchilar qo'shinlarini dengizga siqishdi. Fransuz, ingliz, belgiya qo'shinlari (40 diviziya), butun texnikani tashlab, Angliyaga chekinishga majbur bo'lishdi (338 ming kishi). Ittifoqchilar 62 ming kishini, 23 ming to'p, 8 ming pulemyotni yo'qotishdi, 40 ming kishi asrga tushdi. 5 iyun kuni fashistlar zaiflashgan fransuz qo'shinlariga yangi zarba berib, frontni yorib o'tishdi va Fransiyaning markaziy viloyatlarini egallab olib, Parijni qo'lga kiritishdi. 1940y. 22iyun kuni Fransiya taslim bo'ldi. Shu yilning avgust-noyabr oylarida fashistlar Angliyaga qarshi havo urushni boshlab yuborishdi. Angliyani bombardimon qilish orqali Germaniya uning harbiy-iqtisodiy qudratini yo'qotib, yengib olmoqchi edi, ammo o'ylagan natijaga erisholmadi. Angliya taslim bo'lmadi. Angliyaga qarshi Germaniya urushni olib borib, bir nechta xatoga yo'l qo'ydi: birinchidan, fashistlar havoda o'z ustunligini ta'minla olisha olmadilar, ikkinchidan, Angliya juda kuchli havo hujumiga qarshi tizimini yaratgan edi, uchinchidan, nemis aviasiyasi uzoq masofaga uchadigan kiruvchi samolyotlarga ega bo'lmagan, shuning uchun nemis bombardimonchilar katta talofat ko'rishgan

va to'rtinchidan, ingliz uchuvchilarning mahorati oshib, ular qattiq qarshilik ko'rsatishgan. Ammo Angliyaga yordam bergan asosiy sabab boshqa edi, 1940 yilning oxirida Gitler SSSRga qarshi urush boshlash haqidagi "Barbarossa" rejasini imzoladi. Shundan keyin nemis qo'shinlarining asosiy kuchlari, shu jumladan aviasiya, Sharqqa ko'chirildi. 1941y. aprel oyida nemis, italyan va vengriya qo'shinlari Balq'on yarimorolga bostirib kirib, Yugoslaviya va Gresiya qo'shinlarini tor-mor etishdi. Shu yilning 20may-2iyun orasida katta havo desant yordamida Krit orolini bosib olishdi. 1939 y. sentabr-1941y. iyungacha bo'lgan janglar natijasida Germaniya butun harbiy va Janubiy Yevropa (Polsha, Daniya, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Gresiya, Yugoslaviya) ni egallab oldi. Yevropa bilan birga, urush Afrikada ham kuchayib borgan. Germaniyaning ittifoqchisi, Italiya Angliyaning mustamlakalarini qo'lga kiritish maqsadida Misr, Keniya, Somaliga qarshi hujum uyushtirilgan edi. Angliyaning harbiy-iqtisodiy qudrati susayib bordi. Shundan foydalanib, Yaponiya butun Indoxitoyini (Vetnam, Kambodja, Laos) bosib olib, Hindistonga o'z hujumini boshlab yuborishgan edi.

1939-1941 y.y. jangovar harakatlar harbiy san'atni boyitdi:

1. Urush yangi tank va mexanizasiyalashgan qo'shinlarning afzalligini namoyon qildi. Bunda qo'shinlarning yangi bo'linmalari, tank armiyalari, tank guruhleri tashkil etildi. Ular turli jangovar tartibda jang qilishgan, mudofaani yorishda - ikki eshelon, dushmani quvganda- bitta eshelon. Hujum paytida ular bir sutkada 60-70 km masofani bosib o'tishar edi.
2. G'alaba qozonishda nemislar harbiy aviasiyadan keng foydalanishgan. Aviasiya, havoda o'z hukmronligini o'rnatib, quruqlikdagi qo'shinlarga katta yordam ko'rsatishgan: razvedkani olib borishgan, ingliz va fransuz aviatiyani o'z aerodromlarda yakson qilgan, havo desantini tashlab, dushman qo'shinlarini qurshovga olishga yordam bergan.

3.Urushning shu bosqichda nemis qo'shinlari zamonaviy urushning juda boy harbiy tajribaga ega bo'lishdi.

Endi butun G'arbiy Yevropaning harbiy-iqtisodiy potentsiali Germaniyaga xizmat qilgan. Germaniya 1941 yilga kelib butun Yevropada o'z hukmronligini o'rnatdi. Rumuniya, Vengriya, Finlandiya, Tursiya, Bolgariya, Ispaniyadan iborat bo'lgan fashist davlatlarining ittifoqi tashkil topdi. Endi navbatdagi mo'ljal SSSR edi. 1940 yil iyunda fashistlar Germaniyasi SSSRga harbiy hujum qilishning batafsil rejani ishlab chiqarishdi. SSSRga qarshi hujum qilish rejaning "Barboross" deb nom olgan uzil-kesil varianti 1940y. 18 dekabrda tasdiqlandi. U "yashin tezligida" urush olib borishga- "bliskrigga" asoslangan edi. SSSRga qarshi urushni boshlash uchun Germaniya katta tayyorgalikni olib bordi. Germaniya qurolli kuchlar shaxsiy tarkibi 3mln.750ming kishidan(1939y.) 8,5mln.gacha oshgan edi(1941y.). Diviziyalar soni 103dan 214gacha ko'paydi. Gitlerchi strateglar urushni 1941y. kuzida tamomlashni mo'ljallagan edi. Qizil armiyaning asosiy kuchlar harbiy chegarasida joylashganligidan kelib chiqib, (Dnepr-G'arb.Dvina), fashist qo'mondonligi to'satdan zarba qilib, bitta operatsiya davomida Qizil armiyaning asosiy kuchlarini tor-mor etib, g'alaba qozonmoqchi edi. Ularning rejasiga ko'ra Dneprning sharhida SSSR katta qo'shinlarga ega bo'lmagan. To'satdan hujum boshlab, piyoda, tank va aviasiyaning ommaviy zarbaning natijasida, Qizil Armiyasining asosiy kuchlarni tor-mor etib, 5-6 oyli urushdan so'ng nemis qo'shinlari Arxangelsk-Astraxan chizig'iga chiqishi kerak edi. Bu vazifani bajarish uchun Germaniya 152 diviziyani, shu jumladan 33 tank va motorlashtirilgan diviziya, ittifoqchilarning 29 diviziyani va 16 brigadani, jami 190 diviziyani to'plagan edi. Hammasi bo'lib, Sovet Ittifoqiga qarshi Germaniya 5,5 mln. kishini, 47 260 tup va minomyot, 4300 tank, 4950 samolyot, 193 harbiy kemalarni to'plagan edi. Bu tarixda eng katta armiya edi. Gitlerchilar to'rtta strategik yo'nalishda- Murmansk, Leningrad, Moskva va Kiyev

yo'nalishlarida hujum olib bordilar. Buning uchun o'z qo'shinlarini fashistlar to'rtta qismga bo'lishdi- "Norvegiya", "Shimol", "Markaz" va "Janub" guruhlarini.

"Norvegiya" armiyasi (6 diviziya) Murmansk yo'nalishda hujum qilib, shaharni bosib olgandan so'ng "Shimol" armiyalar guruhi bilan birlashish kerak edi.

"Shimol" armiyalari guruhi (29 diviziya, shu jumladan 3 tank va 3 motorlashtirilgan diviziya) Boltiq bo'yi yo'nalishda hujum olib borib, "Markaz" armiyalar guruhi bilan Leningradni qo'lga kiritish kerak edi. Ularga 1- harbiy-havo floti ko'maklashish kerak edi.

Nemis qo'shinlarning asosiy qismi "Markaz" armiyalar guruhiga birlashgan edi ( 50 diviziya, shu jumladan, 9 tank va 6 motorlashtirilgan diviziya). Ular Minsk yo'nalishida hujumni olib borib, bu yerda sovet qo'shinlarini qurshovga olib, yakson qilish kerak edi. Shundan so'ng, Smolensk yo'nalishda hujumni davom etish kerak edi. Bu hujumda ularga 2- harbiy-havo floti ko'maklashishi kerak edi (1680 samolyot). O'ng qirg'og'idagi Ukrainaga hujum uyushtirish uchun " Janub" armiyalar guruhi tashkil etildi. Uning tarkibida 57 diviziya, shu jumladan 5 tank va 4 motorlashtirilgan diviziya, bor edi. Undan tashqari, ularga yordam berish maqsadida, 13 rumin piyoda diviziya va 9 brigada jalb qilindi. Bu guruhning asosiy vazifasi-Kiyev shahrini qo'lga kiritib, Dnepr orqasiga sovet qo'shinlarini chekinishga yo'l qo'ymasdan, ularni tor-mor qilish kerak edi. Bu qo'shinlarga 3-harbiy-havo floti (1300 samolyot) yordam ko'rsatish kerak edi.

G'alaba qozonish uchun fashist qo'shinlari bosh yo'nalishlarda kuchlar ustunligini ta'minlab, tank va samolyotlar o'zaro hamkorligini tashkil etib, yerda ham, havoda ham o'z hukmronligini ta'minlash kerak edi. Shu tariqa fashist Germaniyasi SSSRga hujum qilish uchun kuchli, yaxshi qurollangan, zamonaviy jang qilish tajribasiga ega, orqasida butun harbiy Yevropaning iqtisodiy va harbiy salohiyati turgan armiyani

tayyorladi.

SSSR bilan urushni olib borish uchun Germaniya juda qudratli, yaxshi qurollangan, zamonaviy urushni olib borish tajribasiga ega bo'lgan armiyani tayyorlagan edi.

SSSR ham o'z harbiy qudratini yuksalishiga harakat qilgan, ammo bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari urushga tayyorgalik ko'rishiga imkon bermadi. Asosiy sabablardan:

1. Bu vaqtga kelib ildiz otib ulgurgan mustabid tizim va Stalin shaxsiga sig'inish edi.

2. Qo'shinlarda malakali, boy tajribaga ega bo'lgan komandirlar yetishmas edi.

3. Armiyani yangi texnika va qurollar bilan ta'minlash ishlar endi boshlab yuborilgan edi.

4. 1939-1940 yillarda yangi hududlarning (G'arbiy Ukraina va Belorussiya, Moldova, Boltiqbo'yi respublikalar) chegaralarda mudofaa inshootlarining qurilishi oxirigacha yetkazilmadi.

Hammasi bo'lib SSSRning chegaradosh hududlarida 170 diviziya va 2 brigada (2,9 mln. kishi) joylashtirilgan edi. Shu jumladan 103 o'qchi, 40 tank, 20 motorlashtirilgan va 7 kavaleriya diviziyalar. Biroq bu diviziyalarning shtatlari batamom to'ldirilmagan edi. Ular asosan eski texnika bilan qurollangan edi. Transport, aloqa vositalari, yangi jangovar texnika yetishmasdi. Ko'pgina tank va motorlashtirilgan diviziyalar, aviasiya qo'shilmalari qayta tuzilayotgan va endi tashkil etilayotgan edi. Tanklar va samolyotlarning yangi tiplari bor-yo'g'i 20% ga yaqin bo'lib, shaxsiy tarkib ularni endi o'zlashtirayotgan edi. Umuman olganda, nemis qo'shinlari sovet qo'shinlaridan shaxsiy tarkibi bo'yicha 1,8 marta, tanklar bo'yicha 1,5 marta, yangi tipdagi samolyotlar bo'yicha - 3,2 marta, qurol va minoml yotlar bo'yicha - 1,3 marta ustun turgan edi.

1941 yil 22 iyun kuni ertalab soat 4da fashist Germaniyasi hujum

qilmaslik to'g'risidagi sovet-german shartnomasini buzib, to'satdan, urushni e'lon qilmasdan SSSR hududiga bostirib kirdi. Ikkinchi jahon urushining yangi davri boshlandi. Sovet-german fronti 4,5 ming km, Barents dengizdan to Qora dengizgacha cho'zilgan edi. Sovet qo'shinlari ikki eshelon bo'lib joylashtirilgan edi. Birinchi eshelon 56 diviziya va 2 brigadadan iborat bo'lib, 50 km chuqurlikda joylashgan edi. Qolgan kuchlar ikkinchi eshelonda to'plangan bo'lib, 100-400 km chuqurlikda joylashgan edi.

Barcha tank diviziyalar ikkinchi eshelon tarkibida edi. Shuning uchun birinchi eshelon zaif edi, ikkinchi eshelondagi qo'shinlar esa oxirigacha safarbar etilmagan edi. Safarbar zaxiralarning asosiy qismi (harbiy, yoqilg'i bazalar) chegara zonasida joylashgan edi va urushning ilk kunlaridanoq fashistlar tomondan yo'q qilindi. To'satdan qilingan hujum gitlerchilar armiyasiga anchagina ustunliklarga ega bo'lishga imkon berdi. Ularning birinchi eshelonda piyoda diviziyalarning 75%, tank va motorlashtirilgan diviziyalarning 93% joylashgan edi. Sovet qo'shinlari esa harbiy chegarada birinchi eshelonda kuchlarning 43% ga ega edi. Asosiy zarbalar berilgan yo'nalishlarda dushmanning kuchi uch baravar va hatto 5 baravar ortiq edi. Qulay imkoniyatdan foydalanib, nemislar strategik tashabbusni o'z qo'llariga olishdi. Sovet jangchilarning ko'rsatgan qarshilikka qaramasdan nemislar 10 iyul kuni Dneprga chiqishdi va Smolensk tomonga hujum boshlashdi. Og'ir janglarni olib borgan Sovet qo'shinlari 400-600km. ga chekinishga majbur bo'lishdi. Iyul-sentabr oylarida jangovar harakatlari uchta yo'nalishda olib borilgan- shimoliy-g'arbiy, g'arbiy va janubiy-g'arbiy. Asosiy yo'nalish harbiy yo'nalish edi. 1941yil 10 iyuldan boshlab to 10 sentabrgacha Smolensk ostonasida kuchli janglar bo'lib o'tdi. Qahramonlarcha qarshilik ko'rsatgan sovet qo'shinlari nemis qo'shinlarini to'xtatishga harakat qilishgan. Ammo, o'z ustunligidan foydalanib, kuchli tank qo'shilmalarini

hujumga tashlab, aviatsiya yordamida, fashist qo'shinlari frontni yorib o'tib, Sovet qo'shinlarini qurshovga olib, Sharqqa siljib borishgan. Aynan shu kunlarda Orsha shahri ostonalarda 1941 yil 14 iyulda sovet qo'shinlari "Katyusha" nomni olgan reaktiv minomyotlarni birinchi marta sinovdan o'tkazishdi. Butun avgust va sentabrning boshida sovet qo'shinlari qayta hujumga o'tishmoqchi edi. Ammo harbiy texnikani, tanklar, aviatsiyani yetmaganligi, qo'shinlar o'rtasida aloqalarning buzilganligi, harbiy tajribasining yetishmasligi tufayli bu harakatlar natija bermadi. 10 sentabrga kelib sovet qo'shinlari fashistlarni barcha yo'nalishlarda to'xtatishgan edi. Smolensk janggi katta ahamiyatga ega. Fashistlarning qisqa muddat ichida Qizil armiyaning asosiy kuchlarni tor-mor etish rejasi amalga oshmadi. Iyul-avgust oylarida bo'lib o'tgan janglarda fashistlar katta talofat ko'rishdi.

Shimoliy-g'arbiy yo'nalishda ham iyul-avgust oylarida kuchli janglar bo'lib o'tdi. "Shimol" armiyalar guruhi ham oldiga qo'yilgan maqsadini - Leningradni qo'lga kiritishni amalga oshira olmadi. Ammo, frontni yorib o'tib, fashistlar 8 sentabrdan boshlab, Leningradni qurshovga olishdi. Lekin nemis qo'shinlarning kuchi ham kamaydi. 23 sentabrga kelib "Shimol" armiyalar guruhining qo'shinlari mudofaaga o'tishga majbur bo'lishdi. 1941 yilning yozida qattiq janglar janubiy-g'arbiy yo'nalishda ham bo'lgan. Iyul-avgust oylarida fashistlar O'ng qirg'oqli Ukrainani bosib olishdi. Sentabr-oktabrga kelib, fashistlar Chap qirg'oqli Ukrainani va Kiyevni qo'lga kiritishdi. Sovet qo'shinlari chekinish to'g'risida buyruq olmasdan, qurshovda qolishdi. Natijasida fashistlar Donbas va Krimni bosib olishdi. 1941 yilning kuzida Sovet armiyasi mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. Uning maqsadi - dushmani to'xtatib, uni kuchsizlantirish, vaqtdan yutib qayta hujum uchun shart-sharoitlarini tayyorlash. Ammo 1941 yilning kuziga kelib, SSSR katta hududlarni yo'qotgan edi - Boltik bo'yi respublikalar,

Ukrainani, Belorussiyani, Krimni.

1941 yilning kuziga kelib Qizil armiyasi katta talofat ko'rdi, uning asosiy sabablari:

-Germaniya qo'lidagi katta iqtisodiy resurslari, kuchli sanoat bazasi;

-Germaniya iqtisodiyoti harbiy yo'lga o'tkazilgan edi;

-Nemis qo'shinlari zamonaviy urushning jangovar tajribasiga ega edi;

-I.V.Stalinning xatolari;

-Urushning arafasidagi armiyadagi qatag'on siyosati;

-Urush arafasida Sovet armiyani safarbar qilinmaganligi.

1941 y. 30 sentabrda "Markaz" armiyalar guruh qo'shinlari "Tayfun" operatsiyani boshlashdi. Uning maqsadi- sovet armiyaning mudofaani yorib o'tib, Vyazma va Bryansk shaharlar yonida sovet qo'shinlarini qurshovga olish va Moskvani qamal qilib, qo'lga kiritish. Buning uchun fashistlar bu yo'nalishda sal kam 1 mln. askar va ofitserlarga ega bo'lgan 77 diviziyani, shu jumladan, 14 tank va 8 motorlashtirilgan diviziyani, 14 ming to'p va minomyotlar, 1700 tanklarni, 950 samolyotni to'plagan edi. Ularga qarshi SSSR uchta frontni tashkil etdi- g'arbiy fronti (qo'mondoni- I.S. Konev ), Zaxira fronti (qo'mondoni- S.M. Budyonniy ) va Bryansk fronti (qo'mondoni- A.I. Yeryomenko) . Uchta front tarkibida - 95 diviziya (800 ming kishi, 6800 to'p va minomyotlar, 780 tank, 545 samolyot) mavjud edi. Sovet armiyaning asosiy maqsadi- oldindan tayyorlangan mudofaa inshootlariga tayanib, fashist qo'shinlarini to'xtatish, uning shaxsiy tarkibiga iloji boricha ko'p zarar yetkazib, vaqtdan yutish va qayta hujum uchun imkoniyatlarni tayyorlash. Fashistlar armiyasining hujumi 1941 yil 30 sentabrda boshlandi. U tanklar bilan kuchli zarbalar berib, mudofaani yorib o'tishga, Bryansk va Vyazma ostonada sovet qo'shinlarini qurshab olishga muvaffaq bo'ldi. Ahvol nihoyatda xavfli bo'lib qoldi. Qurshovda qolgan sovet qo'shinlari qarshilik ko'rsatib, fashistlarning 28 diviziyani

o'ziga qaratib, ularning olg'a harakatlarini to'xtatdilar. 19 oktabrga kelib, fashistlarning hujumi to'xtatildi. Ammo Vyazma yaqinida qurshab olingan sovet qismlarining qarshiligini yengib, o'z kuchlarni yig'ib, 15-16 noyabr kunlari fashistlar yangidan, ikkinchi hujumga o'tishdi va Moskva ostanasiga, 15-20 km masofaga chiqishga muvaffaqiyatga ega bo'lishdi. Ammo dushmanning bu hujumi ham to'xtatildi. 67 kun davom etgan janglar natijasida sovet qo'shinlari fashistlarning eng saralangan qo'shinlarini kuchsizlantirishdi. Uzoq Sharqdan va Sibirdan Moskva ostonasiga 40 diviziya ko'chirilgan edi. Sovet qo'shinlari qayta hujumga tayyorgarlikni boshlab yuborishdi. Qayta hujum rejasi 1941y. dekabr oyiga kelib harbiy frontida mavjud bo'lgan vaziyatni hisobga olgan: fashist qo'shinlarining zaiflashganligini, dushmanda operativ zaxiralarning qolmaganligini, mudofaa inshootlarining yaratilmaganligi, qish sharoitida jangovar harakatlarni olib borishga tayyor bo'lmaganligini. Dushmanni chalg'itish uchun noyabr oyida janubiy va Leningrad frontda sovet qo'shinlari qayta hujumga o'tib, Moskvaga qaratilgan fashistlarning hujumini to'xtatishga yordam berdi. 1941 yil dekabrga kelib fashistlar Moskva ostonasida 800 ming kishi, 10400 to'p, 1ming tank, 600 samolyotlarga ega bo'lishgan bo'lsa, sovet qo'shinlari 750 ming kishi, 5900 to'p, 415 raketa artilleriya "Katyusha", 670 tank va 760 samolyotga ega edi.

Qayta hujumni amalga oshirish uchun uchta front qo'shinlari jalb qilingan edi- Kalinin, G'arbiy va Janubi-g'arbiy frontlar. 1941y. 5 dekabr kuni Kalinin front qo'shinlari, ertasiga –G'arbiy va Janubi-g'arbiy qo'shinlari 600km.lik frontda qayta hujumga o'tishdi. 25 kun davom etgan janglar natijasida "Markaz" armiyalarning guruh qo'shinlari katta mag'lubiyatga uchradi: 38 nemiya diviziyalar tor-mor etildi, shu jumladan 15 tank va motorlashtirilgan diviziyalar. Dekabrning oxiriga kelib fashist qo'shinlari 100-150km ga G'arbga chekinishga majbur

bo'lishdi. Sovet armiyasi g'alabaga erishdi.

Qurshovda qolgan Leningrad bilan aloqa tiklandi, Janubiy front qo'shinlari hujumga o'tib, Rostov shahrini ozod qilishdi. Moskva ostonadagi sovet qo'shinlarning g'alabasi tarixiy ahamiyatga ega:

- 1.Fashistlarning " blitzkrieg" rejasi barbod bo'ldi;
- 2.Fashist askarlarning jangovar ruhi so'ndi;
3. Yaponiya va Turkiyaning urushga kirish rejasi amalga oshmadi;
4. SSSR va uning qurolli kuchlarining xalqaro obro'si oshib bordi.
5. Fashistlarga qarshi tuzilgan ittifoq ( SSSR, AQSh, Angliya, Xitoy) mustahkamlandi, 1941 yil 1yanvarda 26 davlat vakillari Vashingtonda agressorlarga qarshi birgalikda kurashish haqidagi deklarasiyani imzolashdi.
- 6.G'arbiy Yevropada qarshilik harakati yuksalib bordi;
7. Moskva ostonadagi janglar sovet qo'shinlarning tajribasini boyitdi,sovet odamlarning g'alabaga bo'lgan umidi kuchaydi.

Moskva ostonadagi mag'lubiyatga qaramasdan Germaniya ya'na katta kuchga ega edi. Yevropada ikkinchi front ochilmaganligidan foydalanib, Germaniya Sharqiy frontga qo'shimcha diviziyalarni tashladi.

Natijada 1942 yil may oyiga kelib bu yerda fashist diviziyalarning soni 191 dan 211 gacha oshdi. Sovet qo'mondonligi yetarli kuchga ega bo'lmasa ham, 1942 yilda butun sovet-german frontida hujum tashkil qilish rejasini ishlab chiqdi. Fashistlar asosiy hujumni Moskva yo'nalishda olib borishadi deb, sovet qo'mondonligi o'z asosiy kuchlarni shu yerda to'plagan edi. Ammo yaxshi tayyorlanmagan hujum yaxshi natija bermadi, aksincha, Xarkov ostonasidagi hujum barbod bo'lib, sovet qo'shinlari qurshovga tushib, katta talofat ko'rishdi. Bu esa sovet qo'shinlarning ahvolini yana og'irlashtirdi.1942 yilda nemis qo'mondonligi asosiy zarbani janubda berishga qaror

qildi. Rejalashtirilgan hujumda harbiy va iqtisodiy maqsadlar birinchi o'ringa chiqdi. Ukrainaning janubiy qismini bosib olib Germaniya o'zini oziq-ovqat bilan ta'minlamochi edi, undan tashqari Kavkazni bosib olib Germaniya neft manbalarini qo'lga kiritmoqchi edi. Bundan tashqari, Kavkazning bosib olinishi, Turkiyaning SSSRga qarshi urushga kirishga undashi lozim edi. German qo'mondonligi 1942 yilda bir vaqtni o'zida Stalingrad va Kavkazga hujum qilishga qaror qildi. Fashist qo'shinlarining hujumi 1942 yil may oyida boshlandi. Xarkov operatsiyasini mag'lubiyati, fashist qo'shinlarining ustunligi, sovet qo'mondonligining xatolari Janubiy frontda sovet qo'shinlarni og'ir mag'lubiyatga olib keldi. Sovet qo'shinlari qarshilik ko'rsatishsa ham, ammo og'ir janglarni olib borib chekinishga majbur bo'ldi. Kuban, Krim, Sevastopol, dushman tomonidan bosib olindi. Nemis qo'shinlari Shimoliy Kavkazga yorib o'tishdi. 1942 yil yozga chiqib fashist qo'shinlari Stalingradni olishga alohida e'tibor berishdi. Volga daryosida turgan shahar SSSR uchun muhim rol o'ynagan, u orqali markaziy rayonlarga janubdan g'alla va neft mahsulotlari tashib turadigan yo'l o'tgan edi, undan tashqari Stalingradni qo'lga kiritishi, Shimoliy Kavkazni bosib olishga imkoniyat berar edi. Sovet qo'mondonligi Stalingradning ahamiyatini to'g'ri tushunib, uni himoya qilish uchun katta kuchlarni tashlagan edi. Stalingrad uchun jang boshlandi. 12 iyul kun Stalingrad fronti tashkil etildi. 1942y. 23 avgustda fashistlar shaharning shimolida Volgaga yorib o'tishga muvaffaq bo'lishdi. Ularning kuchlari askarlarda-1,4 marta, tanklarda- 2 marta, aviasiya- 3,5 marta ustun edi. 25 avgustda Stalingrad qamal holati joriy etildi. Shaharni egallash uchun fashistlar bu yerda 80dan ortiq diviziya to'plashdi. Ular tarkibida 1 mln. kishi, 10290 to'p va minomyot, 675 tank, 1200 samolyotlar bor edi. Ularga qarshi sovet qo'mondonligi uchta front tashkil etdi-Janubiy-G'arbiy, Don va Stalingrad frontlarni. Ularning tarkibida- 1mln. kishi, 13500 to'p va minomyot, 979

tank va 1350 samolyot bor edi. Nisbatan kuchlar teng bo'lgan. G'alabaning asosiy sharti, hal qiluvchi kuch endi qo'shinlarining jangovar ruhi edi. Mudofaa janglarni olib borib, sovet qo'mondonligi qayta hujum rejasini ham ishlab chiqdi. Unga ko'ra Janubiy-G'arbiy va Stalingrad front qo'shinlari qayta hujumga o'tib, dushmanning ikki qanotiga zarba berib, ularni Kalach shahri yonida qo'rshovga olish kerak edi. Don frontining qo'shinlari esa o'z hujumi bilan bu vazifasini bajarishga yordam ko'rsatish lozim edi. Barcha intilishlarga qaramasdan fashist qo'shinlari Stalingradni qo'lga olisha olmadi. Stalingradning mudofaasi gitlerchilarning 1942 yilning yozgi-kuzgi urush kompaniya rejasini barbod qildi. Sovet qo'shinlari fashistlarning Volgadagi shahar uchun janglarda qatnashayotgan asosiy kuchlarini kuchsizlantirdilar. Bu esa qayta hujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratib berdi. Sovet qo'shinlarning qayta hujumi 1942yil 19 noyabrda boshlanib 30 noyabrgacha davom etgan. Birinchi bo'lib 19 noyabr kuni hujumga Janubiy-G'arbiy va Don frontlari armiya qo'shilmalari o'tishdi, 20 noyabrda esa Stalingrad front qo'shinlari. 23 noyabrda Janubiy-G'arbiy va Stalingrad frontlarning harakatchan qo'shilmalari Kalach yonida uchrashdilar va dushmanning 22 diviziya, 4 tank armiyasi, umumiy soni 330 ming kishilik gruppirovkasini qurshovga olishni tamomladilar. Noyabr oyining oxiriga kelib sovet qo'shinlari besh yuz kilometr uzunroq tashqi qurshov qal'asini hosil qildilar. Qurshovda qolgan o'z qo'shinlariga yordam berish maqsadida nemis qo'mondonligi G'arbiy Yevropadan, Shimoliy Afrikadan qo'shimcha kuchlarni yig'ib, yangi "Don" nomli armiyalar guruhini tashkil etishdi. 12 dekabrda gitlerchilar Kotyolnikovo qishloq tomonidan zarba berib, qamalni yorib o'tishga urinib ko'rishdi. Bu yerda 13 diviziyadan, shu jumladan, tank, motorlashtirilgan diviziyalardan qudratli zarbdor gruppirovka tuzilgan edi. Ammo sovet qo'shinlari 2- gvardiyachi armiyani jangga solib, dushmanni to'xtatishga, so'ngra esa tor-mor

qilishga muvaffaq bo'ldi. Qurshab olingan gruppirovkani yo'q qilish operatsiyasi Don front qo'shinlariga yuklatilgan edi. 1943 yil 10 yanvarda sovet qo'shinlari hujumga o'tdilar, 2 fevralda esa gruppirovkaga rahbarlik qilgan general-feldmarshal Paulyus taslim bo'ldi. Stalingrad jangiga yakun yasaldi.

Stalingrad ostonadagi sovet qo'shinlarining g'alabasi katta harbiy-siyosiy ahamiyatga ega edi:

1.U ikkinchi jahon urushida tub burilishga asos soldi, Ikkinchi jahon urushda strategik

tashabbusi Sovet armiya qo'liga o'ta boshladi.

2.Bu yerda fashistlar o'z qurolli kuchlarining deyarli 25% yo'qotishdi;

3.Bu mag'lubiyat fashist imperiyasining zaminini larzaga soldi, uning armiyasi va aholisining ma'naviy ruhini keskin tushirib yubordi. Germaniya o'z mag'lubiyatni tan olishga majbur bo'lib uch kunlik motam e'lon qilindi.

4.Xalqaro maydonda SSSRning obro'si yanada oshdi;

5.Evropaning bosib olingan mamlakatlarida fashistlarga qarshilik ko'rsatish harakati yanada

yuksalib bordi; 60

6.Antigitlerovchilar ittifoqi mustahkamlandi;

7.Yaponiya va Turkiya urushga kirish fikrdan qaytishdi.

Stalingrad jangida sovet qo'shinlar g'alabasining sabablari quyidagidan iborat:

- 1942 yilga kelib sovet iqtisodiyoti harbiy yo'lga o'tgan edi;

- sovet askarlar va ofiserlarning jangovar mahorati va tajribasi oshgan edi;

- partizan harakati avj olgan edi;

- G'arbiy Yevropada qarshilik harakati faollashdi;

- Antigitlet ittifoq davlatlarning hamkorligi kuchaydi.

Stalingrad ostonadagi g'alaba qizil armiya butun front bo'yicha hujumga o'tishga imkoniyat berdi. Shimoliy Kavkazda

fashistlarning qurshovda qolishi xavfi tug'ildi va ular chekina boshlashdi. 1943 yil 12-18 yanvarda Leningradni qamal qilib turgan dushman qamali yorib o'tildi. Bryansk, Voronej, Janubi-G'arbiy va Janubiy frontlarning hujumi Moskvaga solib turilgan tahdidni o'zil-kesil barxam qildi. 1942-1943 yilgi qishki kompaniya davomida sovet qo'shinlari katta muvaffaqiyatga erishdilar va yangi hujum operatsiyalari uchun qulay sharoitlarni yaratib berdi.1943 yilgi qishki janglar iyul boshlarigacha davom etgan osoyishtalik bilan almashildi, ikki tomon yangi hal qiluvchi janglarga tayyorgalik qo'rishgan edi.

Gitlerchilar qo'mondonligi Stalingrad uchun qasos olmoqchi bo'lib, urushning borishini o'z foydasiga o'zgartirmoqchi bo'ldi. Germaniyada total(yalpi) safarbarlik e'lon qilindi, armiya yangi jangovar texnika- "tigr" va "pantera" deb atalgan og'ir tanklar, "ferdinand" nomli o'zi yurar to'plar, yangi samolyotlar bilan qurollantirdi. "Sitadel" deb nom olgan yangi yirik hujum operatsiyasini amalga oshirish uchun fashistlar Kursk yo'nalishini tanlashdi. Ularga g'arb tomonga ancha chiqib borgan Kursk dunligi(vistup) sovet qo'shinlarini qurshab olish va tormor qilish hamda strategik tashabbusni qayta qo'lga kiritish uchun qulay imkoniyatlar yaratib bergan edi. Asosiy umid frontning tor uchastkalarida to'satdan tanklar bilan yopirilib zarba berishga qaratildi. Operatsiyani amalga oshirish uchun fashistlar Kursk ostonada katta kuchni to'pladi - 50 diviziya, shu jumladan, 16 tank va mexanizatsiyalashgan diviziya. Ularning tarkibida 900 ming kishi, 10 minggacha to'p va minomyotlar, 2700 tank, 2000dan ortiq jangovar samolyotlar.Sovet qo'mondonligi bu reja haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, atayin mudofaaga o'tish to'g'risidagi qarorni qabul qildi. Maqsad- mudofaa janglarni olib borib, natijada fashist qo'shinlarga katta zarar yetkazib, undan so'ng qayta hujumga o'tib, dushmanni tor-mor etish. Buning uchun sovet qo'mondonligi to'rtta frontni tashkil etdi - Markaziy, Voronej, Bryansk va Dasht frontlarni. Ularning tarkibida 1,3 mln.

askar va ofitserlar, 20 ming to'p va minomyot, 3300 tank, 2650 samolyotlar bor edi. Bu yerda sovet qo'shinlari chuqur eshlonlashtirilgan mudofaani tashkil etishdi. Shundan ko'rinadiki, sovet qo'shinlarining ustunligi ta'minlangan edi.

Fashistlar hujumi 1943 yil 5 iyulda boshlandi. Bu muddatdan xabardor bo'lgan sovet qo'mondonligi hujum boshlanishidan oldin dushman ustiga kuchli artilleriya o'qini yog'dirdi. Natijada dushman boshlang'ich pozitsiyalardayoq katta talofatlar ko'rdi, ammo o'z hujumini davom ettirdi. Ba'zi yo'nalishlarda fashist qo'shinlari sovet mudofaasini yorib o'tib, 15-20 km. ichkariga bostib kirishdi. Ammo, 12 iyulga kelib, fashistlar hujumi butun front bo'ylab to'xtatildi va sovet qo'shinlari qayta hujumga o'tishdi. Shu kuni Proxorovka qishlog'i yonida tarixda eng yirik tanklar to'qnashuvi bo'lib, unda ikkala tomonidan 1200 ga yaqin tank qatnashdi. O'z hujumini davom etib sovet qo'shinlari 5 avgustda Oryol va Belgorod shaharlarini ozod qilishdi, 23 avgustga kelib Xarkov ozod qilindi. Shu bilan Kursk jangi tugadi. Kursk ostonalarida bo'lgan 30 kunlik jang mobaynida fashistlar 500 000 soldat va ofitserlarni yo'qotishdi, Germaniyaning tank qo'shinlari va harbiy-havo kuchlari juda katta talofat ko'rib, urushning oxirigacha o'z qudratini tiklab olisha olmadi. Kursk ostonadagi g'alaba ikkinchi jahon urushining borishida tub burilishni yakunladi, ya'ni strategik tashabbus butunlay sovet armiya qo'liga o'tdi. Katta talofat ko'rgan fashistlar, bu talofatlar o'rnini to'ldirishga muvaffaq bo'la olmadilar. Endi Gitler qo'shinlari asosan chekinib borishsa, sovet qo'shinlari esa, aksincha, butun sovet-germaniya front bo'yicha hujumga o'tishdi.

Kursk ostonadagi g'alaba Ukrainani ozod qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berdi. 1943 yil 20 sentabrga kelib sovet qo'shinlari Dneprga chiqishdi va daryoni kechib o'tishdi. 1943 yilning 6 noyabrda Kiyev ozod qilindi. 1943 yilning oxiriga kelib, dushman bosib olgan sovet hududining yarmisi ozod

qilindi. Shu davrga kelib sovet harbiy san'ati yanada rivojlandi.

Strategik tashabbus uchun kurashning har bir bosqichida harbiy-siyosiy vaziyatni va kuchlar real nisbatini ob'ektiv hisobga olish, asosiy zarbalar yo'nalishini belgilash, frontlarning o'zaro haraktlarini tashkil etish, rezervlardan to'g'ri foydalanish sohasida qimmatli tajriba orttirildi. Sovet qo'shinlari dushmanning katta kuchlarini qurshab olish va tor-mor qilish, yirik suv to'siqlarini kechib o'tish operatsiyalarni amalga oshirish o'z tajribasini boyittishdi. 1944 yilga kelib sovet bosh qo'mondonligi sovet yerlarini bosqinchilardan ozod qilish uchun yangi hujum rejalarini ishlab chiqdi. Qizil Armiyaning jangovar qudrati ancha oshdi. Uning saflarida 6,3 mln. ortiq askar va ofitserlar, ixtiyorida 5,3 mingga yaqin tank va o'ziiyurar to'plar, 10 mingdan ortiq samolyot va 86,7 mingdan ko'p to'p va minomyotlar bor edi. Og'ir mag'lubiyatlarga qaramay, fashist Germaniyaning armiyasi hali ko'p sonli, yaxshi qurollangan va yetarli darajada jangovar armiya edi. Dushman 1944 yil boshida sovet-german frontida 5 mln.ga yaqin askar va ofitser, 54 mingdan ortiq to'p va minomyot, 5 mingdan ortiq tank va o'zi yurar qurilmalar, 3 mingga yaqin samolyotga ega edi.

1944 yil mart-aprel oylarida o'ng sohil Ukraina, Krim bosqinchilaridan tozalandi. Shu yilning yozgi hujum rejaları ishlab chiqarilib, asosiy operatsiya Belorussiyada o'tkazilishi qaror qilindi. Bu operatsiyaning nomi " Bagration" bo'lib, uning natijasida Belorussiya, Ukrainaning qolgan qismi ozod qilinib, Boltiq bo'yi hududidagi fashist qo'shinlari qurshovga olinib, barcha bosib olingan sovet yerlari ozod qilingan bo'lishi kerak edi. Fashistlar Belorussiyaning ahamiyatini yaxshi tushunib, bu yerda katta kuchlarni to'plashdi(1,2 mln. ortiq askar va ofitserlar, 9,5 ming to'p va minomyotlar, 900 tank, 1300 samolyot).Belorussiyadagi "Bagration" operatsiyasi 1944 yil 23 iyunda boshlandi. Unda 1- Boltiq bo'yi, 1,2,3, Belorus frontlari ishtirok etishdi. Ular 1,4 mln. askar va ofitser, 31 ming to'p va



minomyot, 5200 tank, 5 ming samolyot ega edilar. hujumni boshlagan sovet 7qo'shinlari Vitebsk, Minsk, Bobruysk shaharlar ostonada dushmanni 17 diviziyani, 3 brigadani yo'q qilishda, 50 diviziya o'z shaxsiy tarkibining yarmisini yo'qotishdi. Sovet qo'shinlarining muvaffaqiyatli avj olib borilgan hujumi Baltikadan Karpatgacha bo'lgan masofani qamrab oldi. 1944 yil avgustda sovet qo'shinlari Yasso-Kishinyov operatsiyasining natijasida Moldaviya, sentabrga borib esa Boltiqbo'yi respublikalar ozod qilindi. O'z hududni tozalab, sovet qo'shinlari Sharqiy Yevropa xalqlarini ozod qila boshlashdi. 1944 yil avgust-sentabr oylarida Polsha, Ruminiya, Bolgariya ozod qilindi, Sharqiy Prussiyaga kirib bordilar. 1944 yil 6 iyunda ittifoqchilar (AQSh, Angliya) Shimoliy Fransiyada ikkinchi frontni ochishdi. Endi asosiy masala- Berlinni qo'lga kiritib, fashist Germaniyani tor-mor etish edi. Qaqshatqich zarbalarga qaramay, gitlerchilar Germaniyasi hali ham kuchli dushman edi. Uning Berlin yo'nalishidagi armiyasida 1 mln. dan ortiq askar va ofitser, 10 mingdan ortiq to'p va minomyot, 3,5 ming samolyot, 1,5 ming tank bor edi.

Berlinning sharqiy qismida kuchli mustahkamlangan mudofaa inshootlari, ko'p miqdorda o'q otish nuqtalar va minalashtirilgan maydonlar joylashgan edi. Berlin yo'nalishida qat'iy hujum olib borish uchun sovet qo'mondonligi 1 va 2-Belorussiya frontlari hamda 1-Ukraina frontning qo'shinlarini ajratdi. Ularning tarkibida 2,2 mln kishi, 34,5 ming to'p va minomyot, 6,5 ming tank, 4,8 ming samolyot mavjud edi. Berlinga hujum 1945 yil 16 aprelda boshlandi. 21 aprelda Qizil Armiyaning zarbdor qismlari Berlin atroflariga yorib o'tib, shaharning o'zida jang boshlab yubordilar. 1945 yil 8 may kuni Berlin yaqinidagi Karlxorst shaharchasida nemis feldmarshali, vermaxt Bosh qo'mondonligi shtabning sobiq boshlig'i Keytel, harbiy-dengiz kuchlari bosh qo'mondoni flot admirali Fridenburg, va aviasiya general-polkovnik Shtumpf fashistlar Germaniyasining so'zsiz

taslim bo'lish haqidagi hujjatga imzo chekishdi.

Ammo, shu bilan ikkinchi jahon urushi tugamadi. Uzoq Sharqda fashist Germaniyaning ittifoqchisi -militaristik Yaponiya urushni davom ettirgan edi. 1945 yil 9 avgustda Sovet Ittifoqi o'z ittifoqchilar bilan kelishib, Yaponiyaga qarshi urushni boshladi. Sovet qo'mondonligining mo'ljali Manchjuriya markazida tutashdigan yo'nalishlar bo'yicha ikkita asosiy va bir nechta yordamchi zarbalar berib, yapon kuchlarining asosiy zarbdor kuchi- 1mln.dan ortiq kishiga ega bo'lgan Kvantun armiyasini qurshab olish va qismlarga bo'lib, tor-mor qilishdan iborat edi. Sovet qo'shinlari hujumga o'tish arafasida 6 va 9 avgust kunlari AQSh aviasiyasi Xirosima va Nagasaki shaharlarga, tarixda birinchi marta, atom bombani tashagan edi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunga hech qanaqa zaruriyat yo'q edi. Manchjur operatsiyasi 9 avgustdan to 2 sentabrgacha davom etib, Kvantun armiyasi tor-mor etildi. 1945 yil 2 sentabrda AQShning "Missuri" linkor bortida Yaponiya qo'mondonligi so'zsiz taslim bo'lish hujjatga imzo chekdi. Ikkinchi jahon urushi tugadi.

Ikkinchi jahon urushida fashist Germaniyani va militaristik Yaponiyani tor-mor etishda AQSh va Angliya ham o'z hissalarini qo'shishdi. Ikkinchi jahon urushning dastlabki bosqichda Angliya Germaniyaga qarshi kurashni asosan Shimoliy Afrikada olib borgan. Shu bilan Angliya fashist Germaniya Misr orqali Yaqin Sharqni egallash rejalarga qarshilik ko'rsatmokchi edi. 1941-1942 yillarda asosiy janglar Liviyada bo'lib o'tgan. Gitlerchilar Shimoliy Afrikani qo'lga olib, O'rta Yer dengizida hukmronlik qilish uchun Shimoliy Afrikaga general Rommel boshchiligida 2 diviziyani yuborishdi. Undan tashqari, bu yerda italyan qo'shinlari ham bor edi. Germaniyaning asosiy kuchlari Sharqiy frontda bo'lganidan foydalanib, inglizlar 4 diviziya va 2 brigada kuchlari bilan 1941 yil 18 fevralda hujumga o'tishdi, ammo, fashistlarning kuchli qarshiligiga uchrab, chekinishga majbur bo'lishdi. Inglizlar bilan nemis qo'shinlar o'rtasidagi eng katta

jang 1942 yil 23 oktabrdan- 23 noyabrgacha Al-Alameyn yonida bo'lib o'tgan. Bu yerda inglizlar 8 diviziyani yig'ishdi, shu jumladan, 3 tank, 2275 to'p, 1200 samolyot. Fashistlarda esa 14 diviziya, jumladan, 4 tank va 2 motorlashtirilgan diviziya, 470 tank, 1450 to'p, 689 samolyot bor edi. Al-Alameyn hujumi natijasida inglizlar 1200 km. masofaga bosib kirishdi, nemis qo'shinlari esa chekinishga majbur bo'ldi. Bu Angliyaning Shimoliy Afrikadagi yagona katta g'alaba edi.

AQSh 1941 yil 7 dekabrgacha betaraf siyosatni olib borishgan edi. Ammo, 1941 yil 7 dekabrda yapon harbiy-dengiz kuchlar AQShning Gavay orollarda joylashgan Perl-Xarbor harbiy-dengiz bazasiga hujum uyushtirib, bu yerda joylashgan AQShning Tinch okeandagi flotnig asosiy qismi yo'qqilindi. 8 dekabrda AQSh Yaponiyaga urushni e'lon qildi, 11 dekabrda esa Germaniya va Italiyaga. Ammo, 1942 yilning maygacha jangovar harakatlarini olib borishmagan. 1942yilga kelib AQSh o'z harbiy qudratini tiklab Tinch okeanda jangovar harakatini boshlab yubordi. 1942 yilda Miduey orol uchun jangida AQSh yapon harbiy-dengiz kuchlar ustidan g'alaba qozondi. Yaponlar bu jangda 4 avianos, 253 samolyotni yo'qotishdi. 1943 yilga kelib AQSh va Angliya Tinch okeanda o'z hukmronligini o'rnatishdi. 1944 yil fevralda ular Marshal va Marian orollarni egallab olishdi. Shu yilning oktabr oyida Filippin orollar uchun kurash boshlanib, AQSh va Angliya ularni egallab, Yaponiya orollarga yo'lni ochishdi. Evropada ittifoqchilarning harakati Sharqiy frontdagi ahvol bilan belgilanar edi. 1943 yil mayoyiga kelib AQSh va Angliya Shimoliy Afrikani fashistlardan tozalab, Sisiliya orolga hujum boshlashgan edi. 1943 yil 10 iyulda ular orolni qo'lga kiritib, Appenin yarimorolga hujumni davom ettirishdi. 3sentabr kuni Italiya taslim bo'lib, ittifoqchilar bilan yarashish shartnomani imzoladi. 1944yil 6 iyunda SSSRning talabiga binoan AQSh va Angliya Shimoliy Fransiyaga o'z qo'shinlarini tashashdi. Shu bilan ikkinchi front ochildi, ammo, urushning

oxirigacha asosiy, hal qiluvchi janglar sovet-german frontda bo'lib o'tdi.. 1945yil 25 aprelda Elba daryosida AQSh va sovet qo'shinlari uchrashishdi.

Ikkinchi jahon urushda nasist Germaniya, fashist Italiya va militaristik Yaponiya ustidan

qozonilgan g'alaba olamshumul ahamiyatga ega:

- Bu g'alaba ko'rsatdiki, yagona xavfni bartaraf etish uchun turli mafkuraga ega bo'lgan davlatlar birlashish mumkin.

- G'alabaning natijasida fashizm yakson qilindi, dunyo xalqlari ozodlikka chiqishdi.

- Butun dunyoda demokratik kuchlar kuchayib bordi, yer yuzida demokratiyani rivojlanishga yo'l ochib berildi.

#### Savollar va vazifalari.

1. Ikkinchi jahon urushi arafasida xalqaro ahvol?
2. Ikkinchi jahon urushining sabablari ?
3. "G'alati urush", uning mohiyati va sabablari ?
4. Ikkinchi jahon urushida birinchi va ikkinchi davrlarning farqi?
5. Ikkinchi jahon urushida tub burilishi, uning mohiyati?
6. Nima sababdan AQSh va Buyuk Britaniya ikkinchi frontni faqat 1944y. ochishgan edi?
7. Ikkinchi jahon urushning saboqlari?

## 8 MAVZU: Ikkinchi jahon urushidan so'ng qurolli mojarolar.

Reja:

1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro ahvol. " Sovuq urush" siyosati, uning oqibatlari.
2. Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi qurolli mojarolar.
3. Arab-Isroil mojarosi.
4. Iroq-Eron mojarosi.

Ikkinchi jahon urushdan so'ng dunyoda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Yer yuzida ikkita jahon tizimi vujudga keldi-sotsialistik va kapitalistik. Ular o'rtasidagi qarama-qarshilikning natijasida mustamlaka davlatlarda milliy-ozodlik kurash avj oldi va jahon mustamlaka tizimi yemirila boshladi. Sotsialistik va kapitalistik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlari boshlangan "sovuq urush" siyosatida o'z aksini topdi. U.Churchill 1946 yilda Fultonda (AQSh) so'zlagan nutqida "ruslarga kuchimizni ko'rsatib qo'yaylik, ingliz tilida so'zlashuvchi dunyoni sharqiy kommunizmga qarshi jipslashtiraylik", degan da'vo bilan chiqdi. Bu "sovuq urush"ga yo'l ochgan edi. " Sovuq urush"- bu ikkita tizimlar o'rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan xalqaro munosabatlarning maxsus shaklidir. Ikkita tizimlar o'rtasidagi kurash siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va harbiy raqobat shaklida bo'lib o'tib, o'z doirasiga boshqa mamlakatlarni ham tortib oladi. Shuning uchun bu kurash global xarakterga ega bo'lib, butun dunyo xavfsizlikka tahdid solgan edi. 1949 yil 4 aprelida AQSh tashabbusi bilan kapitalistik davlatlar harbiy-siyosiy Shimoliy Atlantik ittifoqi (NATO) tashkil etildi. U 12 davlatdan iborat edi-AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Belgiya, Daniya, Islandiya, Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Norvegiya, Portugaliya. Hozirgi davrda NATOga GFR, Bolgariya, Vengriya,

Ispaniya, Gresiya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya kabi davlatlar a'zodirlar. Rasmiy jihatdan uning maqsadi Yevropada tinchlikni saqlash edi, amalda esa sotsialistik va milliy-ozodlik harakatlarga qarshi kurashni olib borib, sotsializmni yo'q qilish edi. AQSh o'z atom quroliga tayanib boshqa davlatlarga, avvalom bor, SSSRga, o'z izmini o'tkazmoqchi edi. Shunga javoban, 1949 yilda Sovet Ittifoqi atom bombani yaratib, uning sinovini o'tkazdi. Bu, xalqaro maydonda, kuchlar nisbatini o'zgarishiga olib keldi. 1955yilda SSSRning tashabbusi bilan sotsialistik davlatlar birlashib, harbiy-siyosiy ittifoqni - Varshava shartnoma tashkilotini tashkil etishdi. O'z ustunligini ta'kidlamoqchi bo'lib, AQSh SSSR va sotsializmga qarshi turli qit'alarda harbiy-siyosiy bloklarni tashkil etgan-1951yilda- ANZYS( Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSh ishtirokida), 1954yilda - SEATO (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Tailand, Filippin ishtirokida. 1977y o'z faoliyatini tugatdi), 1955yilda- SENTO ( Eron, Turkiya, Pokiston, Iroq ishtirokida, 1979y. tugatildi.). Ikkita harbiy ittifoqlar o'rtasidagi kurash qurollar poygasiga olib keldi, ya'ni davlatlar yangi, zamonaviy qurollarni kashf qilib, dunyodagi o'z ustunligini ta'minlamoqchi edi. Asosiy maqsadi-dunyoda o'z harbiy hukmronligini o'rnatish. Qurol poygasining asosiy bosqichlari:

AQSh	SSSR
Yadro qurol	
40- y. o'rt.	40- y. oxiri.
Strategik bombardimon samolyotlar	
50- y .o'rt.	50- y. oxiri
Atom suv osti kemalar	
50- y. o'rt.	50- y. oxiri

	Atom avianosistlar
60- y. bosh.	Yuk
	Bo'linib ketayotgan raketalar
60- y. o.	70- y. o'rt.
	Neytron bombalar
80- y. bosh.	Yuk
	87
	Qanotli raketalar
70- y. o'rt.	80 - y. o'rt.

Qurol poyganing natijasida harbiy-sanoat kompleksi kuchayib ketdi . Harbiy-sanoat kompleksi - harbiy doiralar, davlatning boshqaruv organlar va harbiy sanoatning birlashmasi. Ularning maqsadi - Yer yuzidagi qurolli mojarolarni ko'paytirish, harbiy sanoatni buyurtmalar bilan ta'minlash va qurollar ishlab chiqarishni ko'paytirib, foydani oshirishdir.

Ikkita jahon tizimlar o'rtasidagi qarama-qarshilik dunyoda qurolli mojarolarni ko'payishiga olib keldi- 1950-1953y.y. AQSh bilan Shimoliy Koreya , 1956 y. G'arb davlatlar bilan Misr, 1964-1972y.y. AQSh bilan DRV o'rtasida. Ikkita tizim o'rtasidagi qarama-qarshilikda asosiy e'tibor atom qurolni yaratishga va takomillashtirishga qaratilgan edi. 1949y.gacha bu sohada monopoliya AQSh qo'lida edi, ammo 1949 yildan boshlab bu monopoliya yo'oldi, SSSR ham o'z atom qurolni yaratdi. 1953 y. esa SSSR birinchi bo'lib termoyadro bombani yaratgan edi. Atom bombani manzilga yetkazish uchun dastlabki bosqichda asosiy vosita samolyot edi, ammo 1953y. SSSR birinchi bo'lib raketani yaratib, uchirganidan so'ng, raketalar atom qurolini yetkazuvchi asosiy vositalarga aylandi. Turli raketalar ishlab chiqarilgan edi: boshqariladigan va boshqarilmaydigan. Maqsadga va uchirish joyiga qarab ular " yer-yer", " havo-havo", " yer-havo" va " havo-yer" turlariga bo'linadi. Uchish masofasiga qarab strategik, operativ-taktik va taktik raketalar yaratildi.Strategik raketalarning

uchish masofasi cheklanmagan. Katta tezligiga ega bo'lib, ular Yer yuzidagi xohlagan nuqtaga uchib borish mumkin(10 ming km. ular 30 min.bosib o'tadi).Operativ-taktik raketalar dushmanning operativ va taktik chuqurlikda joylashgan manzillarga uchib borish mumkin, ya'ni 100-500km.cha. Taktik raketalarning uchish masofasi 10-100km.Raketa-yadro qurolning qo'llanilishi jangovar harakatlarning tabiatini tubdan o'zgartirdi. Oldin hujum harakatlarida asosiy rolni quruqlikdagi qo'shinlar o'ynagan bo'lsa, endi esa strategik raketa qo'shinlari, uzoq masofaga uchuvchi aviasiya va atom suv osti kemalar birinchi o'ringa chiqdi. Urushning xarakteri ham o'zgardi, endi front va front orqasi kabi tushunchalar yo'q bo'ldi. Zamonaviy urush butun mamlakat hududni qamrab olish mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy harbiy san'atga ko'ra, g'alabaga erishish uchun barcha qurolli kuchlardan foydalanish zarur. Faqat ularning birlashgan harakatlari o'ylagan natija berish mumkin. Urushdan keyin sobiq ittifoqchilar, ya'ni AQSh va SSSR, bir-birini yo'q qilish uchun turli rejalarni ishlab chiqishdi. Ularni birlashtiruvchi narsa shu ediki, g'alabaning asosiy omili deb ular yadro qurolini tanlashdi. 40- yillarda AQSh atom qurolga ega bo'lib, "ommaviy zarba" strategiyani ishlab chiqdi. M. "Xafmun"(1948y), " Oftekl"(1949y.), " Dropshot" (1949Y.) rejalari. Bu rejalarga ko'ra, AQSh SSSRni mag'lubiyatga uchratish uchun, uning asosiy markazlarini atom bombalar bilan bombardimon qilib, yakson qilish kerak edi. Ammo SSSR ham yadro qurolini ishlab chiqqandan so'ng "ommaviy zarba" strategiya o'rniga "cheklangan urush" nazariyasi yaratildi. Unga ko'ra, SSSRga qarshi urushni asosan Yevropada olib borish rejalashtirilgan edi. Shu urushning maqsadi – to'satdan dushmanga zarba berib, uni taslim bo'lishiga majbur qilish.50-yillarga kelib, AQShda xulosa qilishdiki, urush boshlanishi bilan butun armiyani qisqa vaqt ichida safarbar qilish qiyin ish. Shuning uchun ham tinch vaqtda urushga tayyor bo'lgan tez

harakat qiluvchi qurolli kuchlarni tashkil etish rejalashtirilgan edi. Natijada, doimiy navbatchilikda turgan strategik aviatsiya, strategik raketa qo'shinlari, atom suv osti kemalar yaratilgan edi. Dushmanga qarshi urushni olib borish uchish AQSh ham, SSSR ham Yer yuzining turli hududlarda o'z harbiy bazalarni yaratishgan edi.

Ikki jahon tizimi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar insoniyatni uchinchi jahon urushi arafasiga olib kelgan edi. Ayniqsa, 60-yillarda vaziyat keskinlashdi. Shu yillarda dunyoni yadro urushi halokatga olib kelgan "Karib inqirozi" sodir bo'ldi. 1959 yilda Kubada inqilob natijasida so'l hukumat tuzilgan edi. Yangi hokimiyatni boshqargan F.Kastro Kubada sotsializm qurilishini e'lon qildi. SSSR Kubaga katta moliyaviy, moddiy-texnika yordamini ko'rsatdi. 1961yilda AQSh yordamida Kubaga qarshi harakat kuchlari Kubaga hujum uyushtirishdi. F Kastro SSSRdan yordam so'radi. Sovet rahbariyati yashirin ravishda Kuba hududiga o'rtacha olislikka uchadigan va atom bombasi bilan ta'minlangan raketalarni joylashtirdi. Bundan xabar topgan AQSh Kubaga qarshi dengiz qamalini uyushtirdi. SSSR ham, AQSh ham o'z qo'shinlarini jangovar tayyorgalikka olib kelishdi. Dunyo yadro urush yoqasiga kelib qoldi. N.S.Xrushchov va Jon Kennedi 1962 yil 28 oktabr kuni o'zaro kelishuviga erishdilar. Unga ko'ra, SSSR Kubadan o'z raketalarni olib chiqadi, AQSh esa Kubaga bostirib kirmaslikka so'z berdi hamda Turkiyadan o'z raketalarni olib chiqib ketishi kerak edi. Ammo sovuq urush davom etdi. 70 yillarning ikkinchi yarmida SSSR Sharqiy Yevropada o'z o'rta masofaga uchadigan raketalarni (SS-20) joylashtirgan edi. Javoban, AQSh 1982 yildan boshlab G'arbiy Yevropada o'rta masofaga uchadigan "Pershing-2" raketalarni joylashtirishni boshlagan edi. Raketalarni manzilga uchish vaqti 10-15 min. bo'lgani uchun bu yangi jahon urushi boshlanish xavfini oshirdi. Ikkita kuchli davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik xalqaro munosabatlarni keskinlashtirib, turli lokal urushlarga olib

keldi. Bu urushlarning asosiy maqsadi o'z ta'sir doirasini kengaytirib, o'z raqibini iqtisodiy va harbiy jihatdan zaiflashtirib, xalqaro maydonda o'z mavqeini kuchaytirish. Eng katta lokal urushlar deb Vetnam (1945-1954, 1964-1972), Koreya (1950-1953 y.y.), Misr (1956 y.), Afganiston (1979-1989 y.) dagi urushlarni ko'rsatish mumkin. 1945 y. 2 sentabrda xalq-ozodlik inqilobning natijasida Demokratik Respublika Vetnam tashkil topdi. Shu paytgacha u Fransiyaning mustamlakasi bo'lgan edi. 1945 yilning oxirida fransuz qo'shinlari, AQSh va Angliyaning roziligi bilan, DRVga qarshi urush boshladi. Qisqa vaqt ichida DRVning xalq armiyasi tor-mor etilib, o'z hukmronligini tiklab, Janubiy-Sharqiy Osiyoda sotsializm tarqalishini to'xtatmoqchi bo'lishgan edi. Dastlabki bosqichda fransuz armiyaning soni 90 ming edi, ammo 1954 y. gacha u 250 ming kishiga oshgan edi. Ular 250 tank, 1000 BTR, 1500 to'p va minomyot va 450 samolyot bilan qurollatirilgan edi. Kuchlar nisbatini hisobga olib, DRV hukumati fransuz qo'shinlariga qarshi partizan harakatini tashkil etdi. Ularga qarshi fransuz qo'shinlari havo-desant qo'shinlaridan keng foydalanishgan. Vetnam qo'shinlarining taktikasi- desantni qurshovga olib; tor-mor qilishdan iborat edi. 1947 yilga kelib, bosqinchilar mamlakatning ko'p qismini egallashgan bo'lsa ham, ularning hujumi to'xtatilmadi. Vetnam qo'mondonligi qurolli kuchlarni tiklab, yangidan qurollantirib, hujumga o'tishga buyruq bergan edi. 1948-1949 yy. fransuz qo'shinlari mudofaaga o'tishdi. 1949 yilda Xitoyda inqilob g'alaba qozonib, Xitoy xalqi Vetnamga katta yordam ko'rsatdi. Ular yordami bilan 6 piyoda diviziya, 13 polk, maxsus qismlar tashkil etildi. 1953-1954 y.y. DRV qurolli kuchlari hujumga o'tib, mamlakatning asosiy qismini ozod qilishdi. Fransiya DRV hukumati bilan muzokaralarni olib borishga majbur bo'ldi. 1954 yil 21 iyun kuni Jenevada urushni to'xtatish va fransuz qo'shinlarini olib chiqish to'g'risida shartnoma imzolandi. Ammo Vetnam ikki qismga

bo'lindi: Shimoliy (DRV) va Janubiy Vetnamga. Janubiy Vetnamda AQSh yordamida, unga qaram bo'lgan hukumat tashkil topdi. Shimoliy Vetnamda esa sotsialistik qurilish boshlandi, Janubiy Vetnamda kapitalistik tuzum o'rnatildi. 1960y. Janubiy Vetnamda vatanparvar kuchlar tomonidan Janubiy Vetnamni Ozod qilish Milliy front tuzildi (NFOYuV). 1961 yilda u o'z qurolli kuchlarini tuzib, mamlakatni ozod qilishga kirishdi. AQShga qaram bo'lgan hukumat ularga qarshilik ko'rsata olmagan. Shuning uchun 1964y. avgustda AQSh bevosita Janubiy Vetnamda urushni boshladi. Shu bilan birga, ADSh DRVga qarshi hujumga o'tdi. 60-yillarning oxiriga kelib, AQSh Janubiy Vetnamda zamonaviy qurol bilan qurollangan 500 minglik armiyani to'plagan edi. DRV o'zi og'ir ahvolda bo'lib, Janubiy Vetnamga katta yordam ko'rsatdi. O'z navbatida, DRV SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlardan katta harbiy, iqtisodiy yordam oldi. Harbiy texnika bilan birga bu yerga sovet harbiy mutaxassislar ham yuborildi. Janubiy Vetnamda NFOYuV olib borgan taktikasi umumxalq urushi edi. Jangovar harakatlar butun mamlakat hududida, partizan urush shaklida, faol, manyovrli xarakterga ega edi. Hujumlar bilan birga partizanlar mudofaa janglarni ham olib borishgan. 1970y. kelib tashabbus NFOYuV qo'liga o'tdi. 1972yilda Jenevada AQSh bilan NFOYuV vakillar o'rtasida muzokaralar boshlandi. 1973 y. yanvarda ular o'rtasida Parij sulhi imzolandi. Unga ko'ra AQSh o'z armiyani Janubiy Vetnamdan olib ketar edi, ammo unga qaram bo'lgan hukumat saqlanib qolgan edi. Bu hukumatga qarashli qurolli kuchlar bilan urush 1975y. davom etib, shu yilning 30 aprelda NFOYuV qo'shinlari poytaxti-Saygonni ozod qilishdi. 1976 yilda Shimoliy va Janubiy Vetnam birlashib, yagona davlatni tashkil etishdi. Ikkinchi jahon urushdan so'ng yana bir katta mojaro Koreyada, 1950-1953 yy. bo'lib o'tgan. 1945 avgustda Sovet armiyasi Shimoliy Koreyani yapon bosqinchilaridan ozod qildi, Janubiy Koreyani esa AQSh

qo'shinlari bosib olishdi. SSSR bilan AQSh o'rtasidagi shartnomaga ko'ra Koreya ikki qismga bo'lingan edi. 1948 yilda SSSR o'z qo'shinlarini Shimoliy Koreyadan olib chiqqan, ammo Janubiy Koreyada AQSh o'z qo'shinlarini saqlab qoldi. Ularning yordamida bu yerda Li Sin Man boshchiligida qo'g'irchoq hukumat tashkil etildi. 1949y. AQSh o'z qo'shinlarini olib chiqqan bo'lsa ham, ammo bu yerda o'z harbiy bazalarini saqlagan edi. 1948y. Shimoliy Koreyada Koreya Xalq Demokratik Respublika tashkil etildi. Shunga javoban Li Sin Man KNDR ga qarshi urushga tayyorgalikni boshladi. 1950y. 25 iyunida Shimoliy Koreya qo'shinlari Janubiy Koreyaga qarshi hujumga o'tishdi. KNDR qo'mondonligi rejaga ko'ra, urushning boshida hujumga o'tib, raqibni tor-mor etib, Janubiy Koreyani ozod qilish edi. Urushning boshida KNDR qo'shinlari ustun bo'ldi. Shimoliy Koreya qo'shinlari hujumga o'tib, 28 iyunda Janubiy Koreya poytaxti- Seul shahrini qo'lga kiritishdi. Bu vaziyatda AQSh o'z ittifoqchisiga yordam berish maqsadida ushbu masalani BMTda muhokama qilib, Shimoliy Koreya agressor deb tan olindi va unga qarshi urush harakatlar boshlashga ruxsat berdi. Yaponiya bazalarida joylashgan Amerika qo'shinlarini Janubiy Koreyaga tashaldi. Ularga AQSh ittifoqchilari ham qo'shildi. (1 iyuldan 8-iyulgacha). Amerika armiyasi Yaponiyadan ko'chirilib, 5 iyuldan jangga kirishdi, ammo mag'lubiyatga uchrab, mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. 15 sentabrda AQSh va uning ittifoqchilari o'z kuchlarini tiklab, qayta hujumga o'tishdi. Frontdan AQShning 8- armiyasi hujum olib borgan bo'lsa, front orqasiga 45 minglik desant tashaldi.

AQSh 260 kema, 400 samolyot ishlatib, Janubi-G'arbiy Koreyada KXDR armiyaning bir qismini qurshovga oldi. Uning bir qismi partizan harakatini boshlab yuborgan bo'lsa, ikkinchi qismi esa qurshovni yorib o'tib, shimolga chekindi. 1950 y. oktabr o'rtalariga kelib, AQSh va Janubiy Koreya qo'shinlari Koreya-Xitoy chegaraga chiqishdi. Bu esa Xitoy

xavfsizligiga xavf tug'dirar edi. Xitoy hukumati KXDRga yordam berish to'g'risida qarorni qabul qilib, Shimoliy Koreyaga o'z qo'shinlarini yubordi. 1950y. 26 noyabrga kelib KNDR va Xitoy qo'shinlari qayta hujumga o'tib, dushmanni 100-150 km. chekinishga majbur qilishdi. Jangovar harakatlar 1951y.-gacha davom etgan. SSSRning ham Koreya urushiga aralashishi mumkinligi aniq-ravshan bo'lib, AQSh KXDR bilan muzokaralarni olib borishga majbur bo'ldi. 1953y. 27 iyulda muzokaralar yakunlanib, Shimoliy Koreya o'z mustaqilligini saqlagan edi, ammo mamlakat ikki qismga bo'linishi saqlandi. Yarashish shartnomasi imzolangan bo'lsa ham, ammo sulh shu paytgacha tuzilmagan. 2007 yil 3 oktabrda ikkita Koreya davlatlari o'rtasida "Tinchlik to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qilinib, birlashish to'g'risida muzokaralar boshlangan edi, ammo ular natija bermadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng BMT 1947y. 29 noyabrda Falastinda ikkita davlat tashkil etilishi (Isroil va Falistin) haqida qaror qabul qildi. 1948 yilda 12 mayda Isroil davlati tashkil etildi-yu, ammo Falastin davlati tashkil etilmay qoldi. Bu arab davlatlari tomondan qarshilikka uchradi. 1948y. birinchi arab-isroil urushi bo'lib o'tdi. AQSh yordamida Isroil yaxshi qurollangan armiyani tashkil etib, Falastin davlatiga ajratilgan 7ming kvadrat km. hududni bosib oldi. 400 ming arablar yashagan joylardan haydalgan edi va boshqa davlatlarga qochishga majbur bo'lishdi. 50- yillarda Yaqin Sharq AQSh va SSSR o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik maydoniga aylandi. SSSR arab davlatlarini, AQSh esa Isroil davlatini qo'llab-quvvatlangan edi. 1952y. Misrda inqilob natijasida monarxiya ag'darilib, respublika e'lon qilindi. 1956y. yangi hukumat Sues kanali musodara qilindi, shunga javoban Angliya, Fransiya va Isroil Misrga qarshi hujum uyushtirishdi. Ularning rejasiga ko'ra, Isroil qo'shinlari hujumga o'tib, Misr armiyasini Sues kanali oldida ushab turish kerak edi. Shundan foydalanib, ingliz va fransuz qo'shinlari shimolda harbiy-havo, harbiy-dengiz, harbiy-

desant qo'shinlaridan foydalanib, arab armiyani qurshovga olib, tor-mor qilish kerak edi. Yosh misr armiyasi faqat 180 ming soldat va ofitser , 400 tank, 250 samolyot va 40 yengil kemaga ega edi. Ingliz-fransuz qo'shinlari 4 baravar ustun edi. 1956y. 29 oktabrda Isroil qo'shinlari, 31 oktabrda ingliz-fransuz qo'shinlari hujumga o'tishdi. Misr armiyasi qarshilik ko'rsatgan bo'lsa ham, ammo 3 noyabrga kelib kanal tomonga chekinishga majbur bo'ldi. 5-6 noyabrda inglizlar va fransuzlar havo va dengiz desant tashab, bir necha shaharlarni qo'lga olishdi. Ammo bosqinchilar g'alabaga erisha olmagan. SSSRning talabiga binoan, BMT bu hujumni qoralab, Angliya va Fransiyadan o'z qo'shinlarini olib chiqishni talab qildi. Ammo Angliya va Fransiya bu talabni rad etgandan so'ng, SSSR Misrga harbiy yordam berishni e'lon qildi. Misrga harbiy texnika, harbiy mutaxassislar yuborilgan edi. 1956y. 7 noyabrda bosqinchilar o'z qo'shinlarini Misrdan olib chiqishga majbur bo'lishdi. Arab dunyoda SSSRning obro'si ko'tarildi va aksincha, kapitalistik davlatlarning mavqeisi susaydi. Bu ikkinchi arab-isroil urushi hisoblanadi. Misrga qarshi urushda Isroilni ishtirok etishi arab davlatlari tomondan unga nisbatan bo'lgan dushmanlik hissiyotini yanada kuchaytirgan edi. 1967y. Isroil Misr, Suriya va Iordaniyaga qarshi urushni boshlagan edi. Shu urushni boshlash uchun Isroil AQSh dan katta moliyaviy, harbiy texnika yordam olgan edi. 1967yilga kelib Isroil 38 brigada safarbar qilib, ularni 900 tank, 600 samolyot, 800 BTR bilan qurollantirgan edi. Arab davlatlari ham SSSRdan katta harbiy yordam olishgan edi, ammo shu texnikani yomon o'zlashtirishi, intizomi past bo'lgani. Urush 6 kun davom etib, arablar urushda yutqazishdi. Natijada Isroil yangi 60 ming kvadrat km. hududni bosib olishdi (Misrdan - Sinay yarimorolni va Gaza sektorni, Suriyadan- Golan tepaliklarni, Iordaniyadan- Iordan daryoning Garb qirg'oqini), 10 yil davomida SSSR Misr va Suriyaga yetkazib bergan harbiy texnikaning deyarli barchasi Isroil qo'lga o'tdi, 1,5 mln. falastinliklar boshqa davlatlarga

qochishga majbur bo'lishdi. Bu uchinchi arab-isroil urushi edi. 1973y. 6 oktabrda to'rtinchi arab-isroil urushi boshlandi. Shu kuni Misr va Suriya armiyalari Isroilga hujum qilishdi. Uning dastlabki bosqichda misr qo'shinlari bosib olingan yerlarni ozod qilishga erishishgan edi, ammo uning oxirida chekinishga majbur bo'lishdi. Bu urushlar yana bir marotaba isbotladiki, zamonaviy urushda g'alabaning asosiy omili- shaxsiy tarkibining tayyorgaligi, uning jismoniy va ruxiy holati, harbiy texnikani o'zlashtirilishi.

1979y. 26 mart kuni AQSh isroil va Misr o'rtasida separat Kemp-Devid bitimi imzolanishga erishdi. Unga ko'ra, Isroil o'z qo'shinlarini 1982 yil aprelgacha Sinaydan olib chiqib ketishga rozilik berdi. Shunning evaziga Misr Isroilni suveren mustaqil davlat sifatida tan olish kerak edi. Misr Prezidenti Anvar Sadat 1980 yilda bu bitimni imzoladi. Arab ekstremistlari A.Sadatning bu qarorini qoralab va sotqinlik deb baholab, 1981 yilning 6 oktabrda uni o'ldirishdi. 1980-1990 yillarda arab davlatlari o'rtasida Yaqin Sharq davlatlari- Saudiya Arabiston, Kuvayt, Iordaniya, Livan, Birlashgan Arab Amirliklar va Ummon davlatlari bu muammoni Isroil bilan kelishuv orqali hal etish kerakligini yoqlab chiqdilar. Ammo boshqa arab davlatlari- Suriya, Iroq va Eron, tinch kelishuv yo'lini rad etishdi. Hozirgi davrgacha hal qilinmagan arab-isroil mojarosi isbotlab beradiki, mojaralarning yechish yagona yo'li siyosiy muzokaralardir.

80- yillardagi yana bir mojarolardan biri bu afg'on muammosidir. 1978y. aprelda Afg'onistonda Xalq-Demokratik partiya boshchiligida milliy-demokratik inqilob g'alaba qozonib, Afg'oniston Demokratik Respublika tashkil etildi. Birinchi prezidenti-Nur Muxammad Taraki edi. Shu yilning dekabrda SSSR bilan ADR o'rtasida "Do'stlik, va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma imzolangan edi. Uning 4- moddasida SSSR tomondan Afg'onistonga yordam berish to'g'risida ma'lumot kiritilgan edi. 1978-1979y. Afg'onistonda hokimiyat uchun o'zaro kurash

natijasida hokimiyat tepasiga Bosh Vazir Amin chiqdi. U Nur Muxammad Tarakiyni o'ldirib, mamlakatda shaxsiy hokimiyatni mustahkamlash uchun o'z raqiblariga qarshi qatag'on siyosatini olib bordi. Xalq Demokratik partiyasida tarqoqlik kuchaydi. Bu esa hokimiyatni susayishiga olib keldi. Bu SSSR rag'bariyatini tashvishga soldi. 1979y. 26 dekabrda SSSRning KGB va GRU(BRB) maxsus bo'linmalarining operatsiyasi natijasida Amin o'ldirilib, 28 dekabrda mamlakatga sovet qo'shinlari kiritilgan edi. Yangi hokimiyatni SSSRga sodiq bo'lgan Babrak Karmal boshqardi. Yangi hokimiyat olib borgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy chora -tadbirlar xalqning noroziligiga uchradi. U sovet andozadagi jamiyatni barpo qilmoqchi edi. Mamlakatda sovet qo'shinlarga qarshi xalq harakati boshlandi. G'arb davlatlari SSSRni tajovuzlikda ayblab, unga qarshi harakatlarni tashkil etishni boshlashgan edi. Ayni shu paytda "Al -qaida" kabi harakatlar tashkil etildi. 1988y. 15 mayda SSSR o'z qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqishga majbur bo'ldi. Ammo bu mamlakatda tinchlik o'rnatishga olib kelmadi. Fuqarolik urush avj olib, yangi-yangi qurbonlarga olib keldi. 1996 yilning oktabrda hokimiyat tepasiga Tolibon harakat vakillari chiqishdi. Mamlakatda fundamental islomistlar qo'liga o'tib, mintaqada ahvol yanada keskinlashdi.80- yillardagi yana bir mojarolar - Iroq bilan Eron o'rtasida bo'lib o'tdi. 1980y. Iroq-Eron chegaraning janubiy qismida shu ikki davlat o'rtasida qurolli to'qnashuv boshlandi. Asosiy sabab- hal qilinmagan chegaradagi muammo. Unga dinlararo mojarolar ham qo'shilgan edi. Eron odam jihatdan ustun bo'lsa, Iroq SSSRdan olgan harbiy texnika tomondan ustun turgan edi. Urush boshlanishi bilan xavfsizlikni ta'minlash bahonasida AQSh Fors bo'g'oziga o'z harbiy kemalarni kiritgan edi. Urush natijasida Iroq ham, Eron ham katta zarar ko'rishgan. Shaxsiy tarkibda katta talofat ko'rishdi. Faqat 1988 y. BMT yordamida bu urush to'xtatildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 1945-1990yy. dagi davr ikki



jahon tizimlarini tashkil topishi bilan izohlash mumkin. Shu tizimlar o'rtasidagi qarama-qarshiligi butun dunyoga ta'sir qilib, turli lokal mojaralarda o'z ifodasini topgan edi. 1991y. SSSRni tarqalib ketishi shu qarama-qarshiligiga yakun yasaldi.

Savollar va vazifalar.

1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng jahon maydonidagi asosiy o'zgarishlari?
2. "Sovuq urush" siyosati, uning sabablari ?
3. Ikkinchi jahon urushdan so'ng strategiya va taktikadagi o'zgarishlari?
4. 50-60 yillardagi mintaqaviy mojarolarning umumiy jihatlari?
5. Afg'on mojaroda SSSRning xatosi?

## **9 MAVZU: Hozirgi davrda qurolli mojarolari.**

Reja:

1. XXa. 80-90 yillarda Yer yuzidagi siyosiy vaziyatni o'zgarishi.
2. Osiyodagi qurolli mojarolar (Iroq-Kuvayt, afg'on mojarosi)
3. Yugoslaviya mojarosi.
4. AQSh-Iroq mojarosi..

XXa. 90- yillarda dunyoda keskin o'zgarishlar ro'y berdi-SSSR siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga uchrab, yemirilib, parchalandi. Xalqaro siyosiy maydonga yangi mustaqil milliy davlatlar chiqishdi. Ikki jahon siyosiy tizim o'rtasidagi qarama-qarshilik va uning natijasida boshlangan "sovuq urush" tugadi. Ammo sovuq urushi tugagan bo'lsa ham dunyoda xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar paydo bo'ldi: etnik,

mintaqaviy mojarolar, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkotrafik va b. Vaziyatdan foydalanib, ba'zi davlatlar xalqaro maydonda o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qilishgan. Xalqaro maydonda kuchlar nisbati o'zgarib, yangi muammolar paydo bo'ldi:

-Ikki qutbli dunyo o'rniga bir qutbli dunyo shakllandi. AQSh o'z iqtisodiy, harbiy qudratidan foydalanib butun dunyoda o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilmoqda.

-Milliy ong uyg'onib, o'z mustaqil davlatlarini tashkil qilish maqsadida turli mamlakatlarda separatizm kuchaydi,

-Etnik va millatlararo ziddiyatlar kuchaydi, shu hisobidan yer yuzida siyosiy, diniy ekstremizm kuchayib ketdi.

- Rivojlangan va kambag'al davlatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar saqlanib turibdi, bu ham xalqaro ekstremizm va terrorizmni kuchayishiga sabab bo'ldi.

Yuqorida qayd qilingan omillar xalqaro vaziyatni keskinlashiga sabab bo'lib, global xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarni kuchaytirayapti. Bu tahdidlar insoniyat taraqqiyotiga, xalqlar o'rtasidagi hamkorligiga to'sqinlik qilib, insoniyat kelajagini xavf ostiga solayapti. Asosiy tahdidlardan biri bu mintaqaviy qurolli mojarolar. Ularning oqibatida yer yuzida turli lokal urushlar vujudga kelayapti. Umuman olganda, mintaqaviy urushlar har doim bo'lgan. Ularning asosiy sababi- jamiyatning ichida turli ijtimoiy, milliy, diniy va siyosiy tabaqalar mavjud. Ular turli qarama-qarshi g'oyalarga, dunyo qarashga ega bo'lib, o'z g'oyalarni amalga oshirish maqsadida bir-biri bilan kurashadi, ular o'rtasida turli ziddiyatlar vujudga keladi. Shu ziddiyatlarning bir vaqtda keskinlashishi jamiyatni inqirozga olib keladi. Bu inqirozlar turli, jumladan, qurolli mojaralarda o'z ifodasini topadi.

Masalan, hozirgi davrda milliy-etnik mojarolar insoniyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Bu mojarolar o'z siyosiy maqomni o'zgartirish yoki hududlarga davogarlik qilish masalalari bilan bog'liq. Shu sababdan separatizm kuchayib boradi. Masalan, Buyuk Britaniyada- Shimoliy Irlandiya masalasi, Fransiyada - Korsika, Ispaniyada- basklar, Turkiyada - kurdlar, Kanadada- Kvebek, Gruziyada- Jan.Osetiya va Abxaziya masalalari va x. Bir tomondan separatizm kuchayib borsa, ikkinchi tomondan esa unga qarama-qarshi globalizasiya jarayoni avj olayapti. Xalqlar, mamlakatlar o'rtasida turli sohalarida aloqalar rivojlanayapti, yagona talablarga , qoidalarga javob beradigan iqtisodiy, madaniy, siyosiy hayot shakllanayapti. Shu qarama-qarshi jarayonlarni bir vaqtda avj olishi yangi mojarolarga olib kelayapti. Hozirgi mojarolarning yana bir sababi- SSSR parchalanishi bilan dunyodagi kuchlar nisbati buzilib, geosiyosiy inqiroz boshlandi. Turli mamlakatlar o'rtasida o'z mavqeini saqlab qolish yoki uni kuchaytirish maqsadida o'zaro kurash kuchaydi. Masalan, AQSh bilan Rossiya, Xitoy, G'arbiy Yevropa o'rtasida. Jahon socialistik tizimi yo'q bo'lishi bilan AQSh yagona dunyo yetakchisiga aylanib, boshqa mamlakatlarga o'z ta'sirini o'tkazmoqchi. Xalqaro tashkilotlarni ( BMT, YeQQT) chetlashtirib, AQSh mavjud bo'lgan mojarolarni o'z kuchiga tayanib hal qilmoqchi ( Iroq, Afg'oniston, Yugoslaviya). Afsuski, bu urinishlar mojarolarni hal etish o'rniga ularni keskinlashuviga olib keldi. Hayot tajribasi shuni ko'rsatdiki, mojarolar ishtirokchilari o'zaro yon bosishga, bir-birini tushunishga, kuch ishlatishdan voz kechishsa, ularda shu mojarolarni yechishga xohish bo'lsa, faqat shu holda bu mojarolar o'z yechimini topadi. Uchinchi tomon bu jarayonni amalga oshirishga faqat ko'maklashishi mumkin, vositachi rolni bajarib.

Hozirgi davrda dunyoda yangi fikrlash vujudga kelayapti. Uning mohiyati- globalashtirish natijasida xalqlar, davlatlar o'rtasida turli sohadagi aloqalar rivojlanayapti, yer yuzidagi

xalqlar o'zaro bog'liqligini anglab, mavjud bo'lgan mojarolarni faqat tinch yo'l bilan hal etish mumkinligini tushungan, ammo shunga qaramasdan hozirgi davrda qurolli mojarolar kamayib ketmadi.

Zamonaviy qurolli mojarolar o'ziga xos xususiyatlariga ega:

-An'anaviy bo'lmagan shaklda qurolli kuchlardan foydalanish (m. tinchlikni o'rnatish kuchlar sifatida)

-Cheklangan urush taktikasini ishlab chiqish.

-Shaxsiy tarkib orasida talofatni kamaytirish maqsadida yangi qurolni, yangi texnologiyani, yangi taktikani ishlab chiqish ( m.o'z o'zini boshqaradigan raketalar).

-Dushmanning jangovar ruxini pasaytirish maqsadida axborot- targ'ibot quroldan foydalanish, psixologik urushni olib borish.

90- yillarda eng yirik qurolli mojarolardan biri- Iroqning Kuvaytga qilgan urushi. Kuvaytga hududiy davogarlik qilgan Iroq, Saddam Xusayn boshchiligida, Kuvaytni bosib olmoqchi bo'ldi (1991y). Shunga javoban Kuvaytning ittifoqchisi-AQSh , Iroqqa qarshi urushni boshlab yuborishdi. Bu operatsiyasi "Sahrodagi bo'ron" degan nom oldi. AQShning shu urushdagi asosiy sababi- mintaqadagi neft manbaalarni, jahon bozordagi neft narxlarni o'z nazorat ostiga olish edi ."Sahrodagi bo'ron" operatsiyasida AQSh va uning ittifoqchilari tomondan 676 ming askar va ofitser, 1740 samolyot, 3673 tank, 147 harbiy kema ishtirok etdi. Bu hujumni qaytarish uchun Iroq 1mln.840minglik armiya, 840 tank, 500 samolyot, 15 harbiy kemaga ega edi.Bu urushda AQSh barcha qurolli kuchlar turlaridan foydalandi: quruqlikdagi, harbiy- havo, harbiy-dengiz kuchlari. Asosiy zarba Iroqning aerodromlar, harbiy sanoat markazlari, transport yo'llari, PVO qismlariga qaratilgan edi. Iroq katta talofat ko'rib, bosib olingan Kuvayt yerlarini ozod qilib, chekinishga majbur bo'ldi.

Ammo AQSh asosiy maqsadiga erisholmadi- Iroq taslim bo'lmadi, uning qurolli kuchlar tor-mor etilmadi.

90- yillarga kelib sotsialistik jaxon tizimi parchalanib letdi. SSSR inqirozga uchrab, zaiflashib borishi bilan, jahon sotsialistik tizimi ham barbod bo'ldi. Natijada ,SSSRga o'xshab, ba'zi davlatlar ham bo'linib ketdi: Chexoslovakiya, Yugoslaviya.

Yugoslaviya markazlashgan davlat sifatida tashkil topgan bo'lsa ham, milliy muammolar davlatni, avval federasiyaga. Keyinroq konfederatsiyaga aylanishga majbur qildi. Mamlakat oltita respublikadan iborat edi. Respublikalar o'rtasidagi chegaralar mavjud bo'lgan millatlar yashagan hududlariga to'g'ri kelmagan. Bu mamlakatidagi milliy masalani keskinlashiga sabab bo'lgan. Yugoslaviyada separatizm kuchayib, u bir nechta mustaqil davlatga bo'linib ketdi- Sloveniya, Makedoniya, Bosniya va Gersogovina, Serbiya, Xorvatiya va Chernogoriyaga. Bu davlatlar ko'pmillatli bo'lib, ularning tarkibida serb aholisi muhim rolni o'ynagan. Xorvatiya, Makedoniya, Bosniyada yashagan serblar Serbiya tarkibida qolish istagini bildirishgan edi. Bu esa shu mamlakatlardagi fuqarolik urushlarga olib keldi. 1993 yilga kelib bu urushlarda sal kam 160 ming kishi halok bo'ldi. 1997 yilga kelib Yugoslaviya mojaroning markazi Serbiya bo'lib qoldi. Serbiyaning bir qismi bo'lgan Kosovo mintaqasida yashagan albanlar(kosovarlar)ajlilib, o'z mustaqil davlatni tashkil qilishmoqchi edi.Bu esa Serbiya hududiy daxlsizligini buzishga olib kelish mumkin edi.Serbiya rahbariyati Kosovo o'z qo'shinlarini kiritib, tartib o'rnatmoqchi edi. Ammo albanlar qattiq qarshilik ko'rsatishdi. Natijada serbiyada fuqarolik urushi avj oldi. Albanlar g'arb davlatlarning, avvalombor, AQSh yordamiga tayanib, o'z boshqaruv organlarini, armiyani(Kosovoni ozod qilish armiyasi) tashkil etishdi.Tinchlik va tartib o'rnatish maqsadida NATO 1999 yilda Serbiyaga qarshi hujum uyushtirgan edi. "Ittifoqchilik kuchi" deb nom olgan bu urush 1999y. 24 martda boshlanib, shu yilning 20 iyun kuni tugadi. O'z xarakter

bo'yicha NATO tomonidan bu urush havo-dengiz hujumkor operatsiyasi bo'lgan. NATO qo'shinlari ustun bo'lib Serbiyani havo va dengiz tomondan bombardimon qilishdi.

Serbiyaga 5000 tonna bomba tashaldi, 1500 uchuvchi raketalar uchirildi. Tinch aholidan 1200 kishi halok bo'ldi, 500 mingdan ortiq yarador bo'ldi, 860ming kishi qochoqqa aylandi. Serbiya armiyasi eskirgan harbiy texnikaga qurollangan bo'lib, qattiq qarshilik ko'rsatgan bo'lsa ham, ammo taslim bo'lishga majbur bo'ldi. Urushni boshlagan AQSh va uning ittifoqchilari, NATO qo'shinlari hududiy daxlsizligini saqlab qolishga va'da berishgan bo'lsa ham, ammo amalda serbiya armiyasi taslim bo'lgandan so'ng Kosovaga o'z qo'shinlarini kiritib, 2008 y. fevral oyida AQSh va Yevropa Ittifoqi yordami bilan Kosovada mustaqil davlat tashkil topdi. Shu zahoti g'arb davlatlari shu davlatni tan olishdi. Bu bilan NATO davlatlari BMTning Kosovo bo'yicha qabul qilingan qarorini qo'pol ravishda buzishdi. Serbiyadagi urushning asosiy sababi- bir tomondan, albanlarning o'z taqdirini o'zlari hal qilish intilishi, ikkinchi tomondan, serblarning o'z hududiy daxlsizligini saqlab qolish istagi o'rtasidagi ziddiyatdir. NATO, BMTning roziligisiz, bu mojaroga aralashib, o'zini tajovuz sifatida namoyon qildi. Shu bilan AQSh yana bir marotaba o'zini BMTdan ustun qo'yib, kuch yordamida shu mojaroni hal qilmoqchi bo'lib, shu orqali mintaqada o'z mavqeini oshirmoqchi bo'ldi. Bu bilan ikkinchi jahon urushdan so'ng dunyoda o'rnatilgan xalqaro tartib buzildi. NATOning Serbiyaga qarshi urush yangi davlatlararo ziddiyatlarga olib keldi. AQSh bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. 2008 yilda Kosovo mustaqilligini e'lon qilinishi va g'arb davlatlar tomondan shu mustaqillikni tan olinishi yer yuzidagi mavjud bo'lgan etnik ziddiyatlarni avj olishiga olib keldi. Masalan, 2008 y. avgust oyida Gruziya bilan Rossiya o'rtasidagi urush. Natijasida Janubiy Osetiya va Abxaziya o'z davlat mustaqilligini e'lon qildi va Rossiya ularni tan oldi.

Yigirma birinchi asrning boshida xalqaro terrorizm kuchayib ketdi. Masalan 2001 yilning 11 sentabrda "Al-qayida" terroristik tashkilot tomondan AQShga qarshi hujum uyushtirildi. 3000 kishi halok bo'ldi. Bu voqea xalqaro terrorizmning global xavfsizligiga, barqarorligiga bo'lgan tahdidni namoyon qildi. 2001 yil 20 sentabrda AQSh Prezidenti J.Bush tolibon hukumatiga Usama bin Laden va "Al-qaida"ning boshqa rahbarlarni AQShga topshirishni talab qildi. Ammo toliblar buni rad etgandan so'ng AQSh terrorizmning markazi bo'lgan Afg'onistonga qarshi urushni boshlab yubordi. Urushga qadar toliblar to'rtta kuchli qurolli kuchlar guruhiga ega edi:

-Janubi-Sharqda joylashgan Kandagar guruhi, bu yerda aviabaza, PVO tizimi va jangarlarni tayyorlash markazi joylashgan edi;

-Janubi-G'arbda joylashgan Hirot guruhi, bu yerda ikkita aviabaza (Hirot, Shindan) va ikkita jangarlar tayyorlash markazi joylashgan edi;

-Shimoliy-G'arbda joylashgan Mozori-Sharif guruhi, bu yerda aviabaza, va uchta jangarlarni tayyorlash markazi joylashgan edi;

-Markazda joylashgan Qobul-Jalolobod guruhi, bu yerda PVO tizimi, to'rtta aviabaza (Bomian, Qobul, Bagram, Jalolobod) va uchta jangarlarni tayyorlash markazlari joylashgan edi.

2001yil 7 oktabr kuni AQSh va uning NATO ittifoqchilari "Yengilmas kuch"deb nom olgan operatsiyasini boshlab yuborishdi. Bu operatsiyasining asosiy qismi to'rtta bosqichdan iborat edi:

-7-15 oktabr- toliblar harbiy infrastrukturaga qarshi raketalar zarbasi

-15 oktabr-2 noyabrgacha- toliblarga qarshi havodan zarba berildi. Maqsad - ittifoqchilarning quruqlikdagi qo'shinlar uchun qulay sharoitlarni yaratish

-2-15 noyabr- ittifoqchilarning quruqlikdagi qo'shinlarni

hujumga o'lish va toliblarning qarshiligini yakson qilish, -15 noyabr-2001y. oxirigacha- ittifoqchilarning qo'shinlari Afg'onistonda joylashishi va qolgan toliblar kuchlarni yo'q qilish.

Shu bilan asosiy vazifa bajarildi - terroristlarni qo'llab-quvvatlagan toliblar hokimiyati ag'darildi. Ammo toliblar o'z kuchlarni saqlab qolib, Pokiston tomonga chekinishga muvaqqat bo'lishdi.

"Yengilmas kuch " operatsiyani amalga oshirishda AQSh va ittifoqchilar 284 samolyot, 34 harbiy kema, 15 ming askarni ishlatishdi. Urushda AQSh yangi taktikadan foydalandi-shaxsiy tarkibini saqlash maqsadida asosiy zarba havodan ko'rsatish, psixologik va mafkuraviy kurashni olib borish. Shu bilan dushmanning harbiy infrastrukturasini ishdan chiqarilib, uning asosiy kuchlari yakson qilindi. Bu taktikani AQSh 2003y. Iroqqa qarshi ikkinchi urushda qo'lladi. Iroqni terroristlarni qo'llab-quvvatlashda, kimyoviy va yadro qurolni ishlab chiqishda ayblab, AQSh Iroqqa qarshi urushni boshladi. Rasmiy jihatdan urushning maqsadi- Saddam Xusayn hukmronligini ag'darish, Iroqda demokratik tartib o'rnatish. Hayotda esa maqsad- katta neft manbalariga ega bo'lgan mintaqani qo'lga kiritish va atrofda joylashgan davlatlarni o'zi nazorat ostiga olish. Iroqqa qarshi urushda AQSh qurolli kuchlarining barcha urlaridan foydalandi-harbiy-havo, harbiy -dengiz, quruqlikdagi qo'shinlari. Jami 300ming askar va ofiser, 2300 tank, 750 samolyot, 70 kema. Iroq shu paytda 400minglik armiyaga, 2600 tank, 1500to'p, 350 samolyotga ega edi. Urush havo zarbasidan boshlandi. Asosan aerodromlar, raketa bazalari, harbiy infrastrukturasini bombardimon qilindi. Yangi turdagi qurollar ishlatildi (o'zi manzilga uchadigan raketalar, qanotli raketalar). AQShning ustunligini hisobga olib, Iroq qo'mondonligi o'z asosiy kuchlarini shaharlarda to'pladi. Shuni hisobga olib, AQSh shunga yarasha taktikani ishlatdi-shaharlarni qamal qilib, uni qismlarga bo'lib, sekin-asta

dushmani shahardan siqib chiqarish. Martda boshlangan urush mayga borib tugadi. Iroqning asosiy qurolli kuchlar tor-mor etilib, taslim bo'ldi. Saddam Xusayning hokimiyati ag'darildi. AQSh yana bir marotaba dunyoga o'z harbiy qudratini namoyon qildi. Ammo keyingi voqealar shuni ko'rsatdiki, AQSh mamlakatdagi vaziyatni nazorat qila olmayapti. Iroqda qarshilik harakati kuchaydi, ichki nizolar kuchayib, yangi hokimiyat tartib o'rnatil olmayapti. Mavzuga yakun yasab shuni xulosa qilish mumkinki, hozirgi qurolli mojarolarni hal qilishda asosiy yo'l-siyosiy muzokaralar, mojaro ishtirokchilarning uni hal etishga bo'lgan manfaatdorligi, xohishi va intilishi. Shu bilan birga, davr talabi shundan iboratki - bitta davlat hukmronligiga asoslangan xalqaro munosabatlar tizimidan voz kechib, o'zaro hamkorligiga, ishonchga asoslangan yangi xalqaro munosabatlar tizimini barpo qilish, ko'p qutbli dunyoni shakllantirish, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar rolini mustahkamlash, global xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarga birgalikda kurashish.

#### Savollar va vazifalar.

- 1.90- yillarda jahon maydonda vaziyatni o'zgarishning mohiyati va sabablari?
2. Zamonaviy mojarolarning sabablari ?
3. Global xavfsizlikka bo'lgan zamonaviy tahdidlari?
4. Yugoslaviya mojaroning mohiyati?
5. Afg'on muammoning sabablari?
6. Afg'onistonda va Iroqda AQSh qo'llagan umumiy taktika?

## 10 MAVZU: O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlarning shakllanishi.

Reja:

1. O'zbekiston xavfsizligi va barqarorlik masalasi.
2. O'zbekiston Qurolli Kuchlarning yaratish zarurligi va ahamiyati.
3. O'zbekistonda harbiy islohotlarni amalga oshirilishi.
4. Hozirgi davrda O'zbekiston xavfsizlik muammolari.

SSSR parchalanib, yagona Sovet armiya ham yo'q bo'ldi. Shuning uchun yosh milliy davlatlar o'z qurolli Kuchlarni yangidan tashkil qilishga majbur edi. Yangi ta'moyillarga asoslangan armiyani tashkil qilish uchun harbiy islohotlarni amalga oshirish kerak edi.

Oliy Majlisning 1-chaqiriq 14-sessiyasida e'tibor qurolli Kuchlarni yagona davlat siyosati asosida bosqichma -bosqich chuqur isloh etish masalaga qaratildi. Islohotlarni amalga oshirishda uchta asosiy omil hisobga olindi:

-Qurolli Kuchlar texnikaviy jihatdan yaxshi ta'minlangan hamda boshqaruvning ishonchli vositasiga ega bo'lishi lozimki, bu jangovar vositalar tarkibi kam, ammo samaradorligi yuqori bo'lgan, qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalarni hal etish imkonini berishi lozim. Bu o'z o'rnida shaxsiy tarkibning kasbiy malakasi yuqori, texnika va qurol-aslahalarning jangovar imkoniyatlardan to'laqonli -foydalanish mahorati a'lo darajada bo'lishini taqozo etadi.

-Qurolli Kuchlarni isloh qilishda jahon va davlatimiz harbiy yutuqlari, harbiy qurilishning ilg'or tajribalari va fanidan foydalanildi. Qurolli jangning yangi usul va shakllari paydo bo'lgan

sharoitida jangovar vazifalarni hal qilishning yanada samarali imkoniyatlarini izlash borasida faol ish olib borildi. Bunda,

adbatta, ekstremizm va xalqaro terrorizm faoliyatning faollashuvi kabi yangi omillarga qarshi kurash ham nazarda tutildi.

-Qurolli Kuchlarning har tomonlama yetuk shaxsiy tarkibga ega bo'lishidir. Islohot harbiy xizmatchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni, ularning professional tayyorgaligini va qayta tayyorlashni tashkil etishning butun tizimini qaytadan ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.

Istiqloq yillarida mamlakatda davlat mustaqilligini mustahkamlash, Vatanimizning hududiy yaxlitligini, daxlsizligini va osoyishtaligini ta'minlash asosiy vazifa sifatida hamisha davlatning diqqat- e'tiborida bo'ldi. Buning asosiy sababi-mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi- bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni barpo etishdir. Shu maqsadga erishishning asosiy omili- milliy xavfsizlikni mustahkamlash. Milliy xavfsizlikni ta'minlashda kuchli davlat bilan bir qatorda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari amalga oshirayotgan faol ishlar, shuningdek, turli nodavlat tuzilmalarining keng tarmog'i zarur va muhim tarkibiy qismlardir. Shuni hisobga olish kerakki, O'zbekiston juda murakkab mintaqada joylashgan. SSSR yemirilib, parchalanib ketishi bilan ikki qutbli dunyo o'rniga bir qutbli dunyo shakllangan. Global xavfsizlikka yangi tahdidlar xavf sola boshladi- diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, mintaqaviy mojarolar. Xavfsizlik yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlarga tegishli munosabatda bo'la olishning o'zigina yetarli emas. Mavjud bo'lgan xavf-xatarlarning tabiatini to'g'ri tushunib yetish kerak. O'zbekiston xavfsizligi quyidagi muammolar bilan bog'liq:

- 1.Xavfsizlik uzluksiz holatdir. Milliy va global xavfsizligi bir-biriga bog'langan.
- 2.Markaziy Osiyoda kollektiv xavfsizlik tizimi yaratilmagan.
- 3.Markaziy Osiyoda Rossiya, Xitoy, AQSh, Sharq va G'arb mamlakatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari yuzaka

chiqadigan mintaqadir.

4.O'zbekistonni etnik, iqtisodiy - ijtimoiy muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi.

5.Afg'on muammosi o'z yechimini topmagan.

Milliy xavfsizlik, mamlakatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlashda eng muhim omili- mudofaa qobiliyati. Davlatning mudofaa qobiliyati uning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlaridan tarkib topadi. Bu sohada O'zbekiston yuritadigan siyosatning asoslari Oliy Majlis tomonidan keng va har tomonlama muhokamasidan so'ng qabul qilingan harbiy doktrinada mustahkamlab qo'yilgan. Mudofaa qobiliyatini mustahkamlash qoidalari quyidagidan iborat:

-Kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish.

-Mudofaa qobiliyatini oqilona darajada saqlab turish.

-Xalqaro huquq qoidalari va me'yorlariga og'ishmay rioya etish.

-Xalqaro bitimlar bo'yicha o'z zimmamizga olgan majburiyatlarni bajarish.

Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning qurolli Kuchlaridir. Ularning jangovar qudrati hamda bosqinchini qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib turish vazifalarini bajarishga tayyorlik darajasidan hamda mamlakat hududiga bosqinchilik qilingan taqdirda oddiy qurol-yaroqlarning har xil turlaridan foydalangan holda bosqinchini tor-mor qilishdan iboratdir.

Mustaqillik davrida o'z qurolli Kuchlarni tashkil etish uchun O'zbekistonda, avvalom bor, huquqiy asos yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 1991y. 31 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Bayonotida "Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning Kostitusiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlari vazirligi.

va Milliy gvardiya tuziladi" deb ko'rsatilgan edi. Bu 1991 y. 31 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi qonunda mustahkamlandi va "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya muqobil xizmatni tashkil etish huquqiga ega" deb huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu yosh respublikaga mustaqil harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini berdi. 1991 y. 6 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan, Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi, uning shtat tizimi va vakolatlari belgilandi. 1991y. 25 oktabrdagi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va Nizomlari tasdiqlandi. Turkiston harbiy okrugi boshqaruv organlari negizida Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi va boshqarmalari tuzildi. Mudofaa Vazirlik zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- harbiy safarbarlik tadbirlari,
- milliy gvardiya tuz sh va ta'lim berish, fuqarolar mudofaasini amalga oshirish,
- harbiy bilim yurtlarini tashkil etish va boshqarish,
- muqobil xizmatni tashkil qilish,
- urush qatnashchilari va baynalmilalchi jangchilar bilan ishlash,
- harbiy xizmatga chaqirish, qo'shinlarni joylashtirish, harbiy mashqlar o'tkazishni muvofiqlashtirish, qo'shin va harbiy ob'ektlarni yangi joyga ko'chirib joylashtirish,
- harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish,
- yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

O'zbekiston Respublikasi o'z qurolli Kuchlarini tuzishda BMTning huquqiy me'yorlari, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Xelsinki yakunlovchi akti, MDK kollektiv xavfsizlik Shartnomasi kabi xalqaro hujjatlarning barcha talablariga rioya qildi. 1992 y. 3 iyuldagi Prezident farmoniga muvofiq Mudofaa ishlari vazirligi- Mudofaa vazirligiga aylantirildi.

1993y.ning 22 noyabrda " O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismining Jangovar Bayrog'i to'g'risida"gi Prezident farmoni imzolandi. 1992y. 14 yanvarda "O'zbekiston hududida joylashgan harbiy qismlar va qo'shinlarni o'z tasarrufiga olish to'g'risida" qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan Oliy Kengashining 1994y. 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Vatan himoyachilari kunini belgilash to'g'risida"gi qonuniga binoan 14 yanvar kuni Vatan himoyachilar kuni, deb e'lon qilindi.

1995y. 30 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasi mamlakat harbiy sohadagi siyosatini belgilab berdi. Mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, 2000y. 3 fevral kuni O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilindi. Uning asosida 1992y.3 iyulda Oliy Kengashda "Mudofaa to'g'risida", "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" hamda "Muqobil xizmat to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. Bu hujjatlar mamlakatda harbiy siyosatni, mudofaa va barqarorlik konsepsiyasini amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Uning asosiy tamoyillari quyidagidek iborat:

1. Boshqa davlatlarga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik, biroq yurtimizga uyushtirilgan har qanday tajovuzning oldini olish va uni daf etish.
2. Xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq ravishda kollektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish.
3. Harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik.
4. Harbiy qurilishning zamonaviy urushlar va qurolli mojarolarning xususiyatiga monand bo'lish.
5. Yadro quroli va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollarni yaratish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va joylashtirishni rad etish.
6. Mudofaaning yetarli darajada bo'lishi.
7. Harbiy xizmat nufuzini ta'minlash.

Qonunga asosan, qurolli Kuchlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti- Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni rahbarlik qilishi belgilandi.

O'zbekiston qurolli kuchlari - harbiy tuzilmalar, harbiy o'quv yurtlari va boshqa harbiy qismlardan iborat. Ular davlat tomondan tashkil qilingan va ta'minlangan bo'lib, urush va boshqa harbiy mojarolarning oldini olish, O'zbekistonning davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayotini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlari o'z faoliyatini:

- qonun ustivorligi,
- markazlashgan boshqaruv va yakkaboshchilik,
- jangovar va safarbar holatlarga doimo tayyorlik,
- fuqarolarning umumiy harbiy majburiyati,
- kollektiv xavfsizlik tizimini barpo qilish,
- harbiy intizomga rioya qilish,
- partiyasizlik,
- Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilishni ta'minlash ta'moyillari asosida tashkil qiladi va amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlar quyidagi tarkibiga ega: quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, maxsus va muxandislik-quruvchilik qo'shinlari, ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari va Chegara qo'shinlari. Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga motoo'qchi, tankchi va artilleriya qo'shilmalari va qismlari, havo desanti, hujumchi desant, havo hujumidan mudofaa bo'linmalari, tez harakat qiluvchi kuchlar qismlari, ta'minot qismlari va bo'linmalari kiradi.

Harbiy -havo kuchlari qurolli Kuchlarning eng yuqori manyovrlangan qo'shin turlaridan biri hisoblanadi. Maxsus qo'shinlar jangovar harakatlarni operativ ta'minlash masalalarini

hal etish uchun mo'ljallangan. Ular eng muhim yo'nalishlarida tuziladigan qo'shinlar guruhlarini kuchaytirishga hamda ularning jangovar harakatlarini har taraflama ta'minlashga qaratilgan bo'lib, razvedkachi qo'shilmalar va qismlar, muhandislik, kimyoviy, aloqa qo'shinlari, radioelektron kurash qismlari, texnikaviy ta'minot qo'shinlari va qismlari, avtomobil, yo'l va quvur yotqizish qo'shinlari, muhandislik -aerodrom va aviatsiya-texnika qismlari, topogeodeziya va gidrometereologiya qismlarini,harbiy-muhandislik-qurilish tuzilmalarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy urushda aloqa qo'shinlarning ahamiyati o'sib bormoqda. Ular qo'shinlar va qurollarni boshqarish tizimida axborotlarni almashtirish xizmatini bajaradi. Aloqa qo'shinlari simli aloqa, radioaloqa, maxfiylashtirilgan aloqa vositalaridan foydalangan holda harbiy harakatlarning borishiga ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Chegara qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992y. 24 martdagi farmoniga ko'ra tuzildi.Ular oldida mamlakatning chegaralarini, uning suverenitetini himoya qilish vazifasi qo'yilgan.

1992 y. 23 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, respublika Qurolli Kuchlar negizida Milliy gvardiya tuzildi. Milliy gvardiya Qurolli Kuchlarning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy vazifasi: O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi hamda fuqarolarning Konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza qilishdan iborat.

Urush hollarida O'zbekiston qurolli Kuchlari o'z vazifalarini Milliy xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirliklari bilan birgalikda amalga oshiradi. Ularning birgalikdagi harakatini muvofiqlashtirish uchun 2000y. Mudofaa vazirligida O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlarining Birlashgan Shtabi tuzilgan.

Mamlakat qurolli Kuchlar tizimida olib borilgan islotlar, 1999-2001 yillardagi jangovar harakatlar va davlat mudofaasini



tashkil etish borasida to'plangan tajribalari asosida O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni 2001y. 11 mayda Oliy Majlisning 2-chaqiriq 5-sessiyasida yangi tahrirda tasdiqlandi. 2002y. 12 dekabrda esa " Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonun yangi taqirida qabul qilindi. Qo'shinlar operativ boshqaruvini tashkil etish maqsadida harbiy okruglar tashkil etildi. Harbiy okrug operatsion yo'nalishlarda mamlakatning xavfsizligini va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy harbiy ma'muriy birlik hamda umumqo'shin tezkor-strategik hududiy birlashmasidir.

Harbiy okruglar tashkil etilishi bilan qo'shinlar va qismlarni qayta joylashtirish amalga oshirildi. Bu ularni eng muhim strategik yo'nalishlarda jamlashga, hududiy mudofaaning haqiqiy tizimini shakllantirishga imkon berdi. Bugungi kunda har bir harbiy okrug, yirik qismlar o'z o'quv poligonlarga ega va ularda harbiy texnikani boshqarish ko'nikmalarini hosil qilish, jangovar qurollardan otish, artilleriya, havo janggi tayyorgaligi, vzvod, batalyon qism tarkibida taktik o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy okruglari:

- Shimoliy-G'arbiy harbiy okrug (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati, okrug shtabi- Nukus sh.),
- Janubiy- G'arbiy harbiy okrug ( Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari, okrug shtabi -qarshi sh.),
- Markaziy harbiy okrug(Samarkand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari, okrug shtabi- Jizzax sh.),
- Toshkent harbiy okrug(Toshkent sh. va Toshkent viloyati, okrug shtabi - Toshkent sh.),
- Sharqiy harbiy okrug(Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari, okrug shtabi – Marg'ilon sh.).

Harbiy islohotlar strategiyasi asosida son jihatidan uncha katta bo'lmagan, zamonaviy qurol-yaroq va texnika bilan qurollangan armiyani, jangovar harakatlar olib borishning eng

samarali usullarni egallagan va har qanday bosqinchi kuchlarga qarshi turishga hamda zarba berishga qodir bo'lgan tezkor, har tomonlama o'ziga suyangan va ta'minlangan qismlarni yaratishdan iborat bo'lgan vazifalarni bajarish asoslari yaratildi. Qurolli kuchlarning harbiy qudrati, jangovar qobiliyati birinchi navbatda uning shaxsiy tarkibining sifati bilan belgilanadi. Bu sifat uning professional darajasi, ahloqiy-ruxiy qat'iyati, jismoniy tayyorgaligi va intizomi bilan belgilanadi. Bu esa, avvalom bor, ofitser kadrlarga bog'lik. Bugungi kunda mamlakatimizda Mudofaa vazirligining Toshkent umumqo'shin komandirlari, Samarqand avtomobilchi komandir- muhandislar, Chirchiq tankchi komandir-muhandislar, Jizzax aviasiya oliy harbiy bilim yurtlarida, TATUning maxsus fakulteti, Ichki ishlar vazirligining Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, Yong'in xavfsizligi oliy texnika maktabida, okruglardagi serjantlar tayyorlash maktablarida qurolli Kuchlar saflariga turli mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanmoqda. 1995y. 2 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy Akademiyasi ochildi. Harbiy kasbni tanlovchi yoshlar uchun Toshkent, Samarqand, Urganch, Farg'ona shaharlarida harbiy mutaxassislariga yo'naltirilgan harbiy litseylar faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi sharoitda milliy xavfsizlik faqat kollektiv bo'lish mumkin. U hamfikir davlatlarning birgalikdagi sa'yi-harakatlari bilan, ularning imkoniyatlarini birlashtirish bilan ta'minlanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston BMT, YeQQT bayrog'i ostida tinchlikni qo'llab-quvvatlash sohasida amalga oshiralayotgan har qanday tadbirlarda ishtirok etadi. U mintaqada kollektiv xavfsizlik tizimini vujudga keltirishning tashabbuskorlaridan biridir. 1992 y. 15may kuni MDK davlatlar o'rtasida "Kollektiv xavfsizlik, tinchlikni saqlash, kollektiv kuchlarning maqomi haqida bitim" imzolandi.

Qo'shilmaslik harakatining a'zosi bo'lgan O'zbekiston biron-bir harbiy-siyosiy blokda qatnashishni nomaqbul deb hisoblaydi,

buni milliy xavfsizlikning, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashning kafolati deb biladi. O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillardanoq xalqaro terrorizmga, diniy ekstremizm, narkobiznesga qarshi kurashda faol ishtirok etdi. O'zbekistonning terrorizm va yangi noan'anaviy tahdid turlariga qarshi qat'iy mavqei uning Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan holi hudud tashkil etish (1993y.), mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish tizimini to'la shakllantirish maqsadida "Shanxay hamkorlik tashkiloti" tarkibida faol ishtirok etish bilan isbotlandi. Shu ma'noda ShKTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining (MATT) Ijroiya qo'mitasi Toshkentda joylashganligi (2004y. 17 iyun) alohida e'tiborga ega.

Mustaqillik yillarda amalga oshirilgan harbiy islohotlar natijasida O'zbekistonda zamonaviy, yaxshi qurollangan, milliy xavfsizlikka yangi tahdidlarga javob bera oladigan qurolli Kuchlar tashkil etildi. Qurolli Kuchlarda xizmat etish yoshlarimiz uchun nafaqat Konstitusiyaviy burchini bajarish uchun imkoniyat yaratib berdi, balki sharaflilik xizmatga aylandi. 2012 yilda O'zbekiston Qurolli Kuchlar o'z 20 yilligini nishonlashgan edi. Olib borilgan harbiy islohotlar o'z natijani berganini guvoh bo'lishimiz mumkin: muddatli harbiy xizmat bir yil etib belgilandi, chaqiruvning o'zi esa bir yilda bir marta amalga oshirilmoqda, safarbarlik-chaqiruv rezerv xizmati joriy etildi. Bugungi kunda qurolli Kuchlarimizdagi harbiy xizmatchilarning yarmidan ko'pini shartnoma asosida xizmatga chaqirilgan askar va serjantlar tashkil etmoqda.

Bularning barchasi armiyamizning qiyofasi va jangovar imkoniyatlarini, harbiy jamoalardagi ma'naviy-ahloqiy muhitni tubdan o'zgartirish imkonini berdi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni mustahkamlash, ular uchun zarur uy-joy va maishiy sharoitlarni yaratishga muhim ahamiyat berilgan. Faqat keyingi

besh yilda barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning oylik maoshi o'rtacha uch karra oshgani, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning oylik maoshlari va harbiy xizmatdan bo'shaganda to'lanadigan yordam puli miqdori esa sakkiz barobar o'sgani ham shundan dalolat beradi. Amalga oshirilgan ana shunday keng ko'lamli ishlarimiz yakunlarini baholar ekanmiz, armiyamiz hozirgi kunda nafaqat Vatanimiz chegaralarini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini himoya qilmoqda, ayni vaqtda mustahkam iroda va xarakter, mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadigan, jismoniy chiniqish va yuksak insoniy fazilatlar kamol topadigan haqiqiy professional malaka oshirish maktabiga aylanmoqda, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Hozirgi bosqichda Qurolli Kuchlarimizni isloh etish va uning jangovar tayyorgarligini oshirishning ahamiyati, eng avvalo, dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan, yaqin Sharq va Fors ko'rfazi atrofidagi vaziyat tobora keskinlashayotgan bir sharoitda qarama-qarshilik, xavfsizlikka turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotganini hisobga olganda, mintaqada yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat bilan belgilanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati, ulkan mineral-homashyo resurslariga ega ekani tufayli keyingi yillarda yirik davlatlarning doimiy diqqat markazidagi ob'ektga, ularning strategik manfaatlari to'qnashadigan hududga aylanmoqda, shu bilan birga, o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida urush davom etayotgan Afg'onistondagi keskinlik va qarama-qarshilikning hali-beri saqlanib kelayotgan ta'siri ostida qolmoqda. AQSh kontingenti va xavfsizlikka ko'maklashadigan xalqaro kuchlarning 2014 yilda Afg'onistondan olib chiqib ketilishining e'lon qilinishi va kelgusida bu qarorning amalga oshirilishi terrorchilik va ekstremistik faoliyatning kengayish xavfining kuchayishiga, mazkur ulkan mintaqada keskinlik va qarama-qarshilikning ortishiga, bu yerda doimiy beqarorlik manbai yaratilishiga olib

kelishi mumkin. Markaziy Osiyo va dunyoda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy, sosial-iqtisodiy, harbiy-siyosiy vaziyatni baholash mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotga nisbatan tahdidlarning kuchayish tendensiyasi tobora ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Bularning barchasi mamlakatimizning butun mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish va uning samaradorligini yuksaltirish bo'yicha oldindan ishlab chiqilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni, Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va harbiy tayyorgarligini har tomonlama mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishni taqozo etmoqda.

Savollar va vazifalar.

- 1.O'zbekiston mustaqillikning tarixiy ahamiyati?
- 2.Global va milliy xavfsizlikka mavjud bo'lgan taqdidlari?
- 3.O'zbekiston harbiy islohotlarning huquqiy asoslari.
- 4.Harbiy islohotlarning natijalari ?
- 5.Hozirgi davrda O'zbekiston xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar?

## Mundarija

1. Urushlar tarixi va hozirga zamon
2. Qadimgi dunyo xalqlari urushlari va harbiy san'at tarixi
3. O'rta asrlar urush tarixi va harbiy san'ati.
4. So'nggi o'rta asrlar davri va Yangi davr urushlari tarixi
5. Birinchi jahon urush tarixi.
6. Ikkinchi jahon urush arafasida jahon harbiy nazariyani rivojlanishi.
7. Ikkinchi jahon urushning tarixi.
8. Ikkinchi jahon urushdan so'ng qurolli mojarolar.
9. Hozirgi davrda qurolli mojarolari
10. O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlarni shakllanishi.

## Adabiyot

1. I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T.1997.
2. I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.T. "O'zbekiston".1999.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 23 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. 13.01 2015.
4. O'zbekiston Konstitusiyasi. "O'zbekiston". 2014.
5. G.K.Jukov. Vospominaniya i razmishleniya. M. 1986.
6. N.Makkiaveli.Gosudar. 1992.
7. M.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. T.Fan.1999.
8. S.Sokut, I.Kedrov. Voyna NATO v Yugoslavii. Osobaya papka NG.№2.1999.
9. Mejdunarodnie otnosheniya v Persidskom zalive v 90-e godi.M.1999.
10. S.Zemlyanoy. Voyna XXI veka. SNezavisimaya gazeta".6.10.1999.
11. Frans Mering. Istoriya voyn i voennogo iskusstva.Sank-Peterburg.Poligon. 2000.
12. Strategiya v trudax voennix klassikov.M.2003.
13. X.Usmonov, M.M.Kurganbekov, Ch.D.Ugay. Istoriya voyn i voennogo iskusstva.T.2006.
14. " O'zbekistonda harbiy ish tarixidan" O'z.R.FA tarix instituti.T. Sharq. 2012.
15. Konrad N.I. Sun-szi. Traktat o voennom iskusstve. M.1950. 207b.

“Urushlar va harbiy san’at tarixi” maruza matni ( maxsus fakultet talabalar uchun)

“Gumanitar fanlar” kafedrası majlisida muxokama qilingan va nashr etishga tavsiya qilingan  
(9.12.2015y. № 18 )

AKSKT fakulteti ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muxokama qilingan va nashr etishga tavsiya qiligan  
( 15. 12.2015y. № 4 )

TATU Ilmiy-uslubiy Kengashning majlisida muxokama qilindi va nashr etishga tavsiya qilingan  
( 13.01. 2016y. №5(86) )

Mualif – kat.uqit. B.A Arifxanov

Taqrizchi – TATU maxsus fakultet boshlig’i muovin  
J.M. Kutlimuratov

O’z.R FA Tarix institute katta ilmiy xodim  
t.f.n. X. Mamadaliev

Ma’sul muharrir—N.D. Yulanova  
(TATU “O’zbek va rus tillari “ kafedrası)